

Ikkinchi Bo'lim - Elchiga O'lim Yo'q, Mujohidga Taraf

Uzoqib ketgan elchi

Ertalabdan ko'zim uchar, barmoqlarimni o'pib, qaboqlarimga surtib ham to'xtata olmasdim.

Mana, nimaga ekan!

Ishxonamga kirib o'tirganimdan telefon jiringlay ketdi. Olmay bo'ladimi, oldim:

- Labbay?

Simning narigi yogv̄idan birov shirin o'zbakiy takallumda so'rashar edi:

- Alyo, assalomu alaykum va rohmatullohi va barokotuh. I

Lahjasidan bu tarafning odamiga o'xshamasdi:

Men boyaqish daf'atan qanday alik olarimni bilmay qisindim.

- Va alaykum...

Simdagi kishi jindek uzr, jindek istihola aralash so'radi:

- Meni ma'zur tutgaysiz, mirzaxonami bu?

Savoli salomidan-da xush takallum edi, chindan bu tarafning odami emas shekilli.

- Yo'q, gazetxona bu, - dedim men ham halim tortib.

- Darvoqe, gazet yozib, chop etarlar, adashmasam.

Qarangki, talaffuzi ham turk afandilarinikiga o'xshab ketmoqda edi.

- Adashmadingiz, gazet chiqaramiz... - dedim.

Rostini aytsam, uning muomalasi menga yoqib tushmoqda edi. Ovozi ham allaqanday tanish...

- Allohimga shukr, adashtirmaganiga shukr, - dedi. So'ng yana boyagidek, jindek uzr, jindek istihola aralash, (istiholasi o'ziga yarashib tushmoqda edi!) iltimos eta ketdi. - Ma'zur tutgaysiz, birodar, xizmat bo'lmasa, biza ko'p qadrluv tanishimiz Maqsudxo'ja janoblarini chorlatib versangiz.

Ana xolos, kim ekan, deb o'tiribman! Ilgari ham yo'qlab kelgan elchimiz emasmi? Har ehtimolga qarshi qaytarib so'radim:

- Shoshmang, kim dedingiz?..

- Kim emas, ko'p aziz tanishimiz, Maqsud mirzo Mahmudxo'ja o'g'v̄illari. Bormu, shunday cho'h go'zal inson? Tanigaysizmu?

- Taniganda qandoq! - dedim bir yerga yetib. U meni hali tanib ulgurmagan bo'lsa-da, men uni so'zlari, ovozi, bir go'zal o'zbekona takallumidan tanib turar edim. Qiyofasi ham ko'z oldimga kela boshlagan, adashmasam, o'sha - hov birda kelgan xorijlik mehmonimizga o'xshab-o'xshab ketmoqda edi. - Qidirgan odamizni topdim deyavering, taqsir. Kamina o'zimman, - dedim uning hurmati uchun ham o'rnimdan tura boshlab. (Mehmon otangdan ulugv̄. Ko'rmasa ham izzati-da, turib gaplashganga nima yetsin!..)

- Ana xolos, o'zlari edilarmi? Uyatluv ish bo'pti-ku?! - dedi u hijolatlarga botib.

- Hijolati nimasi, taqsir, Allohim uchrashtirganini ayting, - dedim mulozamatga tushib.

- Boy bo'lasiz ekan, Maqsudxo'ja janoblari, tanumabman, - deb yaxshilikka yo'ydi mehmon ham.

- Ammo men ovozdanoq tanib turib edim, tasmollab turib edim. Bo'ladi-ku shunaqa tuygv̄u - bir ogv̄iz so'zdanoq tanib olish... - dedim chiniga ko'chib.

Mehmon taqdirning yozugv̄idan shodlandi:

- Allohimga shukr, bir qo'ngv̄i ro'baro' et-sa-ya! Xizni yo'qlamayman-mi! Valloh-valloh, o'zimman, deng-a?!.

- O'zimman o'zimman, - deb qo'shilishib tasdiqladim.

Mehmon bunga sari boshi osmonga yetib, qaytarar edi:

- Muhandislikdan yozarlikni avlo ko'rgan o'sha bitikchi tanishimiz-da? Salompamning yolgv̄izlari, Bahridin birodarimizning xolavachchasi?! Uni qarang-a...

- O'sha o'zlari bilgan gap o'g'v̄irisi, tili goh shirin, goh achchiq mirzo, - deb hazillashdim.

- Qo'ying, achchiqdan Xudovandi Karimning o'zi asrasin. Diydor kunida Allohga xush keladurgon so'zlardan so'zlashayluk, - dedi mehmon.

- Unda xush kelibsiz, mehmon janoblari. Ko'rishaylik, - dedim yanada yaqin olib.

- Allohimga o'zi ko'rishtirsun. Kamina ertalabdan bezovta etub, qo'llarini tutmadimmi? Yumushlaridan qo'ymadimmi? - deb mulozimatlandi u.

- Hech-da, hech-da. Sizdek mozor bosib kelgan mehmonimizga vaqtlar tasadduq bo'lsin, - dedim iyib ketganimni yashirib o'tirmay. - Siz axir, adashmasam, hov birda tashrif buyurgan birodarimiz - elchi janoblari bo'lasiz. Azizdan aziz Margv̄u kennoyimizdan, Bahridin akamizdan salomlar yetkazgan, topdimmi?

- Ax, uni qarang-a! Tanidingiz-a, Maqsudxo'ja janoblari. Farosatiza balli, xotiralari butun ekan, mirzo janoblari, - deb to'lib-toshib alqashga tusha ketdi u.

"Xotiradan ham burun kalla butun, magv̄izlari to'q. Axir bekorga sigir boqib katta bo'libmizmi! Qancha qaymoqning tusini o'chirib yuborganmiz! O'sha qaymoqlar bo'lmasa, bizdan mirzo chiqarmidi, bitikchi chiqarmidi!" deb tegishgim keldi-yu tushunadimi-yo'qmi, deb tilimni tiydim.

O'rniga "qaerda to'xtadingiz, qanday ko'rishamiz"ga tushmoqchi edim, mehmon so'zni ilib ketdi.

- O'zlariga alangali salomlar bo'lsin!

- O'zlarigayam, o'zlarigayam... Qiynalmayin, urinmayin yetib keldingizmi? Xabar berib ham qo'ymabsiz, kutib olardik, - deb iltifot eta ketdim. Keyingina ichim qurib, intiqib, bu salomlar kimdanligini so'rashga jur'at etdim. - Yana o'sha diyorlardan so'raymizmi? O'shal azizlarimiz oldidan kelishingizmi? Qalay yurishibdi, tani-jonlari sogv̄, aziz boshlari omonmi? - deb qulfi-dilim ochilib surishtira ketdim.

- Esonchilik-essonchilik. Aziz xolavachchangiz-da, Bonu kennoyingiz-da, ko'pdan-ko'p duoi salomlar yo'l-lab qolmishlar. Hamma tanugan, bilgan, so'rganlarga Allohundan kushoyishlar tilamishlar.

- Eslaganlariga rahmat, shu dunyoning bir chekkasida biz ham borligimizni unutmaganlariga rahmat, - deb turib, mehmonning o'zidan ham ko'ngil so'ray ketdim. - Darvoqe, o'zlari buncha uzoqib ketdilar? Elchilikni bo'yinga olgan kishi ham odamni shunchalar sogv̄intiradimi? Biz-ku misoli tushovlab qo'yib yuborilgan otlardan farqimiz yo'q. O'z dalemizdan nari ketolmaymiz. Sarhad oshib uchib yurgan Siz erkin qushlarga nima bo'ldi, daragingiz yo'q!.

Mehmon bu so'zlardan iyib, ko'ksi o'sib kuldi.

- Erkin-erkin qushlar deng-a?! Oh, Siz mirzo janoblari, oh, siz so'z zargarlari, gapni ham ho'b topasizlar-da! Qani edi, o'shandoq bo'lsa! Istagan tarafingga ucholsang, uchib yetolsang.

- Harqalay, bizdan ko'ra istagan uchogʻingizga mina olasiz-ku.

- Bu fikringizda-da, jon vor. Jilla qursa bizda tushovlar yo'q, rasmiyatchilik yo'q. Lekin bu tarablara yo'l topmoq mushkul. Har kima viza beravermaslar. Ammo Alloh o'zi bilguvchi, qachon bu sarhadlarni ochvorarin O'zi bilgay. Ul zot "Kun" desayoq bas: barcha mushkulotlar barham topgay. Axir erta-yu kech Xudodan so'rab yotganlar qancha! Darbadarlar, vatanjudolar qancha! Ularning nolasi Allohga yetmasmi? Yetadi, axir, Maqsudxo'ja janoblari.

- Ilohim yetsin. O'shalarning zori yetmasa, kimniki yetadi? - dedim to'liqa boshlab.

- Avvalo, o'shalardan salom, bu kunni intizor intizor kutganlardan salom. Bahriddin akangizning iltijosi, omonati bu, - dedi mehmon gap o'zanini shu yoqqa burib.

- Salom yetkazgan o'zlariga sallamno! - dedim elchi janoblarini alqab.- Biz ham o'sha kunlarni ku-tib yotibmiz-da, intiqdan-intiq, ko'zlarimiz teshilib. Har kuni u ko'zlar necha qayta yoshlanadi ekan, - dedim avvalo kennoyijonimni nazarda tutib. Ammo buni bu odamga aytib bo'ladimi?! Elchi Bahriddin akamizni tanigani bilan Sulton akamni bilarmidi, bu tarixlarni tushuntirib bo'larmidi?! - Umid doram, deydilar. Shunaqa, bandasining ishi kutmoq, iltijo etmoq, yozmishiga ko'nmoq. Har ikki dunyo "iyyaka na'budu va iyyaka nasta'yin!" ustiga qurilmish, Maqsudxo'ja janoblari, undan beriga kushoyish yo'q, - dedi mehmon tasalli berib.

- Bizning ham yolgʻib zorimiz shu, - dedim men ham eshilib. - Shoyad, sizning bu tashrifingiz o'sha kushoyishlarning boshlanishi bo'lsa. - So'ng: - Uni-buni qo'ying qachon ko'rishamiz, qanday ko'rishamiz? Qaerda to'xtagansiz, mehmon janoblari? - deb qistamoqqa tushdim.

- Shunday ro'parangizdagi musofirxonada to'xtamishbiz. Siza yaqin deb shu yera qo'ndik, - dedi u.

- Uni qarang-a, qo'l uzatsa yetgudek joyda ekansiz-ku!..

- Bo'lmasa, hov birdagidek teatru maydoniga tushib bora berayluk. Topishub olarmiz?

- Topishganda-chi! Hoziroq uchib borgayman-ku, - dedim entikib.

- Alloh ko'rishtirsun, - dedi mehmonim...

Ko'rishtirsun, so'rashirsun, azizlarimizdan salom keltirgan kishining diydoriga o'zi yetkazsin... Zinalardan uchib tushib boryapmanu hov birda mujda keltirgan xorijlik mehmonimizning savlatli gavdasi, yirik-yirik qosh-ko'zlari, keng peshona, lo'ppi yuzlari ko'z oldimdan ketmas edi. Faqat mo'ylabiga oq oralaganmidi, yo'qmi, eslay olmayotirman. Ammo chiqsamoq bir ko'rishda tanib olsam kerak...

Shovullab yotgan favvora oldiga yetib ulgurmadim. Uning shovullashidan ham burun o'zini o'pib, epkin-to'zonlarini uchirib esayotgan shamoli... kishini seskantirib-junjiktirgudek edi. Hali bahor-da, daraxtlar endi kurtak yozdi, yoz kelsin, kimga ham yoqmas ekan u! Ammo favvora yoqilgan kunda tashrif buyurgan mehmon bu gal qanday xushxabarlar bilan kelibdi ekan?! Xayolim o'sha yoqdayu ko'zim olma-kesak terar edi. Yo'q, mehmoni tushmagur, qay tarafdin kelar ekan, bir mahal:

- Esonmisiz, Maqsudxo'ja janoblari, - deya yelkamga qoqsa, cho'chib tushibman.

O'girilib turk afandilariga o'xshab tusanib olgan o'sha basavlat tujjorni ko'rdim. U ham xorij nusxi urgan issiq chehrasiyu mehr to'la ko'zlaridan bir tanish nurlar yogʻilib, shirindan-shirin jilmayishga tushgan edi. Beixtiyor:

- Subhanalloh, o'zlari-ku! - deb yuboribman.

U ham quchoq ochdi-yu:

- Siz kim deb o'ylab edingiz?! Togʻ birla ko'rishmas, odam odam birla uchrashgay, deganlari shu-da. Qani, o'shal uzoq yurtga rizqi sochilgan qarindoshlaringiz uchun-da omonlashib qo'yaylik, - deya bagʻ birla tortdi. - Ularning issiq salomlarin, sogʻ birlar shu ko'ksimizda joylab kelmishbiz. Alloh shu damlarga yetkurganiga shukr. Subhanallohi va bihamdihi, subhanallohil aziymi.

- Voh, Sodiqxon afandim, o'sha-o'shasiz, qilcha o'zgarmabsiz! - Men jinqarcha bo'lmasam-da, basavlat mehmonning quchoq birla yo'q bo'lib ketgan edim, biz uchun aziz kishilar oldidan kelgan elchini quchib qo'ymasdim.

- Alhamdulillah, alhamdulillah, yana yetkazdu. Yana diydor nasib etdu. Alloh ko'rishtiraman desa, yo'llarni-da ochib yuborgay ekan, to'siqlarni-da, o'zi ko'tarib tashlagay ekan. Mana, yana kelduk, Mahmud-xo'ja o'gʻ birlari, - deya boshiga ko'targudek bo'lar edi u.

- Qadamlariga xasanot. Yo'llarizni ochgan, mushkullarimizni oson etgan Zotga tasannolar bo'lsin, shukrlar bo'lsin! - dedim o'zimni unutib, uning xorij bo'yariyu iforlari gurkiragan bagʻ birla singib borar ekanman. Shu chogʻ birla ko'klam yellarining rashki kelgandek epkin turib, favvora zarralarini boshimiz uzra sochqi eta ketdiyu "hay-hay"lab nari jilmoqqa, favvora "yomgʻ birlar"dan qochmoqqa tushdik. Narilar edig-u, bir-birimizning bagʻ birlarimizdan chiqmoqni o'ylamas edik.

Sayrga chiqqan kishilar ham bizdan ko'zlarini uzmay, havas-la boqar edilar.

- O'zlaridan so'rasak, el-ovullar tinch, qovmu qarindoshlar omonmi? Toshkandlarga joylashib ketdingizmi? Margʻ birlar bo'nu kelinimiznikidagilar qalay o'tirishibdir? Bahriddin birodarimizning xolayu togʻ birlar jonlari bularning daragin eshitib, qay kuylarga tushishdi?

- Duoi jonlarini qilib o'tirishibdi, - dedim uzoqdan kelib, - yetimlarni asrab, daragini chiqargan Xudoy o'zi ko'rishtirmasmi? Osmon nikohini tiklagan Zot diydorni ham qiyomatga qoldirmas, deb o'tirishibdi.

»Bu ham bo'lsa, Allohning inoyati. Faqat biz bandasi shoshqaloqmiz, kalta o'ylaguvchimiz: Allohga tavakkul qila bilmasmiz. Tavakkul qilganni Alloh niyatga yetkazmay qo'yagan. O'zimizdan qiyos, Bahriddin ila bir borsak edi, keraklu kishilarni topsak edi, deb niyat qilub edik, yo'llarimiz ochilub mana, ko'rishib turibmiz. Inshaalloh, qolgan orzularimizni-da o'zi ushaltirgay.

- Shoshmang-shoshmang, Bahriddin akamizni-da ola kelganmisiz? Yolgʻ birlar emasimiz?! - deb yubordim uning tirsaklaridan tutgan.

Mehmon bosh chayqadi:

- Unisi orzu. Hali safarimiz osonlikcha ko'chmas, deb, Bahriddin birodarimizni yo'ldan qaytarduk. Bilasiz, o'rtada qancha chigʻ birlar bor. O'zimizga-o'zimiz mushkul sotib olmayluk, deduk. - Mehmon boyagidek issiq jilmaydi. - Elluk yilda el o'zgarur derlar, zora munosabatlar yumshab, bordi-keldilar, haj yo'llari ochilib ketsa, Allohning biz vatanjudolarga atagani ham vordir, Maqsudxo'ja janoblari?

- Shuni ayting, shuni ayting, bizdan ko'ra sizlarga ayonroq, - dedim ichim yorishgandan-yorishib: axir dunyo ko'rgan shular bilmasa, kim biladi, ozodlik yellari qay tarafdin esayotganini? Temir parda ichiga o'ralib yotgan biz bechoralar "sovet sharofati"dan bo'lak nimani ham bilamiz?

Tik turgancha so'rashib, mulozamat qilayotganimiz birdan esimga tushib, mehmonni qistay boshladim:

- Yuring, afandim, ishxonaga kiraylik, bir piyola choy qilay, qandin-qayoqdan mozor bosib kelgansiz, axir. Keyin hovliga o'tamiz.  
- Choy qochmaydir, Maqsudxo'ja janoblari. Lekin ishxonagamas, ishxonani pirxona, derlar. Qolaversa,- u negadir iymanib yamlandi, - idorangiza kirmaganimiz ma'qul, keyin qulogʻingizni tinchitmaslar...

"Unda qayoqqa o'tdik?" deb turib, aqlim yaraqlab yorisha keta qoldi:

- Shoshmang, qo'l cho'zsa yetgudek joyda bir ogʻb Haynimiz takya ochgan. Bir soatgina o'tiraylik. Suhbatizni olay? - dedim qistab.  
- Uzoq emasmi? - dedi mehmonim.

- Shunday piyoda o'tamiz. Besh minutlik yo'l.

- Unday bo'lsa, boshlasunlar, Maqsudxo'ja janoblari. O'tganimiz bo'lsun, o'tirganimiz bo'lsun, - dedi u ham.

Aqlimdan aylanay. Hikmatxo'ja oshnamni zab eslab qoldimmi?! O'zi "bir kelmaysizam, hammaga hammaga topilgan bir piyola choyimiz, sizga ham tatti keb qolar" deb qachondan beri gina qilar edi. Biz esa, borsak ham "paqir kishi panada" degandek ko'rinmay qochib qolardik. Ammo-lekin ovqatlari xo'b mazali. Osh deysizmi, lo'la kabob deysizmi, yaqindan ilik sho'rvasi ham chiqibdi. Salatlar-ku anvoyi. Ayniqsa, ayvondan joy topsangizmi, yayrab o'tirasiz. Mehmonni o'sha yerga olib borganga nima yetsin.

Lekin bu gal Hikmat eshonga imo qilib qo'yishga to'gʻb ʻri keladi. Hazilmi, mehmonimiz naq Paygʻb ʻambarimiz (U zotga Allohning salomi bo'lsin) yurtlaridan kelgan.

Eshonning o'zi hovuz bo'yida suv ochtirayotgan ekan, ko'rib boshi osmonga yetib ketdi. Birpasda bahavo ayvondan joylar qildirib, mulozamatlar ila risoladagidek kuta boshladi. Men do'stimni tanishtirgan bo'ldim:

- Bu kishi ham o'zimizning Kattabogʻb ʻdan. Tepamasjiddan o'tganda, tegirmonko'cha boshida turishardi. Hozir u yerlarga ko'cha tushib ketdimikan, vallohi a'lam. - Keyin kulib qo'shib qo'ydim. - Siz Bahriddin akamdan Xidoy xolalari haqda eshitgan chiqarsiz. Ana o'sha xolamizning bir o'gʻb ʻllari sabzi to'gʻb ʻrashda - jahon chempioni. Yaqinda Guinnessga yozib ketishibdi. Mana shu "Moviy gumbaz"da har kuni necha kilo osh damlashsa, o'shanga lozim sabzini bir o'zlari to'gʻb ʻrab tashlaydilar.

- Voh, cho'x go'zal! Alomat hunar ekan. Arziydi, arziydi. Guinnessga shunday alomat ishlari yoziladi-da,- deb mehmon besh ketdi. Keyin to'lqinlanib so'radi. - O'sha kishini bir ko'rsatgaysiz. Balki Bahriddin birodarimizni tanirlar?

- Shuni ayting, - dedim-u, lekin ko'rsatishga... iymandim.

O'zi yarimta, ustiga ustak chistonchi Rahim akamiz jindek otib olgan bo'lsalar-chi, uyaltirib qo'yasmikanlar? Keyin anuv xobblari-chi? Ishdan keyin maydonga chiqib olib, xorijlik mehmonlardan osori-atiqa sifatida chaqa-chuqa yigʻb ʻib o'tirishlari-chi?! U kishidek oyoqlari kalta, o'zlari yarimta odamni ko'rgan kim ham cho'ntak kovlamay o'tib keta olarkan! Shunaqqib, yarim dinor, bir dollardan bo'lsa ham bir olamning puli yigʻb ʻilib qoladi... Bir qozon oshning sabzisini yolgʻb ʻiz o'zlari to'gʻb ʻrab tashlagan Rahim akam esa, yonlarida "taftbosti"ga bir choynak choy - o'zlari go'yo hordiq chiqargani hovuz bo'yiga chiqqanlar - ora-orada "Moviy gumbaz"ga tashrif buyurgan mehmonlarga ta'zim bajo aylab: "Osh bo'lsin, kelib turinglarov", deb chorsilari bilan yelpinib, xo'shlashib ham qo'yadilar.

Xorijliklar u kishining gaplarini qaydan ham tushunsin, suvetni ham tilanchisi bor ekan, deb, besh-o'n dollar tashlab ketishadi. Tashlab ketishgani mayli, ba'zilari videolariga ham olib qo'yishadi. Oxiri o'sha videolari chatoq bo'ldi. Chet elliklar kelganda Rahim akamni hovuz bo'yiga chiqarmay qo'yishdi.

Ammo u kishida nima gunoh? U kishi tugʻb ʻma cho'loq emaslar. Oyim aytib o'tiradilar: gungursdek bir chiroyli bola edi. Hamma suyib qo'lga olar, katta bo'lsa, zab polvon yigit bo'ladimi, deb erkalar ekan. Qayoqda! Kimnidir ko'zi tegib, bir kuni Qo'ldosh togʻb ʻam suyib, otib o'ynatayotsalar, qo'llaridan tushib ketib qolibdi. Shu-shu polvon bola yarimta bo'lib qolibdilar. Hozir u kishining bir tizzalarini ushlab, yarimta oyoqni sudrab bosishlarini ko'rgan odam... achiniblar ketadi...

Ammo Xudo barcha kuchni qo'llariga bergan. U kishining gap sotib turib ham sabzi to'gʻb ʻrashlarini ko'rgan odam yoqa ushlaydi. Odam emas, mashina, deysiz.

Mehmon shu kishini bir ko'rishga ishtiyoqmand edi. Rosti, ko'rsatishga orim keldi. Uyaldimmi, nojo'ya chis-ton qilib qoladilar dedimmi, ishqilib, yolgʻb ʻonni Xudo kechirsin, Hikmatxo'jaga imo qilib yubordim. U ham tushunib, kirib ketdi-da, qaytib chiqib, uzr aytdi:

- U kishini bir joyga olib ketishgan ekan, jindek yumush chiqib qopti. Sizlar bahuzur o'tira turinglar, kelib qolsalar, aytaman, xo'p?  
- Esiz, esiz, Bahriddin birodarimizning xolavachchalari ekan, ko'rishsak, birodarimiz ko'p xursand bo'lar edi, - deb achindi mehmon.

- Men sizni hali yangi mahallamizga, undan xolalarimu togʻb ʻalarimnikiga olib chiqmoqchiman-ku, shu bilan qutulmaysiz! - dedim.

Mehmon ham bu manziralardan erib, rostiga ko'chdi:

- Qanu edi, qanu edi! Biz safar kishisi. Vaqt esa tigʻb ʻiz, - dedi yelka uchirib. - Bugun bu yerdamiz, ertaga Xudo bilsin, qay shaharning qay go'shasindamiz. Tujjorning umri shunday - uchoqlardayu aeroportlarda o'tgay. Bu yera yetkazganiga, sizni ko'rib, manavinday bahavo hovuz bo'ylarinda o'tirganimiz shukr. Alloh o'zi chevar-da: bizni shunday topishtirib qo'yibdi. Shunday dasturxonlar ustida uchrastirib qo'yibdir. Hechbiri behudamas: mening keluvim ham, sizni topivum ham.

- Ilohim, ilohim, - dedim o'sha niyatlarga intiqib.

Biz tushlanib bo'lgan, endi choy ichib, shirin suhbat qurmoqda edik. U ham o'sha intiqiligimni sezib, jilmaydi:

- Chindan ham, Maqsudxo'ja janoblari, bu gal biza ajib xizmatlar yuklanmish, - dedi betimga issiq-issiq termulib.

- Xo'sh, xo'sh? Bizdan nima xizmat? Tortinmang hech, - dedim qistab.

- Xizmat shuki, - dedi Sodiq afandi allaqanday guldirab ham pishqirib. U ba'zan azbaroyi to'lqinlanib ketgan kezlari havo yetmay qolar-da, qaddini bir qadar ko'tarib kerishar va shu topda ovozi ham allaqanday guldirab chiqa boshlar edi. Uning norgʻb ʻulligi, ulkan odamlardek bir yerga sigʻb ʻmay qolishi shunda yaqqol sezilib qolar edi. Men uning oldida o'zimni ushoqdek his eta boshlar edim, tavba. U yutinib olib, davom etdi. - Avvalgi gal Margʻb ʻubonuga tegishli xabarlarizdan ko'-o'p mutaassir bo'lishib edi. Endi boshqa bir kishina tegishlulv yumushlar chiqmish.

- Hech qisinmang. Xolavachchamiz so'raydilar-u, bilib bermaylikmi? Aytavering, - dedim. O'zim esa azbaroyi intiqib turibman, kimga tegishli ekan, deb...

Mehmon kutmaganimda men tomon engashib, ovozini pastlatgali tushdi:

- Ular bir birodarlarin ojizasin izlarlar.

- Izlarlar?.. Kimni? - dedim hayratga tushib. Chindan ham bu gʻb ʻalati xabar edi.

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

U ovozini undan-da, pastlatdi:

- Sarhad oshib kelmish... ekan...

- Qaerdan, qaerdan?! - Men qaerda o'tirganimizni-da unutib, ovozimni ko'tarib yuborgan edim.

Mehmon yelkamga qoqib, o'ziga tortdi:

- Hay-hay, mirzo janoblari, devorning-da qulogʻi vor-a?

- Uzi-uzi, - deya o'zinni bosib olishga urinib, rijoga tushdim. - Faqat tushuntiribroq aytsangiz: qaerdan kelmish?

- Kim, o'shal mushfiqami? - dedi u.

Oh, qaerdan ham shuni aytdi?! Men shu bir ogʻibiz so'zdan oq hamma gapni anglab yetgandek edim. Ko'z oldimdan mushfiqa kennoyim ketmay qolgan, undan, akamdan bo'lak narsani o'ylamay qo'ygʻan edim.

Nazarimda, elchi ham shundan bo'lak narsa uchun kelmagandek! Lekin nega ochiq-yoriq ayta qolmayapti? Nuqul ijkilaydi?

Ilinjini ro'y-rost aytavermaydimi?..

Men u mushfiqaning qaerdan liginiyam, kimliginiyam bilib turibman. Bo'ladi-ku shunday sezgi, avvaldan bildirib turadigan...

Shunday ekan, undan bo'lak kimni izlashardi?!

- Har kishini-da bu dunyoda bir orqadoshi, qiyomatluv do'sti bo'lsin ekan, Maqsudxo'ja janoblari, - dedi mehmon qaddiyu ovozini rostlab.

- Xo'sh-xo'sh? - dedim hislarimni zo'rgʻib jilovlab.

- Men siza aytсам, Bahridin ogʻibimiz ko'zdan-da yaqun, jigardan-da afzal bir birodariga qayushib, ul ogʻibasina yaxshiliklar sogʻibinadur. Biz ul vatanjudoning ahli ayolin daragin bilmak istarbiz.

- Istarmisiz, izlarmisiz? - deya oldim.

- Unisi-da, munisi-da, - dedi elchi mamnun iljayib. - Ogʻibimiz o'z vaqtida ul birodaridan tengsiz yaxshiliklar ko'rmish...

Ana uni qarang!.. Qaytar dunyoni ko'otgsh!..

Chindan ham Margʻib kennoyimni kim unga yetkazib, kim uzilgan nikoh rishtalarini ulabdi?! O'shaning qaytimini qaytarmoqchi bo'ptimi?! Qiyomatga qolmasin, deptimi?! Evaziga bu yoqlarda qolib ketgan kennoyimni daraklatib, elchi yuboribdimi? Bo'lak nima ham bo'lardi?! Kimni ham izlardi?! Mening butun vujudimga, barmoqlarim uchidan sochlarim tagiga dovur shirin bir titroq yugurib ulgurgan, o'zim bu xabardan osmonlarda uchib yurardim. Shunday bo'lsa-da:

- Siz u mushfiqaning kimligiyu kimlarga tegishli ekanini... aytmadiz-ku, - dedim elchiga xush tikilgan.

- Darvoqe, shundaymi? Allohning hidzu himoyasida bul diyorlarda umrguzaronlik qilayotgan ul mushfiqa... sizga-da begona bo'lmas. Tangritoqqami - qayoqqa hijrat etib ketmish qay bir xolavachchangizning shar'iy halolasimish-ku, Maqsudxo'ja janoblari. Salom xolamizga kelin qavilda bo'lgay, topsangiz o'sha diyorlardan - Kattabogʻib Yakkabogʻiblardan topgaysiz daragin, dedilar.

- Boyadan beri aytmaysizmi, shuni?! - dedim quvonchim ichimga sigʻibmay ketayotganini oshkor etishdan yila-tiyla. Ammo o'zimga qolsa, qani, holi bir yerda bo'lsagu shunday shirin xabarlar ila kelgan elchini quchib olib, bagʻibrimdan bo'shatmasam... - Faqat bir narsa so'rasam maylimi, aybga buyurmaysizmi? - deya oldim axiyri shivirlagudek bo'lib.

- So'rang, Maqsudxo'ja janoblari, jonim bilan aytay, - dedi u ham.

- O'sha darbadarning o'zi-chi? - dedim tilim tang-layimga yopisha borib. - O'zi qay ellarni vatan tutib, qay diyorlarda to'xtabdi? Bilasizmi o'zingiz?

- Kimni aytasiz? - dedi u dabdurdan anglab yetolmay.

- Kim bo'lardi, biz uchun aziz o'sha mujohidni aytaman-da...

- Ha-a, Bahridin ogʻibimizning qiyomatli oshnasi, vatanjudo xolavachhasin aytasiz... - U yengil tin olib, orqasiga suyandi. - Ikki yil bo'ldimikan, vallohi a'lam, daragi chiqqaniga...

- Qay yurt-diyorlardan so'zarmiz? Omonmilar ishqilib? - dedim o'ksim buzila kelib.

- Siqilmang, ko'ngilingiz ham buzilmasin, Maqsudxo'ja janoblari. O'zini xor qildirib qo'ymaydigan jigarlaringiz vor ekan. Avvalda Peshovardami, qaerda edi.

- Hozir-chi, hozir qaerdalar? - dedim titranib, qolaversa, u manzillardan kelgan xatlar rost chiqmoqda edi.

- Bombeydami, qaerda - bandargohda qo'nim topmishlar. Kemalaru qayuqlarni mumlashar emush.

- Mumlashar emush?! - Men bilganlarim tasdiq topayotganidan hayratga, tushib qaytarib so'rardim. - Shunday botur - shunday mujohid akamiz-a? Haligacha-ya?..

- Siz xursand bo'ling, Maqsudxo'ja janoblari, o'sha yerdan shunday bir yumush topganlariga, vatanjudolar jamiyati ochganlariga.

- Jamiyat?! - dedim men orziqib, akam o'shal yerda ham jim yurolmagani yana tasdiq topmoqda edi.

- Mushkul kunga qolgan vatanjudolarni himoyaga oladurgan, qo'llaydurgan jamiyat emush. Niyatning ulugʻbiligini ko'ring, Maqsudxo'ja. Har kim ham bu ishga bel bogʻiblasin-chi! - dedi mehmon mutaassirlanib. - Shunday ishlarga bosh qo'shadiyu biz qayushmaylukmi?! Ahli ayolini topishib yubormaylukmi?

Men uning so'zlaridan titranib bormoqda edim.

- Siz... o'ziz u kishini bilgaysizmi? - deya oldim.

- Qay birlarin aytasiz, Maqsudxo'ja janoblari? Men nimagadir aqlim yetmay boradir. Har ikkalalari-da Siza xolavachcha bo'lgaylarmi, yoki?.. - dedi Sodiqxon afandi sergak tortib.

Men o'zimga kelib, elchimizning ko'zlariga termuldim.

- Bahridin xolavachchamizga Margʻib kennoyimni yetkazgan kishi - o'sha vallomat bizga kim bo'lishini bilsangiz edi... - dedim xushxol engashib mehmonning qulogʻibiga shivirladim. - Bizda ham birov bilib, birov bilmas xabarlar bor: o'sha tugʻbishgandan a'lo akamizni... Oltinxon to'ram Makkaga chorlayotgan emishlar. O'shanaqasi birodarinikiga kirsa ham ajabmas.

- Kim, Oltinxon to'ram-a? Makkaga-ya?.. Voy, Maqsudxo'ja janoblari-ey, zo'r ekan-ku sizning xabarlar ham! Biz bilmaydigan narsalarni bilasiz ekan-ku!.. - deb yubordi u azza-bazza turib, rapidadek kaftini yelkamga tashladi va o'ziga tortdi.

Biz jonu jahonimiz erib, bir-birimizning bagʻibrimizga singib borar edik.

Ular kimning ahli ayoliyu tirnogʻibin izlashar?

Uylarning soyasi tortilib, oftob terak bo'yidan oshgan sari osmon toqi tiniqlashib, kamiga moviylashib kengayib borar edi. Balki men so'riga chiqvolib tok tarashga tushganimdandir bu. Ishqilib atrofga suqlanib boqar, hali hovli ortidagi o'rik shohida chiyov-chiyovlashga tushgan sa'vaga, hali qo'shning tuproq tomi bo'gʻibotiga qo'nvolib, tojini yoyib-yigʻibib "huku-pish"layotgan popishaxonga anqayishga tushgan edim.

Pastdagi ayvonda esa, oyim chordana qurib o'tir-volib, menga qaysi navdani kesib tashlashu qaysi-nisini qoldirib, qanday bogʻlashni o'rgatib turibdilar:

- Yo'q-yo'q, unisiga tegma. Ko'zing qayoqda?! O'sha mayda bo'gʻbini sho'ralasin-da hali. Senga qolsa, satta uzum qiladiganini kesib, erkak navdasini qoldirmoqchimisan? Qo'y, bilmasang, kelinim chiqadi, - deb tergap qo'yadilar ora-orada. Bunga sari kulgim qistab, yuzimni chetga buraman.

- Nega kulasan, u sendan uquvliroq. Bitta aytgandayoq ilib oladi.

Battar kulgim qistab, burnimni yelkamga ishqayman: qani, shaytonim qo'ysa...

- Ha, unga nima qipti, so'riga chiqmay yurgan joyi bormi? - dedilar azza-bazza jahllari qistab.

- Ha, endi... so'riga ikki kishi chiqqanidan... bir kishi chiqqani tuzuk-da, oyi, - deb uning ogʻbʻir-oyoqligiga shama qilgan bo'ldim.

- Qo'yaqol unda. Kenja togʻbʻang tarab bera qolar. U kishining qo'li tekkan navda hosil bermay qo'ymagan.

Ola! Men turib, togʻbʻamni chaqirtirib yursalar, ayt-maydilarimi?!

Azza-bazza xafa bo'lgan joyimda... darvoza zulfini shiqirladi.

- Hoy, kim bor, qutlugʻbʻ uyda? Mehmon kevotti o'z oyogʻbʻi bilan.

Ovoz taniC%, juda ham tanish edi. Hassaning do'q-do'qi undan-da tanish edi.

"Kelaving, pochcha"lab narvondan tushib borsam, chindan yo'lakdan u kishi kirib kelyaptilar. Birpasda bagʻbʻirimiz to'lib, uyimizga fayz kirib ketdi.

Dasturxon yozilib, choy kirdi. Duolar bo'lib, hol-ahvol so'rasha ketdik. Qarindoshlar sal uzoqqa tushib, hovli-joy qilsa, shu ekan: sogʻbʻinib, ichikar darajaga yetar ekan odam. Shundanmi, so'rashib-istashib to'ymas edik.

Qolaversa, biz istab borish o'rniga, u kishining yo'qlab kelganlaridan, ixrab-sixrab bo'lsa-da, shu yoqda xeshlarim bor-ku, deb kirganlaridan bir - xijolatga botsak, bir - boshimiz ko'kka yetar edi.

- Borsa-kelsa, oqibat uzilmaydi-da, Salomxon. Oyogʻbʻimiz ostidan shamol o'tib turibdi, shunisiga shukr. Hassa nima, bir dalda-da, yotgulik qilmasin, - der edilar u kishi pishillab. Basavlat odamning yostiqa suyalishi ham, xontaxtaga ko'krak berib, xo'rillatib choy xo'plashlari ham bir bo'lakcha edi. Suyagi yo'gʻbʻon, toshi ogʻbʻir odamning shundan shu yoqqa bizni deb kelganlari, hovlimizga yuz burganlari, ayniqsa, bizga xush kelmoqda, u kishini har qachongidan yaxshi ko'rib ketmoqda edik.

Togʻbʻalarimiznikiga kelib, bosib o'tib keta olmadilarmikin yo atayin kelyaptilarmi, bunisini bila olmay o'tirardik.

- Hay, bizning togʻbʻ oshib kelgan arzanda kelinimiz qani, Yodgormurod qani? Ular ko'rinishmaydi, qayoqqa javob bergansiz? - deb qoldilar pochcha ochiq eshikdan hovli adogʻbʻidagi uylar tomon alanglab.

Shundagina bir narsalarning uchini sezgandek yuragim hapriqdi: nima gap ekan? Shunchaki surishtiryaptilarmi yo biron xabar bormi, deb yuzlariga termuldim. Ammo u kishi soqollarini tutamlab-silagancha javob kutsalar-kutardilarki, menga qaray qolmas edilar. Yuzlaridan bir quvonchli narsani sir tutib turgandeklar. U nima ekan, deb ichim qurib boryaptiyu... o'zim Bahridin akam yuborgan elchi haqda hech kimga miq etmay yurganimdan (Kelishuv shunday! Hatto kennoyimga, Yodgorga so'z ochganim yo'q! Elchi qattiq tayinlagan!) jim qola qoldim. Hozir ham ochmaganim ma'qul bu gapni, ochsam - oyimlardan baloga qolaman.

Boshlanadi so'ng: nimaga aytmovding? Biz ko'rsak bir narsa bo'lardimi? Shundan shu yoqqa odam keladiyu uyga opkelmaysanmi? Anuv mushtiparlarga bir ogʻbʻiz bildirib qo'ymaysanmi? Shuncha kutganda - arzimabdimi, daragini eshitsa?.. Undan ko'ra, ichimda yotavergani ma'qul. Bunaqa narsalarning isini chiqarib bo'ladimi!

- Qumloqqa ketishdi. Oyto'raxonni ko'rib kelgani, - dedilar oyim, men ruxsat berdim degan kabi va qo'shdilar, - U kishi ham tabarruk, duolarini olib turishgani ma'qul. Bir vaqtlar bagʻbʻirilarida o'tirishgan.

- E, shunaqami, men Sultonmurodimizning tirnogʻbʻini ko'rib ketamanmi, devdim. Xayitlik berolmab edim, berib ketamanmi, deb edim. E, attang, e, attang,- deb qoldilar u kishi.

- Shoshadigan yeriz bormi, pochcha, o'tira turing. Kelin ko'ksomsaning harakatiga tushgan. Keyin o'zim osh damlayman, qo'lbola qilib. Ungacha qaytib ham qolishadi, - dedim sogʻbʻinganimni jindek sezdirib.

- Hay, sening gaping ham tuzuk, qayoqqa shoshaman. Kechqurun oborib qo'ysang bo'ldi-da, - dedilar halitdan ketish gbʻamidan so'z ochib.

- Qolavurasiz-da, - dedim atay.

- Xo', jiyana, - dedilar u kishi orqalariga suyanib-kulib. - Senam qarigin bilasan, o'z uying o'lan to'shaging ekanini. Qolaversa, xolang ko'z yummay chiqadi.

- Opkelavermabsiz-da, opamlarni ham. Yotib ketardilar, - dedilar oyim.

- Umi, bilgani yo'q. Isini chiqarmay qo'ya qolay devdim topgan gapimni...

- Voy, yana qanaqa gap? Nimaning isi? - deb hovliqib qoldilar oyim. - Shu mushtiparginaga tegishlimi?

- Nima desam, sizga qanday tushuntirsam, - deb pochcha talmovsiradilar. Aftidan bu gapni hech kimga ochgilari kelmay meni izlab kelganlar-u, hozir no-iloj qolgan edilar. - O'zimam tagi-tugiga yetolmay sarangman.

- Nimani, ochiq-yoriqroq aytavering,- dedilar oyim.

- Shu yangi imomimiz kechagina bir gap topib kepti. Emishki, hajdan qaytgan muftiy taqsimimiz bir odamning omonatidan so'z ochganmishlar. O'sha qoch-qoch paytlarda ahli ayoli qolib, o'zi hijrat etib ketgan birov yaqinlari daragini so'ratganmish. "Sizda ham bir mushtiparginaga bor deb eshitamiz, eri sarhaddan o'tolmay qolgan. Taqsimimga balki uchrab boqarsiz", deydi. O'shandan beri na yeyar-icharimda, na o'tirar-turarimda halovat bor. Koshki bizga tegishli bo'lib chiqsa deb... - Pochcha ko'ksilarining ichi achishib borayotgan kabi o'sha joylarni silab, yana orqalariga yastandilar, - Sultonmurod hajda nima qiladi, u yerlarga yetishga yo'l bo'lsin, boshqa birovdir deb, o'zimga taskin-tasallular bersam-da, tinchiy olmayapman hech. Xudo xohlab turibdiki, bu xabar bizgacha yetib kelibdi. Xohlamasa, qaydan ham yetardi deb, ertalabdan bu yoqqa yurvodim. Nima qilay, nima bo'lsa, Xudodan ko'rdik, deb bir borib ko'raymi, Maqsudxo'ja? Harholda sen o'qigansan, dunyo ishlaridan xabaring bor. Ishonsa bo'ladimi shu gaplarga... yo hammasi bir uydirma, tuzoqmi? Ogʻbʻirimagan boshga tashvish ort-tirib olmasmikanmiz?

Men yalt etib oyimlarga qarasham, u kishi qo'llarining yuzidagi ko'k ipakdayin tomirlarini silagancha xayolga tolir qolibdilar. Bir to'xtamga kelganlarini bilib bo'lmaydi: shunchalik xayol olib qochgan.

Pochcha ham bu holni ko'rib, sovub qolgan choylarini simirarkanlar, orqasidan chuqur tin olib, yuzlarini ishqab qo'yidilar:

- So'z ochgani ham qo'rqasan, ochmagani ham. Aysang ham - bir balo, aytmasang ham. Bu hukumat is olib qolsa bormi... - dedilar u kishi xum boshlarini ma'noli saraklatib, - undan ko'ra, "och qornim - tinch qulogʻbʻim" yaxshiroqmikan-a?

Men u kishining soyalaridan ham xavfsirayotganlarini bilib tursam-da, elchi kelgani, ketidan bu gapning chiqishi hech bekorga o'xshasdi. Demak, Sultonmurod akam ham tinch o'tirgani yo'q: bularni topib, zimmasidagi shar'iy burch - omonatni o'tash

harakatida! Shunday bo'lib chiqadimi?.. Unday desam, Bahriddin akam jo'natgan elchidan xabari yo'q, taqsirga ogib o'chib qo'ydimikan?.. Hech tushunib bo'lmasdi.

- Chiqmagan jondan umid, o'zimizning odam - muftiy ekan-ku, - dedim.

- He, jiyan-a, - deb qo'l siltadilar pochcha, - bularning ichida ham murosai madorachisi qancha, xizmat qilib qo'ygani qancha.

Yaktagu salla bir libos, xolos. Jon esa, shirin.

Ichimdan yo qirindi o'tdi, yo boshimdan bir olov chiqib ketdi (Balki har ikkisi shu bir lahzaning o'zida kechgandir):

- Qanday?! Xudodan qo'rqmasdan-a?.. - deb yubordim. - Mehrobdan chayon yotsa, bu yoqdagilarni holi ne kechadi?

- Astagbifirullohi al-azim. Balki biz adashayotgandirmiz, Alloh zohirgamas, botinga qaraydi-ku.

- Unda nimadan qo'rqasiz? - dedim qidirayotgan odam akam ekanidan umidimni uzmay.

Oyim shasha-doka ro'mollarini peshonalariga tortib, uchini yelkalaridan oshirib tashlarkanlar, bosh to'lgubadilar:

- Gumondan imon ham qochadi. Ka'batullohgaki borib kelgan odam... unday qilolmas. Boravering, Allohning yozganidan bo'lak

nima bo'lardi? Balki kelingina boyaqishning baxti ochilay deb turgandir.

- Shuni ayting. Balki hammasi rostdan ham yaxshilikkdir.

Men ich-ichimdan "Qani edi, qora kunlar orqada qolib, bular ham ro'shnolikka chiqa qolsa", deb uchib-qo'nib turardim-u,

kallamning bir chekkasidagi shub-ha qo'ymasdi: "Shoshma, shuncha ko'rgiliklari kammi? Hukumatning nayrangi bo'lmasin. Undan

ko'ra, sabr qilish kerak. Ishonchli elchi kelib ketdi-ku, axir".

Axiyri shu shubha tosh bosib ketib, fikrimdan qaytdim:

- Avval biladiganroq odamga maslahat solish kerakmidi?

- Kinga? - dedilar pochcha sergak tortib. - Anuv oshnasiga deysanmi?

Tushundim, Chaman akamni aytayaptilar. Kechagi elchi haqida miq etmadim-u, buni aytib bo'ladimikan? Yerning tagida ilon

qimirlasa, biladi-ku, buni bilmaydimi? Akamning qaytishi mumkin bo'lsa, Chaman akam allaqachon harakatga tushib qolmasmidi.

Undan ko'ra, To'ramning oldilariga o'tmoq lozim. Kim-kim, u kishidan xayrli bir maslahat chiqishi aniq.

- Istasangiz, To'ramning oldilariga oborib kelay. U kishi aytgan odamizni bilsalar kerak, - dedim tussmollab.

- Darvoqe, sen haqsan, - dedilar pochcha pishillab, - haq bo'lganda ham yuz karra haqsan. Borib sekin so'raylik-chi, bor gapmikan-  
yo'q gapmi? O'tlan-otlan, men rozi.

- Hoy, pochcha, kelmasizdan-a, - dedilar oyim azza-bazza hovliqib, - kelin ko'ksomsani opkesin, omonliq-somonliq qilaylik.

Xudoning kuni bittami? Qolaversa, o'sha mushtipargina kelsin, Yodgori kelsin. Sizni ko'rib, boshlari ko'kka yetsin. Kelmasizdan  
yo'l ko'rmang-da, pochcha.

- Bo'pti-bo'pti. Surishtirish mirzoga tan. Men qoldim, - deb ikkala qo'llarini ko'targancha chayqalib qo'ydilar u kishi.

Bundan mutaassir bo'lib hammamiz kuldik. Chindan Nusrat pochchaning qiliqlari o'zlariga yarashardi, ulardan boshqa odam

bunday begubharazdan-begubharaz kulgi uyguvota olmasdi. Hatto Yodgor ham, kennoyim ham, ko'zda yosh bilan bu kulgiga

qo'shilgan bo'lar edilar. Hozir esa, kim ahli ayoliyu yolguv bizi tirnogubini izlashidan bexabar qaelarda yurishar, bilishsa bormi,  
yuraklari yorilar edi.

Chindan Oyto'ra buvining ziyoratiga ketishdimikan yo Chaman akamdan biron mujda kutib? Men aniq bir narsa bilmasdim.

O'zi pok, dardi dunyosi qora bir inson

Pochchani kirakash mashinada Beshqayragubochga tashlab qaytsam, mahalla zim-ziyo, na biron ko'chada chiroq bor, na biron  
uyda lipillagan yorugub. Hammayoq tim-tirs, odam zoti ko'rinmaydi. Xuddi allamahol bo'lib ketgandek.

Vaholanki, ketayotganimda chiroqlar charaqlab yotib edi. Qancha vaqt bo'libdi ekan? Qolaversa, kennoyimgilar shahardan  
qaytishmagan edi.

Shu xayolda guzarga yaqinlashib qarasam, do'kon yonidagi qorovulxonada bir narsa miltirayapti. Kim ekan, bemahalda hujraga  
chiqqan? Sekin burildim. Borsam, shaxmatchi xariflarim xontaxta ustiga muk tushgancha dunyoni unutib dona surishyapti.

Yonlarida yogubga solingan pilik ojiz chirsillab, shaxmat ustinigina zo'rguba yoritib turibdi. Shu ahvolda:

- Shix, qochsinlar! Shix, ishongan togublarini bersinlar! Shix, motga tayyorlanavursinlar! - deb dona surishyapti.

- Ey-y, harifjonlar, bormisizlar, o'tanglar to'lsin, - deb kirib bordimu o'tirib qopman.

Necha qo'l o'ynadik, o'rtada shaxmat necha aylandi, bilmayman. Bir mahal birov eshikni ochib yuborib:

- E, barakalla, u yoqda kim nechta tugubib o'tiribdi, bu yoqda bularning topgan o'yinini ko'ring, - desa, o'zimizga kelibmiz.

Darvoqe, oyim ko'z yummay o'tiradilar-ku. Ustiga-ustak, Yodgorlar ham kelishmagan edi, deb o'rnimdan turdim.

Ichim guburmishlab, uyga yetib kelsam, eshik yuziga yopiq, qulf tushmabdi. Demak, oyim tiq etgan tovushga quloq tutib

o'tiribdilar. Kirishimdan urishib berishlari aniq. Shuning uchun ham oyoq uchida kirib borib, derazadagi qulfni ola boshladim.

Ammo ichkaridan... qanaqadir piq-piq yigubi tovushi kelar, tovush ham tanishdek edi...

- Shunaqa, kichigoyujon, dardum ichimda. Chiroq yoqsa, yorumaydu. Bu balo qaydun yopushdu, qay gunohlarumga tutdu, - deb  
siqtanardi kennoyim... Qotib qopman.

- Hammadan yashirsangiz ham o'zimga aytavermaysizmi? - dedilar oyim.

Kennoyim yigubisini yutolmay, hiqilladi:

- Koshki... aytub bo'lsa, kichigoyujon.

- Men kimman, kelinposhsha? Nega onangiz o'rniga onadek ko'ravurmaysiz? Bir chekkasi kelinim bo'lsangiz, bir chekkasi shu

yoqdan ketgan kishilarning tirnogubisiz, chirogubisiz, - deb tergay ketdilar oyim.- Alloh otalarizga buyurmagan yurti sizga  
buyuribdi, shukr qiling. Birovlarnimas, bizni bagubrimizda o'tiribsiz. Bizga suyanmay, kimga suyanasiz?! Sultonmurodimizning

taqdirida ahli ayoliyu Yodgorini bizga qoldirib, o'zi darbadar ketishi borakan, ne qilayluk?! Ko'namiz-da Xudoning yozugubiga.

Dardizni olay, unday qilmang. Hammasini ichingizga solavermang. Anavi Yodgorizni o'ylang. Erta birisi kun uni uylashingiz,

orzu-havasini ko'rishingiz kerak. Kelin tushirsangiz, qo'lidan bir piyola choy ichganingizda bu kunlar unut bo'lib ketadi, aylanay.

Zimmangizga ham ota, ham ona bo'lish tushibdi, hali ajrini ham ko'rasiz. Tirnogubingiz er yetib qoldi, har odamlar borki,

tirnoqqa zor, chirogubibonga zor. Hech siqilmang, Allohning va'dasi bor, men shukr qilgan bandam bilanman, degan. To'gubirimi?

- Rahmat, kichigoyu. Yaxshuyam sizlar borkansiz.

- Ha, bu boshqa gap. Dard bergan Allohim shifosini bermasmi? Sudralib yuruvchi bir ilonki, jarohatiga shifo topganda, biz

topolmasmizmi?

Men damim ichimda, hamon deraza tagida miq etmay turar, ketolmas ham, qimirlay olmas ham edim.

- Qanday? - dedilar kennoyim ilinjda.

- Dalayu dashtdan bir o'zni topib borib, o'shanga jarohatini surta-surta, tuzalib ketadi ekan. Ana o'shani ermana der ekanlar. Biz o'shanchalik ham emasmizmi? Buning ham bir davosi bordir, kelinposhsha...

Men esovsirab qolgan edim. Kennoyim bechora, tomoqlariga dovur o'ranib yurishlari shundan ekanmi? Boshidan ro'mol tushmay, yengi uzun ko'ylaklar kiyib olishlari, bilaklarini xuddi yara chiqqandek doka bilan tangʻib tashlashlari... shundan ekanmi?! Olim akamnikiga uyko'rarga borganimizdami, qaerda ko'rib edim, xuddi yangi tushgan kelinlardek ro'mollarni tomogʻiblar bilan qo'shib o'rab olganlarini? O'shandan boshlangan ekanmi?

Nega ranglari chiqmaydi, uzun xayol surganlari-surgan desam... oq tushib, shu dard ilashgan ekanmi? Oyto'ra buvining oldiga ham bekorga tushmagan ekanlar-da.

- Hamisha shunday qolmas, kelinposhsha...

Shu mahal... chiroq birdan charaqlab yonib, hammayoq charogʻibon bo'lib ketsa... ko'zlarim qamashib, tisarilib ketibman. (Qolaversa, deraza tagida so'z poylagan kimsadek turishim xunuk edi!)

Qulfni ola darvozaxonaga qayrilgan joyimda ichkaridan oyimning ovozlari keldi:

- Hoy, kim? Maqsudxo'ja, o'zingmisan?

- Men-men, keldim...

- Sen kelishing-la chiroq yonarkan, vohliroq kelmayсанmi-ya, bolam?

Men eshikni qulflab, qo'limni chayib kirib borganimda, ular ancha o'zlariga kelib qolishgan, kennoyim xontaxta ustini yigʻibishtirishga tushgan, allaqanday o'ngʻibaysiz holatda odamga qaramaslikka tirishar, ko'zyoshlarini artib ulgurgan bo'lsalar-da, nami bilinib turar edi. Men ichim zil ketib, so'rashishga ham tilim bormay turarkanman, oyim hushimga keltirdilar:

- Ha, bolam, ja qolib ketding? Xolang yaxshi ekanlarmi?

- So'ray-so'ray bir yerga yetishdi, duo deb qolishdi.

- Salomat bo'lishsin. Kichkina bo'lsayam bitta mashina olsang, "gʻibuvva" oborib-kelib turarmiding. Odam sogʻibinarkan, bolam. Ha, qani-ya, Kattabogʻbda o'tirganlarimiz? Sogʻibinsak, eshikka tambani bosib ketaverishlarimiz? Allamahalgacha gaplashib o'tirib kelishlarimiz? Qadri o'tyapti.

- Endi men qachon o'rganardim! Undan ko'ra, ana, Yodgorni o'qitamiz. O'rganvolva, oborib kelaveradi.

Bu gapim choy yangilagan chiqib borayotgan kenno-yimga yoqib, qayrilib qarab qo'ydilar. Ko'zlarida yilt etgan yolqin, u kishini yangi kelgan davrlariga qaytargandek edi, tavba. Yuzlari yorishib:

- O'sha kunlarga yetkazsun, ilohum, - dedilaru chiqdilar.

Oyimlar bilan qolib, men u kishiga savolomuz qaradim.

- Tinchlikmi, oyi, ruhlari tushib ketibdi juda?

Oyim damlarini chiqarmay, eshikka imo qildilar. So'ng oyoq ovozlari uzoqib borib, oshxonaga kirib ketgachgina:

- Boyaqishga shu yetmay turib edi, - dedilar bosh to'lgʻibab. - Nima qilasan, Allohning yozmishi. Suyganiga dardu mashaqqatni qoplab beravuradikan.

- Tushunmadim?

- Hammaga ham bersin-chi, bermaydi. Pirovun1 degani o'tgan ekan, dodam rahmatli aytib o'tirardilar. O'shanga hamma narsani, mulkniyam, dunyoniya berib qo'yib, dardni ravo ko'rmagan ekan.

- Yomonmi bu? - Men hamon nima demoqchi ekanlariga tushuna olmay o'tirardim.

- Bosh ogʻibrigʻibi nima degan gap? Hatto o'shani ham bermagan ekan.

- Nega?

- Bersam, menga iltijo qilib, topinib qoladi deb, bermagan ekan. Dardni ham suygan bandasiga, amallari xush kelganiga beradi. Kennoyingga ham ibodatlarini mukammal etsin, deb bergan-da, bolam, bu narsani.

- O'sha hammadan yashirayotganlari shunchalik qo'rqinchlimi, oyi? - dedim o'takam yorilib. Qolaversa damim ichimga tushib, eshikka alanglar edim.

- Ayol kishiga xunuk-da, bolam. Ustiga-ustak, suqsurdek juvon shu oq baloga uchrab tursa. Hamma qatori yayrab-yashnab yurolmasa, birovgʻa ko'rinolmasa... Sulton akangdan tirik judo bo'lgani kam ekan. - Oyim chuqur tin oldilar, ichlaridan olov o'rtab chiqqandek, ketidan bosh to'lgʻibab dedilar. - Nimayam qiladi, osmon uzoq, yer qattiq...

Mening ichim battar tilindi:

- Shunchalik bedavo deb o'ylaysizmi, oyi?

- Qaytib, musaffo bo'lib ketibdi, deganini eshitmaganmiz...

Endi ichimni bir gʻibashlik tirnagandan tirnay boshlagan edi. O'gʻibi er yetib qolganida shu ham bor ekanmi? Ichim xuddi birov tilimlab, tuz sepayotgandek achishar edi.

- Shaharga nimaga borishibdi ekan? Tabib izlabmi?..

- Chamanni opasi Eski Juvadagi yoymachilardan bir gap topib kelganmish. Arpapoyada shunaqa oq tushganni davolaydigan tabib borakan. Agar xorijsa ketib qolmagan bo'lsa, o'sha davolaydimish.

- Borishibdimi? - dedim umid tutib.

- Yo'q, bizdan bemaslahat o'tmabdi. Yigʻiblab-siqtab qaytib kepti. Shunisiga ham shukur. Bizni qora tortib, ko'nib o'tiribdi. Boshqasi bo Xudo, derdiy chopardi. Bu istihola qipti. - Unaqa-bunaqa narsaga xo'rliklari kelmaydigan oyim engashib olganча kaftlarining orqasiniyu och ko'kimtir tomirlarini silashga tushgan edilar.

Men qaytarib so'rashga jur'at etdim:

- Qanday tabib, dediz?

Oyim aytgilari kelmayinqirab aytdilar:

- Juhud tabib desa, hamma bilarmish.

- Ular o'ta aqlli xalq, baloga aqli yetadi. Nima bo'пти, boraverish kerak, - dedim miyamga kelganini qaytarmay.

Oyim yalt etib aftimga qaradilar-u, ensalari qotgandek, yuz burib oldilar. Men hech narsaga tushunmay movdiradim. Ammo shu tob eshik ochilib, choy ko'targan kennoyim ko'rindilaru biz jim qoldik. U kishi piyolalarni chayib, choy damlab kelmoqda edilar.

- Hojati yo'q edi, bekor urinibsiz. Kerak bo'lsa, ana, Saidaga aytardik, - dedim.

Oyim u kishini alqadilar:

- Baraka toping, osh endi chanqatvotuvdi. Kelin boyaqish, bolalarini uxlataman deb, o'zi ham mizgʻib ketgandir-da. Mayli,

tiniqib ola qolsin.

Men razm solmayman desam ham nazarim kennoyimning o'sha ro'mol o'ragan joylariga, quloq yumshogʻi ortiyu soch taglariga ketib-ketib qolmoqda edi. O'sha quloq yumshogʻi ning yonginasidagi tangadek nori tepasida (yo tavba, bu nesi bo'ldi!) tuxum po'chogʻi yopishgandek bir narsani ko'rib, ichlarim titrab ketdi. Qaydan ilasha qolibdi bu balo? Yo necha yil surunkasiga ko'rgan azoblari, siqilishu kutishlari, bedarak ketgan akamga yetib-etolmasligiyu ertasini bilib-bilolmasliklari - barcha-barchasi qo'shilib, shu oq dard bo'lib chiqibdimikan? Akam kelmaguncha bet-qo'lini shunday tutib boravuradimi bu? Ungacha davosi yo'qmi?

Mening nazarimda shunday edi, ungacha bironta tabib ip esholmaydigan, davosini topib berolmaydigandek edi. Akam keladiyu u yana bir et tashlab, avvalgidek yashnab ketadimi?

Ammo akamni qaysi mard qaytarib kela oladi? Topganda ham sarhaddan kim o'tkaza oladi? Koshki bu hukumat jim qo'ysa!

Hamma-hamma bilan uni o'tkazib qo'yadilar ekanmi? Yashatib qo'yadilar ekanmi?

Nima qilmoq mumkin? Men kennoyim uchun, akam uchun hamma narsaga tayyordek edim, ko'z yumgancha qolgan edim. Ammo ular uchun o'zni nisor etishning biron-bir yo'li ko'rinmasdi. Go'yo miyam to'ngib qolgandek o'tirardim.

Boshqa qanday ham yo'l bor - juhud tabibdan boshqa?..

Ichim o'rtangandan-o'rtanib borar, hech kingayu hech yoqqa qaray olmasdim. Choy ham tatimas, ichsamoq ichimni yondirib yuboradigandek edi go'yo. Turib qo'l chayish bahonasida hovliga tushib bordim. Bodroqdek bodrab ketgan osmon yulduzlari gb ʻashni keltirar darajada yarqirar, nimqorongʻu ko'kdan adashgan tun qushi chuldirab o'tib borardi. Qayoqqa, Xudo bilsin.

Niyatga qarab ajr berilsa, agar...

Kun chiroyli yoyilib kelar, u qo'shnining navdalari gb ʻo'dda-gb ʻo'dda burtib yotgan gilosi ustidan uy peshtoqlariga sirgb ʻalib tushib ulgurgan, mana-hozir o'sha peshtoqlar alangalanib ketadigandek bir tus olib borar edi. Ko'klam oftobining tiniqligi shunchalik, nurlarining mo'lligi shunchalik! Undan jilla pastdagi ravon oynalariga tushib borsami, qarab bo'lmas ham ekan-da. Boyadan beri ulkan shotut tagida quvalashib, hali tomga, hali pastga uchib tushib, tinmayotgan maynalar axiyri nimadandir hadik sirab tom oshib uchib ketdilaru darvozaxona yo'lagida birov tomoq qirib yo'talindi.

- Hov, opa, kim bor?

Ovoz tanishdan-tanish, togʻ ʻamlarnikiga o'xshash edi: ko'z oldimga u kishining sassiz jilmayib kirib kelaverishlari tushib:

- Hozir-hozir, - deya chiqib boraverdim.

Chiqsam, chindan togʻ ʻam, yarim yo'lda jilmayinqirab turibdilar, orqalarida devor ushlab yuradigan kenja togʻ ʻamlarning qo'ltiqlaridan olgancha darozdan- daroz Yahyo akam ostona osha pastga tushayaptilar. Togʻ ʻamni qo'ltiqlaridan tutganlari kamday, yana bir qo'llarida bir shishabonka qaymoq bilan ikkita issiq non. Men uning yangi tandirdan uzilganini darvozaxonani tutgan hididanoq sezib, qo'llaridan olishga oshiqdim.

Yahyo akam shunaqalar, bizni mahallaga kelib qolsalaroq, bas, hammamiznikiga bir-bir kirib o'tishlari bor, kirmay ketganlarini ko'rish tugul, eshitmaganmiz.

- Hammangni ichingda Yahyo bir boshqacha-da! Keldimi, bosh suqmay ketmaydi, oqibatni undan o'rganinglar, hoy, falonchi, - deb oyim hammani uyaltirganlari-uyaltirgan. Hatto togʻ ʻalarimni-da ko'zlarini ochirmaydilar, hech kimni ayamaydilar. Bugun qaysi togʻ ʻ qulab, nima bo'laqolibdiki, togʻ ʻam jiyan-qaynilari bilan boshlashib kelar edilar. Kenja togʻ ʻam, albatta, o'zlari yo'ldan qo'shilganlar. (U kishi vaqt topdilar deguncha, Qur'on o'qigani kirib turadilar. "Opa, sizzi Qur'oniz tiniq, dona-dona, odam zer-zabariga adashmaydi. Menam shunaqa bosmasidan toptirsam edi", deb qo'yadilar.)

Men ular bilan ko'rishib-istashib, oyimlarning uylariga boshlab kirdim. Kennoyim qo'ltiqlaridan olib, u kishi turishga unnalayotgan edilar, togʻ ʻalarim qo'yishmadi.

- Hoy-hoy, opa, sizdan lozimmi shu, o'zizni urintirib? Mana, biz kirib bo'ldik-ku. Haliyam bo'lsa, o'ltiring.

Ammo oyim o'z bilgilaridan qolmay, bosh to'lgʻ ʻardilar:

- Mani qo'yaveringlar. Er kishining o'z hurmati bor. Turib so'rashganga nima yetsin. Momo Havvoni ham Alloh er kishining qay yeridan yaratibdi. Jilla qursa, ko'krak baravar turay.

Keyin sizsirab, alohida bir iltifotlar ila yelkalariga qoq-qoqa, so'rasha ketdilar:

- Keling, Qo'ldoshxo'ja, bormisiz-omonmisiz. Pensalarga chiqib olganmushsiz. Ishlarni tashlab, masjidlardan beri kelmayotganmushsiz. Bir chiroyli-bir chiroyli. Qumrixondan eshitib, bir suyundim-bir suyundim. Bolaligizda chiroyli talovatlar qilardiz, Qur'onga qaytganiz muborak bo'lsin, muborak bo'lsin.

Boyaqish kennoyim, biz bostirib kirib, qayoqqa qocharlarini bilmay qolibdilar. Oyimni turgʻ ʻizishga unnalib qo'yib, endi o'zlari u kishining orqalarida "jon saqlayotgandek" edilar. Bir qo'llari bilan u kishini tutgancha, yana ro'mollarinimi, nimanidir to'gb ʻrilashga urinadilar. Bildim, anavinga birovning ko'zi tushmay qo'ya qolsin, deb... jonlari halak: uyalib, yerga kirib boryaptilar.

Men ularga yordamlashib, oyimning qo'ltiqlaridan tutgim bor-u, so'rashayotgan togʻ ʻalarim oldidan o'ta olmay dovdirabgina turibman. Qolaversa, qo'limdagini qaerga qo'yarimni bilmayman, u kishiga achinib ketganim shunchalik.

Axiyri opalariga yelka tutib borgan togʻ ʻam qaytganlarida oldinga o'tdimu oyimning qo'ltiqlariga kirib ulgurdim. Kennoyimga jon bitgan edi, u kishi bir qayrilishda qanday narigi tokcha yoniga yetdilar, keyin o'sha tokchalarga qisingancha surina-surina, togʻ ʻalarim bilan so'rasha-so'rasha eshikka bordilaru o'zlarini tashqari oldilar. Yonlamasiga chiqib ketdilar, orqalari ilami, sezmayin ham qoldim. Aftidan fikri-xayoli o'sha narsadayu unga birovning ko'zi tushmay qo'ya qolsa, deb titrab-qaqshar, o'zini qaerga qo'yarini bilmasdi.

Nega Alloh bergan bir dard ekan, deya olmayapti? Hamma narsaga ko'ngan, ne-ne mashaqqatlarni ko'rdim demagan, shuncha malomatlarni ichiga yutib ketolgan kennoyim... shunga kelganda bo'shshib tushdi? O'zini yeb bitiryapti? Buyam Allohning bir sinovi-da deb, orqaga tashlay olmayapti?

Ayol kishining boshiga togʻ ʻ agb ʻdarilsa, agb ʻdarilsin ekan-u, etiga bunday oq tushmasin ekanmi?! Zaifa degani shunda bilinadi ekanmi?!

Sultonmurod akamni yo'qotgani, ajrab qolgani, o'sha alamlar, o'sha boshi-kechi yo'q ayriliq-hijronlar endi bilinyaptimi? Shuncha hijron yetmagandek, taqdir qamchisi uni bedavo oq dogʻ ʻlar bilan "taqdirlab" to'rt devor ichiga quvmuqchi, qamamoqchimi? Bu ko'rgilikka qanday chidaydi endi?!

Men ich-etim uzilib shularni o'yarlarkanman, kenja togʻ ʻam oyim bilan qanday so'rashdilar, so'ng akalarining yonlariga o'tib o'tirgancha, orqalaridagi yostiqni nega oyim tomonga tashlashga unнала boshladilar, hech fahmlay olmasdim. Bu orada Yahyo



akam ham ikki bukilib yelka tutib ulgurgan, xolamning salomlarini topshirish bilan andarmon edilar:

- Oyim duo deb yubordilar, xola, namozlarizda shifo tilab qo'yarmishsiz u kishiga. Salomxonni duolari qabul: ikki salovot o'rtasida so'rashni biladi, deydilar. Shunaqami xola? - dedilar ovozlari uyimizning toqilari tagida jangillab. (U kishi shunaqa daroz odam. Ovozlari ham bo'y-bastlariga yarasha!)

- Bo'lsa, bordir, - dedilar oyim menga suyangancha joylariga cho'kayotib, keyin o'tirivolib qo'shdilar,- hammasi ixtimat-da, bolam. Alloh ham ixtimatli bandasini suyadi. O'zlari tuzukmilar?

- O'tiribdilar o'sha o'ziz bilgan karavotlarida... ixrab-sixrab, tasbehtarini o'girib. Charchasalar yotadilar. Yotib zeriksalar, turib tahorat oladilar, yana o'sha o'rinlarida namozlarini o'qiydilar. Xudo umr bersin, - deb u kishi ham cho'kdilar.

- Beradi ham. Allohning bergan dardiga necha vaqtdan beri sabr etadilaru u kishini sevmay, kimni sevsin! Shu dard bilan ham ibodatlarini qo'ymaganlari uchun ham shunaqa ushlab turibdi, Yahyoxo'ja. Bo'lmasa, u kishi tengi qanchalar o'tib ketdi. Qani, ilohim, qadam yetdi, balo yetmasin, hammaga ham shunaqa ibodatli umr bersin, rohi-rostdan O'zi adashtirmasin. Oblohu akbar. Xush kepsizlar. Qaranglar-a, qanday yarashib turibdi, uylarimiz to'lib turibdi. Kelsa, ko'rsa, ko'z-ko'zga tushsa, yaxshi-da. Hammavuz ham gb'hanimat.

Men ishga ketishim kerak edi, choy kelguncha kiyinib ola qolgani chiqdim.

- Hoy, bolam, ichingga issiq kirmay, qayoqqa shoshasan? O'tir, togv'halaring bir kelib qolishibdi, - dedilar oyim.

- Xo'p-xo'p, haligi qaymoq bilan shirchoyni opkirishay... - deb chiqdim.

Ularning ko'ngliga qaramay bo'ladi ekanmi! Ki-yinmayoq shirchoyni tezlashtirib qaytib kirsam, togv'halarim o'tgan-ketgandan gap ochib, gangir-gungur suhbatlashib o'tirishar, uy ichi har qachongidan fayzli bo'lib ketgan edi.

Qaymoq ketidan shirchoy kirib, boyagi hidi gurkiragan tandir nonlar ushatilib, bismilloh ila "oling-oling, nasibangiz qo'shilgan ekan", "Alloh dasturxonimizni bundan ham ziyoda qilsin" degan mulozamatlar bilan nonushta qila boshladik.

Ochigv'bi, aqrabolar bilan yozilishib o'tirib nonushta qilish bir gashtli, yolgv'biz o'zing shosha-pisha, apil-tapil bir narsalar bilan nafsnı qondirib ketishdan o'lsa o'ligi ortiq edi. Mehr ko'zda deb shuni aytisalar kerak-da? Endi ketgim ham kelmay qolgan, har kungi o'sha ish-da, boraman-da, axir, deb qilt etmasdim. Rostini aytisam, jirishni buzgim kelmasdi. Qolaversa, ular har kuni kelib yurishibdimi?

Qo'ldosh togv'ham bir gap ochmoqchi bo'lsalar avval odamga sassiz jilmaygancha tikilib qolar edilar. Hozir ham meni suygan kabi o'shanday tikilib qoldilaru so'zga ko'chdilar:

- Akangni Yodgori ko'rinmaydi, jiyan?

Mening o'rnimga ham oyim javob qildilar:

- Maktabiga ketgan, togv'hasi. Hademay o'nni bitiradi, Xudo xohlasa. Bunga o'xshab instularga kirmoqchi. Zehni tez bolaginamizning. Xudo omadini bersin.

- E, shunaqami? Adasiga tortibdi-da. Kim bo'lmoqchi? - dedilar u kishi.

- Do'xtirlikka o'qirmish, onasining boshi kasaldan chiqmaganigayam.

Togv'ham eshik tomon alanglab olib, ovozlari past-latdilar:

- Abbasozdan bir uchini eshitdim, shunaqa tushibdimishmi, opa? - dedilar togv'ham, ayollarini to'ngv'bi'chlarining nomi bilan atab.

Oyim kaftlari ustidan nigohlarini uzmay - istamaygina bosh tebradilar-da, qo'shdilar:

- Osmon uzoq, yer qattiq, deydilar-ku, shu ham borakan peshonasida.

- Shu oyday kelinimizga-ya? Binoyidek shekilli,- deb gap qo'shdilar kenja togv'ham.

- Eldan burun vahma qilmanglar, qo'yinglar, - dedilar Yahyo akam xontaxadan nari surilib.

- Yomon bo'пти, - dedilar Qo'ldosh togv'ham ichlari sidirilib va negadir chakkalarini qashlab, yana eshikka qarab oldilar. - O'zi man aytganimda bo'ladigan ishni bo'ldirib yubora qolish keragiydi. Hazilmi, shuncha yildan beri turmush qurmay o'tirish ayol kishiga?! Bari shundan.

Hammani bilmadim-u, mening damim ichimga tushib ketgan edi! Men tugul, boshqalar ham miq etolmay qolishgan, uy ichiga pashsha uchsa bilingudek bir jimlik cho'kkan va go'yo biz shu o'tirganimizcha tubsiz chohga shuvillab tushib borardik. Yolgv'biz Xudo asramasa, bosh-qadan panoh ham, najot ham yo'qdek edi...

Bir mahal o'zimga kelib, yon-verimga qarasam, togv'hamdan boshqa hamma yer chizib qopti. U kishi esa, zo'r berib, o'z gaplarini ma'qullab yotiptilar. Qani endi, dast turib, chiqib keta olsam!..

Oyim ham har vaqtdagidek kaftlarining orqasini hardamxayol silagancha jim qolgan, bosh ko'tarib, qarab ham qo'ymasdilar. U kishining gapidan o'zlarini qaerga qo'yarlarini bilmay qolgan kenja togv'ham-ku nuqul engahlarini silab, chuchkurmoqchidek burunlarini ishqardilar. Qani, aksira olsalaru qutulsalar!..

Yahyo akam-ku opalarining hurmatidan gap qo'sholmay, ma'noli iljayib o'tiribdilar!

Axiyri oyim bosh ko'tardilar:

- Xudo xayringizni bersin, Qo'ldoshxo'ja. Bu gapni bir aytdingiz, boshqa tilga ola ko'rmang. Eshonpochchanning haqqi-hurmatlari, Sultonmurodimizning haqqi-hurmati. Maylimi?

Kutilmaganda togv'ham dasturxoniga fотиha o'qigan kishiday kaftlarini yuzlariga tortib, tura boshladilaru eshikka qaragan joylarida qaytib cho'kkalab, ovozlari pastlatdilar:

- Nima, men... yomonlik sogv'binib aytayotgan ekanmanmi, opa?

Oyim bo'shshamadilar:

- Sogv'binmagan taqdiringizda ham niyatingiz nimav'bi' aytaymi? - dedilar u kishi.

- Ayting, ayta qoling, - deb izn berdilar togv'ham jahl ustida.

Oyim oqillik qildilar:

- O'ziz ayta qoling, mendan ko'ra.

Togv'ham ko'rpachaga ketlarini qo'yib, ikkala qo'llarini yozdilar:

- Bo'lmasa, Olim qurgan shuncha hovli-joy, uchaskaning huzurini birov ko'rsinmi, birovlarga qolsinmi? Jilla qursa, Yodgorga qoladi-ku, opa.

Oyim kulimsirab, bosh tebradilar:

- Oh, Qo'ldoshxo'ja, Qo'ldoshxo'ja, xafa bo'lmang-u, cho't qoquvchilingizcha qopsiz. Axir ikki o'rtada bekor bo'lmagan osmon nikohi bor-ku! Buni shariat deydilar. Shuni tushunasizmi?

Voh, dunyoda shunday so'zlar ham bor ekanmi, togv'bedek jildirab bo'lmas?.

Ammo o'zimiz yelkadan tog' b' darilgandek yengil tortib qolgan edik.

Uzoqib ketmish orqadoshimizga sog' b' inchli xat

"Bor ekansiz-ku, akajonim! Xabaringiz kelib, boshimiz osmonga yetdi. Sizni qay diyordardan so'raylik deb o'tirganimizda. Siz chindan tegirmonga tushsa, butun chiqquvchilardan edingiz! Mana, yana chiqib turibsiz! Siz bizning murobitimiz, mujohidimiz, ertangi murod-maqsudimiz, hur fikrli Sultonimiz edingiz. Nima bo'ldiki, juda-juda uzoqib ketdingiz?"

Rostini aytsam, xabaringizni eshitib, tanamga go'yo jon bitdi!

O'tirib edim, turib-la ketdim! Boshim osmonda, o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Go'yo ikki kuragimdan xo'v bolalikdagi kabi qanot o'sib chiqmoqda edi. Shunday yengil edimki, uchib ketsam ham mumkindek edi! Bor ekansiz-ku! Dunyoning bir chekkasida bo'lsa-da, eson ekansiz-ku, omon ekansiz-ku. Shunga-da shukr.

Rahmat, Xudo qarag' b'agan yurtning bir chekkasida bizlar ham borligimizni, suyanchsiz-tayanchsiz qolganimizni unutmabsizlar. Xeshu aqrabolarim bor edi o'sha diyorda, bizga ko'z tutgan-tikkanlar bor edi, deb xatlar yo'llab, hol so'rabsiz. Sarhad oshib kelgan xatlarizning ichida o'zimga atalganlari bor ekan, o'shandan bir olam madadlar olib, madorlar topdim. Ruhim hov bir vaqtlardagidek yengil tortib, o'zimni bir boshqacha seza boshladimki, asti qo'yaverasiz.

Asli bizdan lozim edi, Sizni izlab topmoq, hol so'ramoq... Ammo soyasidan ham hurkib yashashga mahkum biz notavonlarning qo'limiz qaerga ham yetardi?! Holimiz fe'limizga yarasha mazlumlikka mahkum ekanimizni koshki bilmasak!.. O'zini o'zgartirilmagan qavmga Xudo ham nazar solmas ekan. Sochimizga qirov inadigan kezda aqlimizni sal-palgina tanib tursak, qaerdan ham Xudo yorlaqasin!

Aka, salomdan ham avval dardu xasratga tushib ketganim uchun uzr so'rayman. Azbaroyi yaqin olib, yorilib qo'yibman.

Sog' b'inganimizni, yo'llaringizga ko'zimiz to'rt ekanini, bundan keyin undan ham intiq kutarimizni - shundan bilavering.

Boringizda kimga bo'ylashishu ergashishni bilardik. Sizsiz hamma qatori bo'ldik-qoldik. Qayg' b'ularimiz ham qarichimizga yarasha. Intilib esa, qaerga ham yetardik?! Damimiz ichimizda, bir navi g' b'imirab yurganimizni Bahriddin akamdan elchi kelganida (harqalay u dunyo ko'rgan-da!) sezib qoldim. Ilgari ham bir kelgan u tujjor eski cho'g' b' yalarimizni yangilab, yo meni o'zgartirib ketdi, yo ko'zimni ochib ketdi. Ishqilib men kechagi Maqsud emasdim. Dunyoga ham avvalgidan boshqa ko'z bilan qarab, boshqa qarich - Sizning qarichingiz bilan o'lchar edim. Go'yo Siz bilgan o'sha pakana pari (yoshim bir qoraga yetganda!) tirilib kelib qolganek edi. O'sha ilinj, o'sha qiziqishlarimni, kimga besh ketgan tomonlarimni topib olganek edim. (Axir men kimga o'xshamoqchi edimu, kim bo'ldim?! Qani, nochorning yoniga tushib, mazlumning tarafini ola bilganim?! Qani, qalamim "hamdu sano" dan ortib, elning g' b' amini terib yozayotgani?)

Aka, siz ko'kragida yoli bor yigitlarning sarasi edingiz, sultoni edingiz! Zig' b'ircha adolatsizlikka qarab turolmasdingiz. Siz bizning murodimiz edingiz, Sizga qarab yorug' b' kunlarni ko'rgandek bo'laverardik. Afsuski, murobitu mujohidlarning so'nggisib' s' sizlar ekansiz, undan keyin biz ishongan tog' b' lardan sher tugul kiyiklar chiqmay-la qoldi. Marg' b' uba kennoyimizni o'z nikohidagi egasiga yetkazib, xuddi u kelinoyimizdan bir tuki kam bo'lmagan Mahfuz kennoyimni bu tarafga jo'natganingizda (Akam keladilar ekan-da deb!) boshimiz ko'kka yetib edi.

Chindan Alloh Sizdek mujohidni (uning shariatyu osmon nikohini har narsadan ustun qo'yganingiz uchun!) pardai ismatda asragan boshqa bir Mahfuzasi bilan taqdirlagan ekan. Bunga pochchadan tortib xolalarimgacha, hatto oyim ham iymon keltirishgan - bu Xudoyimning yozmishi, Sultonmurodni ziyodasi bilan taqdirlabdi, deyishgan edi. Ammo siz bunga javoban nima qildingiz - bir marta bosh suqqancha qaytib qorangizni ko'rsatmadingiz! Alloh yorlaqaganiga shumidi javobingiz?

Musofirgina kelinchakning holi nima kechdi deb hech o'ylamadingizmi? Sizlar izlagan dorilomon diyor kishining ahli ayoli, bola-chaqasidan ham aziz ekanmi? Qolaversa, u boyaqishgina sizning nikohingizda edi. (Hanuz ko'zlari to'rt kutyapti!) Shariat buyurgan zimmangizdagi narsalarni nima soqit qila olardiki, bu yoqda ahli ayolingiz turib, o'zingiz u yoqlarda qolib ketdingiz?.. Topganlaringiz yo'qotganingizdan shunchalar azizmidi?

Uzr, men bu narsalar haqda og' b' iz ochmasligim kerak edi, lekin keyingi voqealar, u mushtiparginaning boshiga tushgan ko'rgiliklarni bilsingiz edi, siz ham kechirmasdingiz o'zingizni. Na iloj, qiyomat qarz, shularni bildirib qo'yishim shart ko'rindi. (Axir, u sizning ahli ayolingiz! Erta-birisi kun Allohning oldida so'ralishingiz bor!) U musofirginani bu azim shaharda necha yillar yo'qotib qo'yib, sizga nima javob qilarimizni bilmay uy-ichimiz bilan ich-etimizni yeb o'tirganlarimizni aytganim yo'q. (Keyin bilsak, Yodgorga yukli bo'lib qolib, biznikilarga ko'rinolmayin Kattabog' b' dan bosh olib ketgan, Chaman akanikidan panoh topgan ekan). Keyin-chi, do'xtirlar oyog' b' ini kesadigan bo'lib, shifoxonalarda tiq etsa, eshikka termulib yotganida-chi? Kim joniga ora kirdi? Mana endi yolg' b' iz Yodgori er yetib qolganida yana uydan chiqolmay o'tiribdi. Koshki u boyaqishginaga ilashgan dard haqida birovg'a og' b' iz ochib bo'lsa!

Oyimlarni eshitsangiz: Xudoyimdan aylanaqolay, bundan bo'lak suygani yo'q ekanmi, dard ustiga dard qo'shib beravermasa? Shunaqqib sinaganlari evaziga koshki yaxshi bir kunda Sultonmurodginamiz osmondan tushgandek kirib kela qolsa, deb o'tiribdilar.

Shunaqa, akajon. Bular hammasi aytishga oson. Lekin terisi boshqa nimani ham bilardi! Bir kun chidarmikanmiz? Kennoyim-chi, yil - o'n ikki oygina emas, yaqin o'n sakkiz yildan beri chidab kelyapti! Tag' b' inam fil ekan, boshqasi bo' Xudo, dunyoga ikki marta kelamanmi, derdiyu turmush qilib ketardi. U mingdan bittasi bo'lib o'tiribdi-ku. Shunday mohipora kennoyimiz xabar olishga arzimadimi?

Aka, uzr. Avvalom bor, bular haqda sizga yozmasligim kerak edi, Sizni bilganimdan, ichim achigandan, yozib qo'yibman. Siz hech kimga o'xshamassiz! Sizdek odamga chegara-sarhadlar nima ekan?! Tuzumlar nima ekan?! Hammasi noqis, noodil ekanini, o'tkinchi sanashingizni koshki bilmasam! Hech biri Alloh yaratgan shariatdan, zimmamizga yuklagan burchu so'raladigan narsalardan ustivormasdir?

Men o'zingizni ko'r-ko'rona olovga urib, bo'yingizni sirtmoqqa tutib bering demoqchi emasman. Lekin inson Qiyomatni, Mahshar kunini, Allohning oldida turmog' b' ini unutmog' b' i mumkinmi? Ko'ra-bila turib, o'zini sharmisorlikka qoldirmog' b' i mumkinmi? Sizdek odam bunga rozi bo'lmog' b' ini hech tasavvur eta olmasman...

Yana ming bor uzr, men mushtiparginaga kennoyimizni deb, shularni yozdim. Aybsitmaysiz. Adashgan bo'lsam, Alloh kechirsin. Qolaversa, tili achchig' b' u qo'li kalta ukangizni kechirib qo'ying! Nima degan bo'lsam, avvalo, Sizni suyganimdan, Allohning oldida yuzingiz yorug' b' bo'lishini istab yozdim. Hamma kechirmasa ham o'zingiz kechirasiz, siz tushunasiz deb, mirzo ukangiz, Maqsud.

O'zingiz bilgan Toshkandi azimning

Katta Qangli biqinida  
oshyon tutgan xeshu  
aqrabolarigizdan sogʻinichli salomlar  
yo'llab qolaman".

Mangu javhar yoxud iymon ko'chasidan o'tmaganlar hiylasi

Tan beramiz: dunyo shunday qurilgan. Unda boqiy narsaning o'zi yo'q.

Unda har bir narsaning yashnashi, gurkirashi, gullashi bor. So'ng zavolga yuz tutishi. Hatto anvoyi pechakgul ham bir ajoyib karnaygullar o'rab, necha kungina yashnamogʻib, so'ng urugʻib bogʻlab so'lmogʻib bor. Hatto o'sha yo'qlikka ko'chgan Izza tepaliklaridagi tikonzorlar ham bahorda bir chiroyli gullab yuborar edilar. Endi topib ko'r-chi!

Ko'rk-husn-chiroy ham shunga monand narsalar jumlasidan ekan.

Oyim uzun kechalarda aytib o'tirardilar:

- Xudoyim taolo ko'rkn yaratib, uni yuz bo'lakka bo'lgan ekan-da, o'shaning bir bo'lagini yana mingga bo'lib, bir bo'lakkinasini Yusuf alayhissalomga berib, qolganini butun dunyoga sochgan ekan. O'shanda kennoyingga ham jindek yuqqan. Xudoning berishi-da, bolam, - der edilar.

Endi ana o'sha chiroyga ham ko'z tegib, qaerdandir oq tushgan edi. Nima bu, Alloh O'zi bergan husnni O'zi qaytarib olmoqdami yo shuni ham ko'p ko'rdimi? Balki mahbub ko'rgan bandasini shu tariqa sinab-poklamoqdadir?! Shuncha ko'rgiliklari, tosh kelsa - kemirib, suv kelsa - simirib o'tirganlari oz ekanmi?..

Kelishilgan yerga yetib borganimda hali aytilgan vaqtga jindek bor - o'ftob endi teatr ortidagi chinorlar orqasidan bosh ko'tarmoqda edi. Ammo kunmisan-kun chiqib kelmoqda. Uni nur to'zoni yoxud seli deb atamoq ham kam edi: butun daraxtzor, ulkan chinorlar nur selida qolgan, soyalar qayoqqa qocharini bilmay daraxt tanalariga yopishib olgan, o'zlari esa, zar purkalgan tilla daraxtlarga aylanib ulgurgan edilar. Shoxlari orasidan yorib o'tgan nurlar shunday o'tkir, yoqimli ediki, u nur to'zonida ko'z uzmasan derdim. Bunaqasini ilgari ko'rganmanmi-yo'qmi, eslay olmasdim. Ko'rganmanki, hov o'sha o'yinqaroq kezlirimda Izza tepalarida turib quyoshning chiqishiyu botishini soatlab tomosha qilganlarim yodimga tushib bormoqda, yo'qotganlarimni topib olgandek edim. Umr shunday bebaqo, hayot esa bevafo ekanki, yillar o'tgani, kunlar kechgani sayin, hatto daqiqalar ichida ham odam bir aziz narsasidan judo bo'lib qolaversa! Mana, hozir ham o'ftob nayza bo'yi ko'tarilib, daraxtlar ustiga chiqib oladiyu hozirgi nur seliniyu daraxtzor ichidagi anavi qushlar bozorini qaytib topib ko'r-chi? Ertaga yo ko'ra olasan, yo ko'ra olmaysan. Shunaqa, umr selday o'tib bormoqda, aziz onlarni sovurib, boy berib bormoqdamiz. U deb, bu deb chopib yuribmiz-u, lekin nimani ushlab qolmoqdamiz? Oxir-oqibat nimaga ega chiqmoqdamiz? Ayriqliqami?

Kechagina Bahridin akam taraflaridan elchi kepti, shundan-shu yoqqa Sul-ton akamning ahli ayolini yo'qlab-daraklab kepti deb, boshim osmonda edi. Bugun esa, u bilan ham xayrlashuv onlari yetib kelmoqda edi. Yana qanchadir vaqt o'tib u keladiyu mendan salomnomani olib, quchoqlashib xayrlashishga tushadi. Keyin men yana yuragim bo'shab - huvillab qolaveraman. Shumi topganlarim? Bu hayot deganlari buncha beshafqat ekan, nuqul yo'qotuvlaru judoliklardan iborat?! Bo'lmasa, topib ko'r-chi, keltirib ko'r-chi akamni! Akamu kennoyim ikkovini qo'sha qaritib ko'r-chi! Kelmaydi qo'lingdan! Alloh xohlamasa, biz kimmiz? Nahot taqdir qalamining siyohi bitgan, uning nuqtasini-da o'zgartib bo'lmas?!.

- Salomlar bo'lsin o'zlariga, Maqsudxo'ja janoblari.

Oqqushdayin suzib kelib yonginamda to'xtagan mashinadan tushib ulgurgan mehmonimiz quchoq ochib turar edi.

Turk afandilaridek po'rim kiyingan, keng peshona, qora ko'z, yarqiroq yuzli mehmonimizni ko'rganimdan alohida bir mehr uygʻonib, unga talpindim. Har na qilsa, akalarimizdan mujdayu salomlar keltirgan odam. Yana bizdan mujdayu salomlar olib ketmakchi. O'z yumushlaridan ortib, bizga shunchalar qayishibdi, vaqt topib kepti, Alloh ajrini to'liq qilib bersin. Shu omonatni deb biron kor-holga qolmoqdan qo'rqmabdi, barchasidan Alloh roziligini ustun qo'yibdi, unga tasanno. Har na qilsa, dunyo ko'rgan: elchilikni o'rniga qo'ydi. Gap yo'q! Men-chi, bu mard insonni lozim darajada kutib olib, e'zoz ko'rsata oldimmi? Uyga olib ketay, bir kecha mehmonimiz bo'ling, deb shuncha qistadim, ko'nmadi. Bizning qadamimiz o'lchovlu, mirzo yigit. Sizni ko'rganum, birodarimizga tegishlur kishilarning sogʻin-omonliguni bilganum yetarlur, muhimi - shu edu, endi ertaga ikki enlukkina bir xat bitub bersangiz kifoya, ola ketaman, deb turib oldi. Mana, o'shanga kelyapti - xayr-xo'sh uchun kelyapti.

- Kuzatib qo'yay, shundan shu yoqqa mozor bosib kelibsiz, yurt-dan jindek sovgʻin-salomlar qilib beray, ola keting, - deb uvvalo yalindim, iltijolar qildim, ko'nmadi.

- Biz safar kishisi - kelib-ketadurgan odam, Siz qolasiz. Bizdan keyin bir karra surishtirmoqlari bor, shunga yetmay qo'yaqolsin, dastxat - maktubingiz yetarlur, - dedi issiq jilmayib. Tushungan odamlarning sadagʻinasi ketsang arziydi. Ular o'zi ana shunday - bir boshqacha bo'ladilar..

Mayli desa, bir shisha bonkachada omonluq-somonluqqa deb tut terdirib, yana bir shisha bonkachada sumalakmi, halimmi berib yubormoqchi edim. Xolavachchalarimu Margʻin kennoyimga ilingan edim. Zora ogʻinilari tegib, boshlari ko'kka yetsa, deb edim. Unamadi mehmon. Ayniqsa, halim Sul-ton akamning joni-tani edi!

- Jindek-jindek shakar sepib, bir laganini yeb olsangmi, oh, uning savobiga kim yetsin, ta'mi kelguvsi yilgacha ogʻinilardan ketmaydi. Dorilomon zamonlar kelsin, yurtga bir halimlar tortaylik, - derdi orzulab. Orzusiga yetolmadi. Orzu qayda, sarhaddan ham o'tolmay, begona yurtlarda qolib ketdi. "Inshaalloh" demagan ekan, esiz...

- Qalaysiz, mirzo yigit? Kutub qolmadizmi? Uzr, sizni muntazir ettuk! - deb kelib, issiq so'rashdi. Kaft olib, tirsakdan tutishi, mulozamatlari bir samimiy edi, mutaassir tortib:

- Muntaziri nimasi?! - dedim xijolat aralash,- aeroportga chiqaversam bo'lar edi.

- Rahmat, mirzo yigit. Kutib olib, ko'p mutaassir ettiz. Takalluflarizdan minnatdorman, - dedi u tirsagimni siqib qo'yib, -

O'ylaymanki, bu so'nggi ko'rishimiz emas. Mana, birodar bo'lib qoldik. Alloh xohlasa, bizim diyorlarda-da, ko'rishtirgay.

- Qani edi, qani edi, - dedim samimiyatidan ta'sirlanib.

- Siz sidqidil so'rayvering, inshaalloh, O'zi yetkazgay.

- Rahmat. O'ziz ham bedarak ketmang. Kelishingiz bilan ko'rishaylik, - dedim.

- Ilohum, ilohum. Ko'rishmoq nasib etsun, - dedi u bagʻin-briga tortib.

Men uni quchib, yelkalariga bosh qo'yib, xo'shlashar ekanman, ko'ksiyu yagʻinlaridan tanish bo'y - safar kishisining bo'yini tuyib, beixtiyor u men uchun azizdan-aziz kishilar - darbadar xolavachchalarim bilan ham mana shunday esonlashuvini ko'z oldimga keltirib, gʻalati bo'lib ketdim. Ko'zlarimga sogʻinich yoshlarimi, nima tepchib, betiga qaray olmay qolgan edim.

Ko'ksimni ko'ksidan uzgim kelmasdi.

U esa, paytdan foydalanib, betini betimga suykab to'ymas ekan, kutilmaganda qulogʻimga shivirlamoqqa boshladi:

- Ataganingiz u bitikni... o'ng kissamga sola bilsangiz - solib qo'ya qoling. U yogʻib Alloh panohiga! Egasiga tekkay, inshaalloh.

Ichimdan bir jimirlab yugurib, xushyor tortdim: nima balo kuzatuvda ekanmizmi? Oldini olyaptimi, har ehtimolga qarshi?

Yuragim duk-duk urmoqqayu ko'zim olma-kesak termoqqa tushgan edi. So'nggi daqiqada u haq ekanini payqab qoldim: O'shal oqqush kabi suzib kelgan oq mashinaning haydovchisi... bizdan ko'zini uzmas, nimadandir gʻofil qolgisi yo'q edi.

Shu topda gʻofijim tutdi: u shoxida yursa, nega biz bargida yurmasligimiz kerak?! Shuni dogʻibda qoldirolmasam, nimam pakana pari, deb o'yladimu... tingchining ko'zlariga qarab turib, nigohini uzgan kezda omonatni mehmonning kissasiga joylab yubordim. So'ng hech narsa bo'lmagandek mehmon bagʻridan chiqib, xo'shlashmoqqa boshladim.

Alloh bunday ikkiyuzlamachi tingchilarning yuzini O'zi teskari qilsin. Undan beriga bu toshni-da teshar nazarlardan qutulib bo'ladimi ekan! O'zi asrasin, avvalo.

So'ng oq mashinaga dovur kuzatib borib, mehmonimizga oq yo'l tilar ekanman:

- Xo'p, omon boring. Siz ila ko'rishtirgan Allohimga beaded shukrlar bo'lsin, - dedim.

- Siz-da yaxshi qoling. Ko'rganumdan beaded mamnunman. Ro'baro' qilaman desa, O'ziga oson ekan, - deya shukrona bildirdi u va ikki kaftini boshi uzra ko'tarib juftladi: - Xo'p, Allohning panohiga.

- Birodarlaringizu xesh-aqrabolaringizu O'ziga topshirdik, - deb eshikni yopdim.

Men aytdiganimni aytib, beradiganimni berib ulgurgan edim. Tingchi tushmagur, hech nimani anglamayin-da qolgan edi. U noiloj mashinasiga o't oldirmoqda edi.

Men jondan aziz kishim - Sultonmurod akamga duoi xayrlar ila salom yo'llab qolganimdan boshim osmonda ekan, turgan yeridan ohista jilib, erka ki-yikdek suzib ketgan mashinadan ko'z uzolmasdim. Ammo shu tob ko'chaning narigi betida, qayragʻib och tagidagi uzun o'rindiqa o'tirgan qora ko'zoynakli yolgʻibiz kimsaga banogoh ko'zim tushib, yuragim shigʻib etdi. Chap kuragim ustida bir jimirlab yugurib, o'zimni allaqanday omonat sezib ketdimu qayoqqa yuririmni unutdim. Nazarimda esxonam chiqib, jonim tovonimga tushib ketgan edi. Ana, xolos, arzimagan kuzatuvga buncha esankiramam? Akamga to'zim bersin ekan! Yana men o'zimni kimga mengzab, kimlarga ergasharimni orzulab yuribman?! Yana ularning orqasida kimlarning, himoyachisi bo'lib qolmoqchiman! Bunday paytda bular shoxida yursa, nega biz bargida yurmasligimiz kerak?! Shundagina Alloh asragay-ku, to'zim bergay-ku. Undan beriga kim mazlumlarining himoyachisiga aylana qolibdi?!

Meni uyat, andesha hissi bosib, sal o'zimga kelib qolgan edim: uzun zinalardan bir-bir chiqib, mahobatli kollonalar tagi bilan ishxonamiz eshiklari tomon yurdim. Chindan bu eshiklar, bu idora meni har qanday balolardan asrab qoladigandek, boyagidek nigohlarga xorlatib ham, xo'rlatib ham qo'yamaydigandek edi. Ammo o'zim avvalo tilimdan pand bermasligim, bilib qadamimni bosishim lozim. Ana shunda Alloh ham asraydi, o'zim ham uzoqqa bora olaman. To'gʻib, akam bo'lolmasam ham (unga tenglashishga yo'l bo'lsin!) undan beriroq bo'lmoq mumkin-ku. O'z so'zida mahkam turmoq, boshqalardan bir pogʻibona baland fikrlamoq, hamisha Haqni demoq, Haq tarafida turmoq mumkin-ku. Undan beriga bu dargohlarda nima bor?

Men shunday o'ylar bilan o'z qavatimga ko'tarilishga ko'tarildim-u, eshikka kalit solgan joyimda xayolimga tamomila boshqa fikr urilib, peshonamni muzdek ter bosdi:

"Haydovchisi sezmagani taqdirida ham... boshqa birovi ko'rmadimikan? Yo'ldayoq to'xtatib tintishsa-chi?"

Bu fikrdan esim teskari bo'lib ketayozgan edi.

Balki to'xtatib ulgurishgan hamdir?.. Men nimaga ishonib unday xat bitib bera qoldim? Tuzoqqa tushirishdi, desang-chi! Yaxshi ham Sutchi bergan o'girmani qo'shmaganim!.. Mavridi kelar, berarman ham, fikrini bilarman ham...

Xonamga qanday kirib bordim, oyoqlarimdan mador qochib, qay o'rindiqa cho'kdim, qancha o'tirib qoldim - bilmasdim. Xayolim to'zib ketgan, ko'z oldimdan o'sha mashinadayoq ikki yogʻibidan ikki odam kirib tintuvga olgan xorilik mehmonimiz ketmasdi. Shayton meni ne kuydan olib, ne kuyga solar, o'zimga kelolmas, qilgan ishimga mantiq izlardim-u, o'zimni oqlaydigan bir narsa topolmasdim. Axiyri boshim qotib, deraza oldiga borsam, o'sha yolgʻibiz qayragʻib och tagidagi uzun o'rindiqa... kim o'tiribdi deng?! Qora ko'zoynagini qo'lga olib, yo darigʻib, tepadan aniq-taniq ko'rdim, ko'zi ojiz - so'qir odam o'tiribdi!..

Ana vasvasayu mana vasvasa! Shayton ekan-ku! Nauzanbilloh, bo'sh kelsang u qay kuylarga solmaydi, kishini...

Derazadan urgan shabadadan o'zimga kelib, yengil tortgan joyimda eshik ochilib birov kirdi. O'girilib, bir qavat yuqoridagi "Ayollar saltanati" da ishlaydigan "jannati hamkasbimiz"ni ko'rib iljaydim. Mana buni yaxshilikka fol olsa mumkin edi.

- E, keling, "Saodat asri" dan tushgan akam, - deya begʻib haraz hazillashdim.

- Huri aynlardan salom, - dedi u ham kaftini kaftimga tashlab.

- Nechuk-nechuk, ertamatan yo'qlab qopsiz? - dedim fargʻib onacha tegishib.

- Shu qavatda tili bir shirin, so'zi bir o'tkir yigit bor. Uni bizga torting. Biz uchunam bir narsalar bitib bersin, deyaptilar opa.

- Yo'gʻib-e! Men sizlarbop silliq narsalar yoza olarkanmanmi? - dedim hayratga tushib.

- O'tiring-o'tiring, avval eshiting, - dedi hamkasbim meni joyimga cho'kishga undab.

Biz uzun oromkursiga o'tira qoldik. U bilagimdan tutib, jilmaydi:

- Xuddi o'sha silliq narsalar me'daga tegib, Sizni, Sizga o'xshaganlarni yo'qlatayaptilar. Yordamiz kerak, oshna.

- Meni bilasiz, unaqa teztorlardan emasman. Yo'zsam ogʻib qiz narsalarni, jondan o'tganlarini yozaman. Har kimga ham yoqavermaydi, - dedim haqiga ko'chib.

U bosh silkidi:

- Xuddi o'shanaqasi kerak. O'zlari aytdilar: nima, hayotimiz shunchalar silliq, to'kismi? Ko'ngli yarimta o'ksiklar kammi?

Judoliklarimiz haqida kim yozadi? Armonlarimiz haqida-chi, dedilar. Eshityapsizmi, o'zlari aytdilar.

Ammo yozib bergan taqdirimda ham bosmasliklarini bilib, gajirligim tutib kelmoqda edi.

- Nechuk o'zlari boshlab bera qolmabdilar? Yozaman desalar armonlaridan qogʻiboz beti kuygay-ku, - dedim.

- Bilmadim, balki o'zlariga noqulaydir. Harqalay, opa degan nomlari bor, - dedi bo'shshibroq.

Men to'nimni teskari kiyib ulgurgan edim. Qolaversa, boyagi ko'ngli yarimta o'ksiklar haqida gap ketgandayoq tamom bo'lgandim. Kennoyimu akamning hijron to'la tarixlari yodimga tushib ketib, alamimmi - nimam to'lib bormoqda edi. Men undan bo'lak nimani ham yoza olar edim?! Ammo bu tarixni, nainki diyoridan, xeshu aqrabolaridan ayrilgan, hatto shar'an nikohidagi yostiqdoshidan judo bo'lgan bu darbadarlar qissasini kim ham bosib chiqargay? Opa tugul boshqasi bir chimdimini e'lon qila olarmikan?

O'zlari-chi? O'zlarini tul qoldirgan jamiyat, tuzum haqida yolgʻibiz yostiqdandan bo'lak kimga ogʻib ocha olar ekanlar! U sir-asrorlari, ichga yutgan zardoblari haqda miq etmay kelyaptilar-ku o'zlari?! Shu miq etmaganlari evaziga Opa bo'lib o'tiribdilar-ku,

to'rda yuribdilar-ku! Ammo buni ayta oladilarmi, ocha oladilarmi yuraklarini? Hayot - mana shunaqa beshafqat! Xohla, ichga yutu zulm mashinasining bir murvati, parragiga aylan! Xohla, boshni tikib, to'g'ib ʻrisidan qaytma! Qay biri boqiylik keltiradi - o'zing bilib olaver, tanlab olaver! Hayot shunaqa - chidaganga chiqargan! Uning imtihonidan Allohga xush keladigan biron ish qila olgan kishidan bo'lak kim ham o'ta olibdi?..

U kishi esa, jamiyat in'om etgan kursiyu to'rlardan kecha olmay nimani boy berayotganlarini bilarmikanlar?..

- Yo'q. Birodar, va'da qilolmayman. Unday narsani yozishga hozir kayfiyatim yo'qroq, - dedim yotig'ib bilan. Aftidan uni ayab, ochig'ib ʻiga ko'chmayotgan edim.

"Ayollar saltanati"dan tushgan hamkasbim esa, meni tushuna qolmay o'tina boshlagan edi:

- Mayli, bir haftacha kutay. O'ziz bir narsa qoralab bera qoling.

Men uning ko'ziga qaramayin ham bosh chayqadim:

- Iloji yo'q, kayfiyatim bo'lmasa, biron satr ham... bita olmayman, - dedim hamon chiniga ko'cha qolmay.

- Nima bo'ldi, uyizda xotirjamlik yo'qmi yo bu yerdami? - dedi u o'zini yaqin tutib.

Men o'sha ichimga sig'ib ʻidirolmayotgan narsani qayta ichimga yuta qolmay, o'rnimdan turib, deraza tomon yurdim:

- Bizniyam bir o'ksik, ko'ngli yarimta kennoyimiz borlar, - dedim unga qaray olmay, negadir ko'zim namlanib, ovozim ham o'zgarib kelmoqda edi, - Shu kishiga bo'lisholmaganimizdan...

- Qanaqa yordam kerak, siz yashirmay aytavering. Opaning dastlari uzun. Hammaga birdek qayishadigan odatlari bor, - u turib yonimga kelib olgan, yelkamga qo'lini qo'yib, o'ziga elatmoqchi bo'lar edi.

Men ko'nglim yumshab kelib, qanday jin aylantirdi, yorilib qo'yibman. Esimni yig'ib ʻib olganimda kech edi, sirni ochib qo'yganimdan o'zim pushaymon edim.

- Shoshmang, buning davosi bor-ku. O'ziz ham uni ko'rgansiz! - deb yelkamga qoqdi.

- Qachon, kimni aytayapsiz? - dedim hech narsaga tushuna olmay.

- O'sha yamoqchini-da. Anuv hovlidagi tutning tagida o'tiradigan-chi? Aron amaki?..

- Xo'sh, bunga uning nima dahli bor? - dedim hayronligim battar ortib.

- Xuddi o'shandan eshitganman bu narsani. Siz xo'p deytavering!

- Yamoqchidan-a? Gapingiz qiziq, - dedim yana qaytarib.

- Siz avval eshiting, - deb tirsagimdan tutganicha o'ziga qaratdi. - Xuddi o'sha odam Arpapoyadagi mashhur juhud tabibning akasi bo'lardi, bildiz?

Arpapoyalik tabibning nomini eshitib, joyimda turolmay qoldim:

- Hozir qaerda ekan o'zi?

- E, u allaqachon Amerikasiga jilvorgan. Men uning akasidan eshitganman. Keyin o'zi ham o'sha yoqqa survordi shekilli, ko'rinmay qoldi.

- Topsa bo'ladigan narsami o'zi? - dedim azza-bazza umidlanib. Mashhur tabibning akasi bo'lsa, bir narsani bilsa kerak, axir.

Hamkasbim yuzimga boqib:

- Agar sir bo'lmasa, o'sha narsa yangi boshlanganmi, - dedi,- o'tkazvormaganmisizlar?

Men tushunmadim:

- Nimani... o'tkazib yuboriladi?

U o'ng'ib ʻaysizlanib, tushuntirishga o'rindi:

- O'sha oqlar-da... Agar osti qizg'ib ʻishlanib, tuklari oqara boshlamagan bo'lsa...

- Unisiga... e'tibor bermabmiz, nima edi? - dedim ichim dukurlab.

U yana boyagindek o'ng'ib ʻaysizlanib, yamlandi:

- Xudo asrasinu... o'shanday bo'lsa... dori kor qilmas emish.

Men uni endi anglab, ichim bir zil ketdi:

- Yo'g'ib ʻ-e, bu gap chiqqaniga... qancha bo'la qopti?! Bilaklariyu chakkalarida, xolos, - dedim titranib.

- Unda urinib ko'ringlar, em bo'lsa zora...

Men "U nima, oti bormi, jonivorni? deb so'ragim bor-u, qani, tilim aylana qolsa, u jonivor to'ng qotganga o'xshar edi. O'zimni esa, ichim tushib bormoqda.

U mening holimni ko'rib, javobga oshiqdi:

- Bu narsaga norasida go'dakning peshobi... lozimmish. Undan beriga tuzalmasmish!

Ana xolos!.. Bu gapni eshitib, boshim ikki aylanib ketdiyov! Tovonimdan ko'tarilgan bir jimirllov boshimga dovur yetib borgan, peshonamdan esa, muzdek ter chiqib ketgan edi.

Ichimdagi so'z esa tilim uchiga kela qolmasdi...

- O'sha narsa halol ekanmi? Bilib aytayapsizmi?- deb yuborman axiyri.

Vajohatim ham bir boshqacha edimi, u bir qadam tisarilib ketgan edi:

- UZR, birodar, bu yog'ib ʻini so'ramagan ekanman. O'lay agar, bu yotini o'ylagan bo'lsam, surisi tirgan bo'l-sam... - U azza-bazza qo'lini ko'ksiga bosib, qayta-qayta uzr so'rardi, b ʻMen azbaroyi yaxshilik soginganimdan ayta qoluvdim. Norasida bolaniki ekan-ku... balki mumkindir degan edim...

Men jig'ib ʻi-biyrnim chiqib: "Qanaqasiga mumkin bo'lsin, u najas-ku, harom-ku, shuniyam bilmaysizmi? Boshqa halol chorasi bordir! Qanaqa musulmonsiz?!" degim kelar-u, tashimga chiqarolmasdim.

Rosti, bu holimizdan yig'ib ʻlagim kelar edi: shunchalar ham ko'r, omi bo'lamizmi? Shariatimizni, nima halol, nima haromligini bilmaymizmi? Bedavo silni tuzatarkan deb, ota-bobolarimiz og'ib ʻizga olmagan narsalarni tanovul qilsak?! Halqumni o'ylamasak,

qiyomatdagi so'rog'ib ʻidan qo'rqmasak - qayoqqa qarab ketmoqdamiz? Endi peshob chiqibdimi?!.1

Hamma qolib, men shu narsani o'sha mushfiqaga ravo ko'rar ekanmanmi?! Shuncha asrab-avaylab-a? Bordir Xudoyimning boshqa bir yozgani?! Kennoyijonimga atagan shifosi!2

Yaxshilik sog'ib ʻingan yana bir kishi yoxud To'ram tadbir izlaydilar

- Amaqu biz klub edik.

Shu bir og'ib ʻiz so'zdan jonu jahonim yorishib ketgan edi.

- Yodgor, o'zingmi?! Men hozir, - dedimu apil-tapil o'tlanishga tushdim.

Mehmonni kuzatganim ham bir bo'ldi, Opaning iltimosi bilan tushgan hamkasbimning maslahati ham. Mehmon mujdaxatni olib, jo'nab ketganida ichim bir uzilgan edi, hamkasbimning maslahatidan battar ezildim. Boringki, o'sha narsa (avvalo, o'zim ikki dunyoda rozimasman!) davo bo'lgan taqdirda ham men uni kennoyimga ayta olar ekanmanmi?! Birov orqali ham aytirmasman! Bu gap zinhor mendan chiqmasligi kerak. Keyin betlariga qanday qarayman?..

Nechta zinani bitta qilib, uchib tushib borsam, ular ona-bola ko'chani narigi betidagi qo'sh qayragv bo'ch tagida allaqanday begonasirab (xuddi musofirlardek javdirab!) turishibdi... Ko'rgandan ichim bir uvishdi. Yaxshiyam biron topshiriq bilan ketib qolmaganim! Axir ular kelishmoqchi, birga-birga To'ram taqsirning oldilariga o'tmoqchi edik-ku. O'zim aytib, o'zim unutilib o'tirsam...

Chindan Xudo hafiz. Uning O'zi meni uyatga qolishdan asragan edi.

Men ularni bir qarashdayoq tanigan edim. Hamisha har narsaga mahliyo bo'lib qolaverguchi Yodgor teatr binosi peshtoqlaridan ko'z uzolmas, och simobrang shoyi ro'mollariga o'ranib olgan kennoyim esa, yolgb Bizginasining kiftlarini qoqib, yoqasini to'gb Etilar va qulogv Biga shivirlab, bir nimalarni uqdirar edilar. Hammadan gb Haroyibi - u mushfiqa shaharga necha yilda bir tushib qoladigan ko'hlikdan-ko'hlik qishloq kelinlariga o'xshab, o'tkinchilardan ajrab turar, unga qaragan ham qarar, qaramagan ham qarar, bunga sayin u o'ngv Haysizlanib, qisinib borar edi.

Boyaqishgina, muncha begonasiramasa, qisinavermasa?.. Axir kecha kelgani yo'q-ku bu diyor, bu shaharga? Shu yerga kelib topgan tirmogv Bi er yetib qopti-ku, haliga dovur qimtinadi, qovushib ketolmaydi. Shu o'ylardan ichim sidirilib, bu tarix, bu tavorixlar ko'ksimda alamangiz bir qo'zgb Holon yasab borarkan, mijjalarim orasidan qaynoq yoshmi-nima sizib chiqmoqqa urinar, ko'chani kesib o'tmoqqa ham holim qolmagandek edi.

Kennoyim o'ziga qaragan har kimsadan bir xijolatlariga botib, ro'molini peshonasiga tushirishgayu bo'ynilarini qayta o'rashga tutinar ekan, men unga achiniblar bormoqda edim. Tagv Binam fil ekan! Bu balolar togv Bga yogv Bilsa, togv B chidamasdi. U chidab kelyapti...

Men jahd bilan qanday o'tib borganimniyu suyib salom berganimni o'zim sezmay qolgan edim:

- Assalomu alaykum, kennoyijon. UZR, kutdirib qo'ydim. Qiynalmay yetib keldinglarmi?

- Voy, yaxshimusiz? Ko'rmay ham qolubmiz. - U xijolatga botib tushuntirmoqqa urinarkan, hatto mendan-da qisinib-qimtinari edi, - Yodgorum shoshiraverub, el-burutdan kelaverubmiz.

- Ajab qipsizlar-da. Bo'lmasa, men ichim qurib kutib o'tirardim, - deya Yodgorni yelkasidan quchib, erkalab qo'ydim, - Ketdikmi, do'nantoy?

U erib, bosh silkidi:

- Nimada boramuz, amaqu? Uchar tramvaylarga chiqamizmu, shohli moshinlarga tushamizmu? - deb elanishga tushdi.

- Mening vaqtim ziq, taksi tutaqolamiz. G'izza tashlab qo'yadi, yura qolinglar, - deb yo'l yoqasiga boshlayverdim.

Ammo kennoyim iymanganicha hamon mahtal tortib turar, joylaridan jila qolmas edilar. Men nima gapligini bilolmay, u kishiga qaradim:

- Tez borsak, tez qaytamiz, yura qoling.

- Mehmoniz borakan... qutulmagan bo'lsayiz... kutaturayluk. Saidaxon aytuvdila...

Men elchining isini ham chiqarmoqchi emasdim. (Axir so'z berganman!) Saida qayoqdan ayta qolibdi?.. Alamimni ichimga yutib, xas-po'shlashga urindim:

- Ho', u kishini, allaqachon jo'natib yubordim-ku. Saida nimani biladi, - dedim sir boy bermay. Ammo o'zim ichim po'killab, ishqilib, elchi kimning nomidan kelganini so'ramasin-da der edim. Keyin: "Xizmatchilik - bizni ishda uzoq ketib bo'lmaydi, ketdik-ketdik..."lab shoshirdim.

U kishi noiloj ergasharkanlar, Yodgor yonimdan qolmay qo'ltigv Bimga yopishib olgan, shu tobda savol xaltasi ochilib ketib, bir nimalarni shipshib, ijikilar edi:

- Amaqu-amaqu, rostdan To'ra buvamlarnukiga ketopmizmu? O'shalarnukiga boramizmu?

- Bo'lmasa-chi, Toshkandi azimda u kishidan zo'ri bormi, tabiblarning dodaxo'jasi o'sha kishi-ku, - dedim shivirlab.

- Shahar hovlularidamukanlar? - dedi u javdirab ham to'xtab.- Tannovga ketvorgan bo'lsalar-chu?..

- Qanaqa Tannov? - men hayron qolgan edim.

- Bogv B'lari-chu?! Topolmasak, o'shaqqa chiqib boravuramizamu? Men bilaman, oborganlar menu.

- Yo'q, ogv B'ayni. U yoqlarga chiqib yurishga... vaqt qani?! Sen yaxshi niyat qil, shu yerdan topaylik, - dedim uni yana ilgari boshlab. O'zim esa, yo'l qarab, bir yangiroq markab tutish gb Hamidaman. Hamonki, kennoyimu Yodgor demaganlarni shahar aylantirib, tabib buvanikiga olib bormoqchi ekanman, Yodgor keyin ham ogv B'zidan qo'ymay gapirib yuradigan hilidan tutganim ma'qul.

Axiyri qayrilishda erka kiyikdayin yilt yangi moshin ko'rinib, men "bizni ola keting" degandek ishora berib, chiqib boraverdim. U ham "xoja"sidan qutulib chiqqani ekan, yonginamga kelib to'xtadi.

- Sevorga tashlab qo'yolasizmi?

U "marhamat" ishorasini berib, bosh silkidi:

- Faqat tezroq, hali burib olishim kerak.

Ana xolos! Sazasi o'lmasin deb, to'xtagan ekan-ku! Men uyat ichida qolgan edim. Ammo har nima bo'lganda ham "erka kiyik"ni qo'ldan chiqarib bo'lmasdi. Biz shosha-pisha chiqib, u jildi.

Mashina biz kutgandan ham a'lo edi: "Vazirlar ham o'z huzurlarini bilishmas ekan-a!"

Ammo hozir biz qaysi vazirdan kam edik?! Ayniqsa, orqa o'rindiqda gb Bir-gb Bir shamollarga yuz tutib, atrofdan ko'z uzmay borayotgan Yodgorning boshi osmonda edi. Old ko'zguna sekin zingil tashlasam... oq shoyi ro'mollariga yana ham o'ranib olgan kennoyim har qachongidan sipo tortib o'tiribdilar. Faqat Yodgortoylarining yayrab boruvidan mutaassirlanib ketyaptilar-u, shuni ham sir boy bergilari kelmaydi. Shunga-da, shukur: "Qo'ying, biz bu xil moshinlarga tushmay qo'ya qolayluk", desalar - nima qilardim? Albatta, birdamas-birda akamga so'z berib qo'ygan bo'lsalar, ko'rgan ko'zga yaxshimas. Lekin hozir... men borman, Yodgor yonimizda. Biz mahram hisobiga o'tsak kerak, axir?

Nazarimda u kishi undan beriga bu xil moshinlarga chiqmaydigandek edilar...

Ishqilib safarimiz xayrli chiqsin. Hamma umid To'ra buvadan. U kishining yengil qo'llari bilan koshki bu balo daf bo'lib, sal chiroylari ochilsa.

Asli men ularni Saidaga qo'shib, bu yoqlarga alohida optushish niyatlarim bor. Ha-ha, kechki salqin bilan shu Qizil Maydonga

optushib bir sayr qildirsam, ular ham boshqalarga o'xshab, anhor bo'ylarida bir kezishsa, ochiq muzqaymoqxonalarda o'tirib, favvoralar atrofida salqinlab, xumordan chiqishsa, deyman-u, aytishga hech jur'at qilolmay kelyapman. Qani edi, so'ng O'rda ko'prigidan tramvayga o'tirib, teatr maydoniga qaytsak-da, jindek tamaddi qilib, oqshom cho'kishi bilan teatrga olib tushsam, uning bir-biridan muhtasham zollarini aylantirib tomosha qildirsam, bir umr eslab yurishar edi.

Ammo akam qaytmagunicha... bu mumkinmikan? Rozi bo'ladilarmikan, kennoyim?..

"Erka kiyik" aytgan yerimizga eltib ulgurgan edi. Biz noiloj taxtiravondan tushib, tanish darvozaga qarab yurarkanmiz, kennoyim allaqanday tipirchilab qolgan edilar. Ming bir andeshalarga borib, xijolatga tushadilarmi-ey. O'zlariga qolsa, kirmay qo'ya qolsalar.

Shu topda u kishini hech tushuna olmasdim.

- Nimadan tortinasiz? Xeshdan a'lo, jigardan yaqin kishimiz bo'lsalar, - dedim.

- Yura qolung. Shundan-shu yoqqa kelduk-ku, - deb qistab-yalindi Yodgor ham. - Endi ko'ropsizmu? Biladilar-ku biznu?

- Biladular, o'g'blum. Lekin g'balatu-da, - deya iymanar edilar.

- Sizni bilsalar, bizni bilsalar, akamni tanisalar - nimadan xijolatlanasiz? - dedim.

U kishi ikki odim yurib, yana to'xtadilar:

- Har gal... tashvishimiznu ko'tarub kelaversak... noqulay-da, Maqsudxo'ja?...

- Odamlar bu kishiga yetolmaydi-ku...

Ammo u kishi hamon o'tinar edilar:

- Sizlar kiraturinglar...

- Oyu, tabub-tabub dedingiz, kelsak - kir- maysuz, - deb Yodgor o'tindi. - Bo'lak kimga boramuz?

Kennoyim noiloj ergashgan bo'ldilar:

- Maylu, faqat men ichkaruda o'tira turay?..

U kishining o'zlarini bunday tutishlari, To'ramga ko'rinishdan tortinishlari juda-juda g'balati ham tushunarsiz edi. Shuncha joydan kelganda nega aynib qoldilar? Nimadan tortinyaptilar? O'sha nomi xunuk narsa tufaylimi?

To'g'brri, har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi. Lekin kimgadir yorilish, suyanish kerak-ku. Yo yuraklari betlamayaptimi, avvalam panohlariga olgan, padardan ham yaqin bo'lib qolgan kishiga ko'rinishga?

Unday desam, tangritog'bluk qochgan-quvgan musofirlarning, diyorida uzoq tushganlarning tayanchiyu suyanchi kim ekan, u kishi bo'lmay?

Ko'nmay iloj qancha:

- Mayli, siz ichkarida bo'la turing, - deb Yodgor bilan darvoza bolachasini ochib, chaqirib kirib boraverdik.

Valloh, valloh, hovlida "Hayt!" deydigan odam topilmaganidan yolg'biz balx tuti ustini chumchuqlar galasi shunday bosgan, ular bearmon bozor qilib yotishar ediki, darvozaxona yonidagi hujradan taralayotgan qori bolaning ovozi-da yutib yuborgan edilar.

Ikki yelkasi ikki yonga salom bergancha past-baland tushib yurguvchi eshik og'bzasi qayoqqa gum bo'libdi, ko'rinmasdi.

Biz kirishimiz bilan gala guv ko'tarilib, hovli tinchidi-qoldiyu, ammo tut tagi bilan bitta bo'lib marvariddek oqargan mevachalari qolgan edi. Ularni bosib ham, aylanib o'tib ham bo'lmas edi.

- Vuy, hiduni, asalnu o'zi-ku! - Yodgor iltifot kutmayin ham ularni terib, og'bziga solmoqqa tushgan edi, kennoyim ostonadan o'tiboq:

- Voy, hoy, uyat-a! - deya qo'llarini yuzga bosgancha qoldilar.

- Nimasu uyat, oyu? Tut-ku bu?

- So'ramay-netmay yeb bo'ladumu, qo'y.

Shu tob yon tarafda o'rangan ayol kishi qorasi ko'rinish, u kelib kennoyim bilan ko'risha boshladiyu hujradan Yodgor tengi qori bola chiqib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, salom berdi. So'ng:

- Kelingiz, opoqdodamizga bo'lsa, jindek kutaturasiz,- deya qadimiy chorburchak g'bisht yotqizilgan yo'lkadan boshlay ketdi.

Sipogina bolaning muomalasiga mahliyo qolgan Yodgor ham tutni qo'yib, bizga ergashgan edi. To'ra buvaning oldilariga xos yumush bilan kelganimiz uchun ham qori bolaga tushuntirgan bo'ldim:

- Eshikda ulov ko'rinvdi, oldilarida odam bo'lsa, sizlarga-da kuta turaylik.

U qo'li ko'ksida, bosh silkidi:

- Yaxshu-yaxshu, joy yetarlu.

Ammo To'ramning o'sha tepadagi xos hujralari oldidan o'tar ekanmiz, uning qiya ochiq eshigidan juda tanish ovoz eshitib titrab ketdim. Ichkaridagi odam:

- Shunaqa, taqsir, o'ziz bir davosini qilmasangiz, boyaqish ich-etini yeb ado bo'lyapti. Xudo xayringizni bersin, - deb o'chinar edi. Yo tavba, Olim akammi?! Kimni aytyapti?!

O'girilgunimcha bo'lmay Yodgor yugurgilab kelib, tirsagimdan tutdi:

- Amaqu, qarang, katta amaqumlamu?

Men hayratda qolgan edim:

- Ko'chadagi moshin u kishiniki emas shekilli? - dedim shivirlab.

- Ularnukimas, lekin ovozlari... eshittizmu?

O'ziz qarang... ko'rung, - deb qistardi Yodgor.

Bizning shivir-shivirimizga tushuna olmay yondosh xona ostonasida to'xtagan qori bolaga o'girildim:

- Balki To'ram taqsirga aytib boqarsiz? Sultonmurod boturizning xeshlari kelishibdi deb, - daf'atan tilimga kelgan gapdan o'zim ham hayron qolgan edim.

Qori bola bu tarixning bir chekasini eshitgan shekilli, yalt etib yuzimga qaradi:

- Chindan-a?

- Chindan-chindan. To'ram biladilar, ziyoratlariga ilgariyam kelganmiz, - dedim shivirlab.

- Biz ko'rmay qolgan ekanmiz-da, - dedi u bolaligiga borib.

Men borib, yelkasiga qoqdim:

- Siz huv anuv boloxonada Allohning kalomini yodlab yotgan kezlariz... kelganmiz. U yerdan bir chiroyli qiroatlar taralardi, bilsangiz, - dedim qulog'bziga.

U iymanib, yerga qaradi:

- Biz emas, Orif do'stimiz tilovat qilar edi, biz uning usulini o'rganar edik, - dedi chiniga ko'chib.

Men uning aziz boshini siladim:

- O'sha usul, o'sha ovozni qaytib eshitmadim. Xudo xohlasa, o'zizdan ham bir eshitamiz. Bo'ptimi?..

U uyalib bosh silkidiyu, keyin turgan yeridan chaqqon burilib, To'ramning hujralari tomon chopdi va ostonadanoq ovoza qildi:

- Buva, bilasizmi, kim keptu?! Sultonmurod boturizzi xeshlari kelishuptu!..

Shu barobar eshik lang ochilib qadimgi oq ruh karavotda yarim yonboshlagan To'ram taqsir ko'rindilaru biz shoshib qoldik. U kishining bir chiroyli kuzalgan oppoq soqollari o'zlariga yarashib tushgan bo'lsa-da, yuzlarida allaqanday dard asari ham ko'rinib turgandek edi.

- Ie, taqsir betobmidilar? Aytmaysizlaram?!- deb yukinib kira boshladim.

U kishiga to'rdagi darcha tagidan joy qilib berishgan, Olim akam esa dasturxon tuzalgan kursi yoniga tiz bukkancha o'ttirar edi. U qori bolaning so'zidan hayratga tushib, o'girilgan joyida ko'zi menga tushdiyu:

- Ie, chindanam, mirzo-ku, xolavachchamiz-ku, - deb tura boshladi va Yodgorni ko'rib, kalovlanib qoldi.

Men uning boyagi so'zlaridan endi bir narsalarni anglagandek bo'lar edim-u, ammo bir to'xtamga kela olmasdim: nechuk hech kimga maslahat solmay kelaveribdi?..

Endi ularni mahtal qilib bo'lmasdi. Men yo'lakay Olim akam bilan so'rashib, To'ra buvaning yonlariga o'taverdim.

- Assalomu alaykum, imom buva. Bahay-bahay, biz eshitmabmiz-ku. - deb yukinib borib, tiz bukdimu qo'llarini olib o'pib, yuzlarimga surta ketdim. Ajab, sariq baxmaldan ham yumshoq, momiqdan ham mayin bu qo'l muzdek edi. Lekin shu muzdek kaftdan mushk-anbar bo'ylariga o'xshash bir bo'y taralar edi. Uni o'pib, yuzlarimga surtar ekanman, o'zimda yo'q huzur topardim, tavba. U kishi ham bundan mutaassirlanib, peshonayu qansharlarimni asta silar:

- Va alaykum, mirzo, va alaykum, - deb shivirlar, - bu tong-sahar ko'z o'ngimdan o'tuvdingiz, Siz ham, toyim ham - ko'rsatganiga shukr, sog'binganlarimni olib kelibsiz, baraka toping, Allohdan qaytsun,- der edilar.

Bunga sari men u kishining bag'brilariga singib ketgim kelar, hech jilmasam derdim. Shu orada u kishi engahlarini sal ko'tarib, nigohlari ila Yodgornimi, kimnidir izlayotganlariga ko'zim tushib qoldiyu joy bo'shatishga oshiqdim. Ana shunda u kishining bir burda yuzlariga oftob tushgandayin mamnunlik yugurmoqqa boshlagan edi.

So'ng xastahol ovozda chorlab:

- Voy, toyim-toyim. G'unan toyim, do'nan toyim. Bunaqa sog'brintirishga kelishmagan edik-ku, - deya o'pkalamoqqami, erkalamoqqa tushdilar-da, boshlarini silagancha duoga berildilar:

- Ilo-oy, yetimlarning murabbiysi O'zingsan, orqamizda qoladigan bu mahublarimizning ham umrini chiroyli qil. Ota-onalariga to'zim ber. Ularni O'zing yana qovushtirib, judoliklariga chek qo'y. Shu norasida bandang haqqi ularga ro'shnoqlik ato et.

Mijjalaridagi ikki tomchi yoshga ko'zim tushib, ichim allatovur sidirildi. O'zim chetga qarab olgan, ammo ko'z oldimdan To'ramning nurli siymolari, qu-loqlarining yumshog'briga dovur tutashib borgan qor- day oppoq soqollariyu mijjalaridagi ikki tomchi yosh nari ketmasdi. U kishi uzib-uzib, duoda davom etardilar.

- O'zingga oson. Mujohidlaringni bu dunyoyu u dunyosini chiroyli et. Shu jumladan boturlarimni ham, biznikini ham...

Keyin uning peshonasini silagancha, jim qoldilar.

Olim akamning issiq nafasi qulog'brimga urilib, o'zimga keldim.

- Taqsirni toliqtirib qo'ymay chiqa qolaylik, nima deding?

Men uning yuziga hayron termuldim.

Olim akam o'sha-o'sha shipshir edi:

- Yaqinda tig'br ostidan chiqibdilar. Boshqa gal kelarmiz.

- Mayli, - dedim noiloj.

Ammo shu on u kishi niyatimizni sezib qolib, bizni qistay ketdilar:

- O'tiringiz-o'tiringiz. Nima bo'ldi, mirzom, kelmasdan turib olibsizlar?

Mening o'rnimga ham Olim akam qo'l qovushtirib, izn so'ramoqqa boshlagan edi, u kishi bosh saraklatib zinhor ko'nmadilar:

- Yo'q-yo'q, bu azizlarimga javob yo'q. Men bularni o'zim sog'brinib yotib edim. Sizga esa, xizmat bo'lmasa, bir yumush bor.

- Jonim bilan, buyuring, - deb akam qayta tiz bukib, yana qo'l qovushtirdi.

U kishi Yodgorni bag'brilaridan bo'shatmay turib, nimagadir ishora etdilar:

- Haligi "anqoning urug'br"ni u kishimdan so'ramay qo'ya qoling. Emiga tushmay yurmasin. So'rashga arzigulik boshqa bir beg'brubor odam bor.

- Bir og'briz so'ziz, kim? - dedi akam.

- Ko'p yaxshi, pokiza odam. O'sha muftiy janoblariga noib. Mirzakarimboy avlodidan, eshitgan chiqarsiz.

- Ie, Mirzamurod akami? - dedi akam.

- Duoi salomimni yetkangsangiz, bizni diyorlarda otliqqa ham topilmaydurgan zamzamni ana shu kishidan topgaysiz, Xudo xohlasa...

"Voh, izlayotgan narsalari shu ekanmi?! Bor ekan-ku shifosi?!" derdim ichim toshib. Akam esa, cho'k tushgan holida kamiga ta'zimga egilgan ko'yi:

- Rahmat, To'ra buvajon, rahmat. Bizdan qaytmasa, Allohdan qaytsin, Alloh O'zi sizni qo'llasin, - deb yukinar edi. Bu juda-juda g'bralati edi. Iltijosi ham, iltimosi ham...

- Olib kelsangiz, keyin o'zim, albatta, dam urib bergayman. Inshaalloh, san ko'r, man ko'r bo'lib ketgay, - dedilar u kishi. Ana shunda Olim akam:

- Baraka toping, Alloh nafasizzi bundanam o'tkur etsin. O'zi sizga ham shifoi komillar bersin, - deya turib, qo'l qovushtirgancha orti bilan yurib, kovshandozga tusharkan, Yodgor ham, men ham hangu mang qolgandik: kim-kim, qarshimizda bizdan avvalroq otini qamchilagan va kennoyimga yaxshilik sog'bingan yana bir odam turar edi.

Shu tob To'ram qo'llarini ko'tarib, unga shoshmang imosini qildilar:

- Ilojini qilsangiz, idoraga o'ting. Hojimni o'sha yerdan topasiz, - deb turib, yumshoq jilmaydilar. - Shu bugun ola kelsangiz nur ustiga a'lo nur bo'lib, kelinimizni ham quruq qaytarmasdik.

Ana xolos!.. Bu karomatga nima demoq mumkin?! Yodgor ikkimiz ham yoqa ushlagancha qolgan edik. Biz mayli, kelishimiz xovflarida ma'lum bo'pti! Ammo kennoyimni qayoqdan bildilar, hech aql bovar qilmasdi.



Qora darveshning iltifoti (Hikoyachiga qorongʻu, yolgbʻiz muallifga ayon tarixlardan)

"...Hayyalal falah! Hayyalal falah!"

- Sohib, azon chaqirishadir.

U o'ziga kelib, o'g'irilib qaradi. Xizmatchi "namozga chiqqaysizmi?" degan kabi ostonada turar edi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam masjidlari tomondan esa, azonning so'nggi kalimalari yangrab kelmoqda edi: "La-a ilaha illallo-oh!"

U afsus-nadomatga tushib, yomon ezildi. So'nggi necha yil badalida u asr jamoatidan benasib qolmoqda edi. Hamma - hamma bilan, u o'zidan tinchigan bir odam... kupp-kunduzi asr jamoatiga yetisholmagan, osmon maloikalari almashinib, Tangri taolo huzuriga qaytadigan va ul Zotning "bandim ne bilan mashB-gʻul?" degan so'rogʻiga "jamoatda ibodat ila mashgʻul" javobi beriladigan kezda... u bu martaba - Alloh dargohida munosib eslanishdan benasib qolmoqda edi. Xayoli nimalarga qochdi?

Shayton yozgʻ Birmasa, jamoatga allaqachon yetib borgay edi-ku, emaklab bo'lsa-da, yetib bormoq kerak edi-ku!..

U quloq yumshoqlariga dovur lovullab, o'rnidan turarkan, yo'lakay xizmatchiga xijolatomuz nigoh tashlab:

- Qara-chi, yana kim bor ekan, jamoat savobidan bebahra qolmasduk, hali ham bo'lsa, - deya tahorat yangilashga shoshildi.

Alloh o'zi mehribon, qo'shni do'kon xizmatchisi ham do'konni yopib ulgurmagan ekan, u ham kirib, takbir tushirdilar.

Paygʻ Bambar masjidlariga yetolmagan bo'lsalar-da, Alloh oldidagi xijolatpazlikdan jindek qutulgan edilar.

Ammo unga bugun nima bo'ldiki, sal qolsa asr sharofatidan bebahra qoladi ekan. Chindan shayton yozgʻ Birdimi yoxud diyordan kelgan maktub parishon etdimi? Bir bo'lsa o'sha faromush etdiyov.

Ular asrni qiyomiga yetkazib o'qib, duolar ila o'rnilaridan qo'zgbʻ Bolisharkan, u shukrona lozimligini sezdi:

- O'ziga shukr, Alloh sizlarni yetkazib, jamoat savobiga dohil etdi. Endi hech qachon, hech birimizni bu baxtdan benasib etmasin, omin, - dedi. Sheriklari-da, bundan mutaassirlanib bosh silkidilar.

Dunyo keza-keza shu tabarruk zaminda qo'nim topmish bu uzoq yurtlik musofir hech kutilmaganda bugun so'lgʻ Bin va faromush

ko'rinar edi. O'sha uzoq diyorga jo'natmish elchilari qaytib, necha kungacha ularni yonidan jildirmay suhbatlar qurgan, keltirgan

mujdalaridan boshi ko'kka yetib, vatandoshlarini ziyofatlarga chorlab, suyunchiliklarini baham ko'rgan bo'lsa-da, bugun yana

xomush edi. Nima bo'пти ekan? Hatto Peshovardan atay tashrif buyurgan vatandoshini kecha yeru ko'kka ishonmay, yonidan bir

qadam jildirmay mehmonnavozlik qilib o'tirib edi. U Makkaga o'tib ketdiyu bu yana so'ndi-qoldi. Bogʻ Bdagagi qo'sh xurmo

o'rtasiga tuproq to'ktirib yasatgan supasida, ha, o'sha qo'shqavat ko'rpachalar yozdirib vatandoshlarini ziyofatu suhbatga

chorlaydigan joyda yolgbʻ Biz o'zi o'sha do'sti-yoroni ketgan taraf - qiblagaga termulib o'ltirar edi. Yonidagi qo'sha-qo'sha par

yostiqlardan birontasini tirsagi tagiga tortib yonboshlasa ekan, xotirjam desang, bir xayolga toldi-da, desang.

Xuddi o'sha Peshovardan daragi chiqqan do'sti qaytib ko'rinmaguncha shunday o'tiraverishga qasam ichgan kabi qimirlamas,

chordona qurib o'tirgani-o'tirgan edi. Xayoldan tolmagani uning!

Soqol-murtiga oq oralab, kelbatli, fayzli kishilar qatoriga kira boshlagan kezda nimani qo'msab qoldi? O'sha qirchillama yigit

yoshida tark etgan joylarinimi, yetisholmagan qon-qardoshlarinimi? Ularni demasa, nimadan kamchiligi bor? Bir kam dunyo deb

shuni aytar ekanlar-da! Bo'lmasa, bu munavvar zamin, qiyomatga qadar qut-baraka yogʻ Btilgan bu shaharga kimlar yetdi, kimlar

yetolmadi? Bu yonda xotamun nabiy masjidlari, u yoqda Uxud togʻ Btlari, Badr vodiysi, ansoru muhojir sahobalar yotgan Baq'i

qabristoni, yana qanchadan-qancha Paygʻ Bambar qadamjolari - hamma-hammasidan saodat asrining nafasi kelib turibdi. Erta

tonglarda tanga rohat Madina shabadalari esib, Nabiy masjidlari tarafdan nainki azon sadolarini, o'sha saodat asridan qolgan ifor

hidlarini ham olib kelayotgandek, taratib o'tayotgandek bo'laveradi. Ular qiyomatga qadar tuganmasligi, taralib turaverishi tayin.

U yoqda esa, qiblagoh - Ka'batulloh turibdi, sogʻ Binsang yetgudek joyda. Shu dindagi bir insonga bundan ortiq yana nima kerak?

! Har yili umra yo haj qilmoq mumkin. Ka'batullohni tavof etmoq, paygʻ Bambarlar, avliyolar qadamlari yetgan Minolarga

bormoq, Arofotda turmoq, Muzdalifada tunab, qonib-qonib ibodatlar qilmoq mumkin. Yolgbʻ Biz Allohga suyanib qolgan bandaga

bundan ortiq nima kerak? Ko'nglining yana qaeerida kemtik qopti ekan? Shuncha dunyo kezib, shu yerlarga yetib ham yana qanday

armoni bor uning?

Xizmatkorlar uning yoniga yo'lay olmasdilar, bir qur bo'lsa-da, ko'ngil so'ray olmasdilar. Axiyri shivir-shivir bilan xonum bekaga

ma'lum qilishni afzal topdilar. Shunaqa damlarda Margʻ Btu xonim yoniga Fotma-Zuhra qizlarini olib, otalari qarshisiga salomga

chiqishadiyu Bahriddinxo'ja o'z holiga qaytadi. Undan beriga shu o'tirishi o'tirish. Faqat azon bilan namozga chorlab, o'ziga

keltirmoq mumkin.

Margʻ Btuxonim o'sha Qashqardan kelinlik sepiga qo'shib berilgan olma gulli choynak-piyolalarga choy damlab chiqib, hojasiga

tavozula boqarkan:

- Adasi, o'zimizni Toshkancha qora choy damlab edim, iching. Zora gʻ Bborizzi olsa,- dedi ra'yiga qarab.

- G'uborni olib, ko'ngilni yozadigan narsaga nima yetsin. Valloh-valloh. Bu chinnilarda kechagindayoq choy damlab chiqarmoq

lozim edi, - dedi Bahriddinxo'ja ularni ko'rgandayoq bahri-dili ochilib. (Hazilmi, bular uzilgan nikoh rishtalarini ulagan vallomat

oshnasidan sovgʻ Ba tariqasida kelgan-ku. Nainki yolgbʻ Biz o'zi, manavi kelinbonu bilan kelgan! Uning daragini eshitiboq,

nikohidagi ayolini sovgʻ Ba-salomlar bilan jo'natgan kishini shu chinnilarda siylamoq lozim emasmidi?!.)

Margʻ Btixonning ko'zlari yer suzdi:

- Uyaldim, adasi, - deb qo'ydi sekin. - Keyin o'ziz aytdiz, u kishining ko'ngli yarimtamush.

Bahriddinxo'ja choy xo'plab, bosh irgʻ Badi:

- Sen haqsan. Yarimtalikka yarimta. Ko'z ochib ko'rgani mana qancha yilki yolgbʻ Biz Yodgori bilan sarhad ortida. Na xabar oldira

oladi, na mujda keladi, - u yana boyagi hardamxayol holiga qayta boshlagan edi, ayoli chalgbʻ Bitmoqqa jazm etdi.

- Nima, Peshovarda joy-do'konlari bormikan, bunchalik bogʻ Btanib qolmasalar?

- Yo'q, uni u yerda tutib turgan - boshqa narsa. Bilasan, Sultonmurod joy-do'konlardan, bu dunyoning xoyu havaslaridan balandroq

turadi. U yerda jamiyat ochgan. Bizga o'xshagan musofirlarning boshini qovushtiraman deb yuribdi shu diyordalarda ham. -

Bahriddinxo'ja to'liqib, entikib qo'ydi, - O'zi bu ahvolda... yana kimlarning gʻ Bhamini yeydi! Birovga en bo'lguncha o'zingga yeng

bo'l, deganlari bekor ekan!

- Kecha kelganlarida elchingiz olakelgan xat-xabarlardan boshlari ko'kka yetgandir?..

- Qayoqda! - dedi Bahriddinxo'ja bosh to'lgʻ Btab, - bunday ta'sir etishini bilsam, bermay ham qo'ya qolardim maktubni.

Bonu beixtiyor qo'lini yuziga bosdi:

- Voy, bilmay-ko'rmay, berib qo'yibsizmi? Kimdan ekan?

- O'sha o'zingiz bilgan mirzo yigit - Salom xolamizning bitikchi o'gʻ Bbillaridan ekan. Fahmimcha, achchiq-tiziqroq xat bitgan

ko'rinadi. Nega bunday yozibdir, tushunolmadim.

- Qanday ko'zlari qiyibdi?

- Bilmasam, Bonu. Ayasa bo'lardi, oson tutgan ko'rinadir bunga! - Hojasi piyolani uzatib ayoli yana choy quydi:

- O'zingiz yupatib, tushuntirsangiz bo'larmidi. Xaramga o'tishlari shunchalik zarur ekanmi?

- Bilasan, Oltinxon to'ram hozir o'sha yerdalar, dars berayaptilar. Oldilariga maslahatga ketdi, - dedi hojasi va qo'shdi. - U kishining ham qo'llaridan nima kelardi. Qolaversa, biz vatanjudolar bir bo'lganda ham nima qila olamiz, Alloh O'zi kushoyish bermasa?

- Shunday-ku, adasi, astoydil yig'iblasa Alloh so'qir ko'zga-da yosh berar deydilar, - dedi bonu yalinch ohangida. - Bizga shuncha yaxshiliklar sog'ibingan kishiga qolganda nahot biron tadbir topilmasa?

Bahriddinxo'ja bir to'lg'ibhanib, xontaxta ustiga ko'kragini bergan edi, dardining zo'ridanmi, zalvoridanmi xontaxta qisirlab ketdi:

- Shu ikki kun ichida kallam tors yorilayozdi. Qani endi epaqali bir yo'l kelsa. O'sha dastimiz yet-maydimi deb qo'rqaman.

Qaytarolmaymiz shekilli yaxshiligini, qiyomatga qoladi shekilli, Bonu. Yozug'ib... shundaymikan. - Hojasining ko'zlariga qalqqan nam yiltirab ketgandek, ovozi ham o'zgarib chiqmoqda edi.

- Qaytishda kiradilarmikan?

- Kirgil, meni tinchlantirib ketgil, ko'nglim alag'ibda o'tirmayin, dedim. Yana bilmadim. Qiziq ustida nojo'ya bir ish qilib qo'ymasa edi, deb qo'rqaman, Bonu.

- Yo'g'ib-e, adasi, Xudo asrasin. Sarhad oshib borishdan ham toymaydilar, deb o'ylaysizmi?

- O'ziga qolsa, dordan qaytmaydi. Shunaqa fe'li ham yo'q emas. Ammo To'ramdek xudojo'y odam xabar topsalar qo'ymasalar kerak.

- O'ziz qaytara qolmabsiz-da, adasi?

Hojasi nochor jilmaydi. Bu ichi to'kilib borayotgan odamning zo'rma-zo'raki kulimsishiga o'xshab ketardi:

- Menmi, qani qanotim bo'lsa, uning o'rniga ham o'zim uchib borib, bir yo'lini qilgan bo'lardim-ku. O'shaning evini topolmayapman-da, Bonu...

Ular jim qoldilar. Kim dasturxon popugini g'ibjimlaganicha, kim bo'shagan chinni piyolani changallab, uni keti ila xontaxta ustini ezg'ibtilaganicha. Ammo har ikkisining ko'zlarida yosh g'ibtil-g'ibtil aylanar-u, oqib ketolmas edi.

Shunda Xudoning ularga rahmi keldimi, kushoyishini O'zi yetkazib, supadan besh qadam narida xizmatkor yo'talindi:

- Hojam, sizni bir kishi yo'qlaydir.

- Kim, deding? - dedi Bahriddinxo'ja hayratga tushib.

- Zanjimisan zanj bir qora darvesh... kirishga izn so'raydir.

- Yo'g'ib-e, o'sha, alp kelbatli kinochi-ya? Uni shu topda qanday shamol uchiribdir?

- Bilmasam.

- Ayt, kiraversin, Shundan shu yoqqa kelib, nega tortinadir, aziz mehmonimiz?

Eshik og'ibasi uning qaysibir so'ziga (balki "aziz mehmonimiz" gadir) iljayinqirab yelka qisdi. Ammo to'g'ibrisini yashirmadi:

- Toza shaldir-shuldir - bir qop yong'ibhoq ekan, mehmoningiz. Tili tanglayiga yopishib, suyunchi so'raydir nuqul.

- Suyunchi?

- Ha-da. Siz bilan qaysi oftobshuvoqda qatq yalashgan ekan, nuqul "hojamiz qaerdalar, hojamiz suyunchini cho'zaversinlar, ataganlarini chiqaraversinlar", deydi.

"Shig'ibab suyunchi so'raydir?" Shoshma, o'sha xayrli ishi Tangrim azza va jallaga xush kelib, shu dunyodayoq izzat-ikrom topibdikanmi?

- Shoshma, o'zim, - deya Bahriddinxo'ja supadan tusha boshladi.

Ammo u orqasi ochiq kavushini oyog'ibiga ilib ulguradi. Darvozaning bolacha eshigi ochilib, burungi zamon gladiatorlaridan qolishmaydigan gavdali odamning avval mushtdek qop-qora boshi (soch degani jingalak-jingalik bo'lib, kallaga yopishib ketgan - jingirtob edi), so'ng unga necha barobar katta yelkasi ko'rindi. O'zi esa, bolacha eshikdan ikki engashib o'tmoqda, oyog'ibini olaman desa, gavdasi sig'ibmas, gavdasini o'tkazaman desa, oyog'ibini ololmas edi. Tanidi. U o'sha Najoshiy avlodi, sahobalaru Payg'ibambarimizga muhabbati tushib, shu muhabbatini kinoga ko'chirmoqchi bo'lgan Qora darvesh edi. O'sha dinu diyonatini asramoq uchun Xabashistonni qora tortib borgan birinchi musulmonlarning alamlari kunlariyu Alloh rozi bo'ladigan mardona safarlarini, keyingi karamli hayotlarini alohida bir muhabbat bilan dunyo xalqlariga hikoya etmoqchi bo'lgan zanj kinochi edi. U eshikdan ikki bukilib o'tishi ila qanday bir tor yerdan o'ta olganiga qarab ham qo'ymayin qaddini g'ibhoz tutib, supa chetidan tura boshlagan Bahriddinxo'ja tomon intildi:

- Oh, hojam! Hotami Toy birodarim! Bizni tabriklang! Mubarakbod eting! Alloh yo'lidagi ehsoningiz O'ziga xush kelib, bizga nusrat ato etdi. Eshityapsizmi, hojam, biz yutdik! Suyunchini chiqaravering, ataganingizni keltiravering.

Bahriddinxo'ja dabdurustdan hech narsa tushunmadi. Qanday nusrat? Kinosi olib bo'linib, qo'yila boshlagan, hatto telekanallar sotib olgan edi shekilli? Yana qanday nusrat haqida gapiradir?

U jindek hayiqdi. Chindan ham qora ayiqdek lapanglab quchoq ochib kelayotgan bu qora davangirning quchoq'iga tushib qolishdan kishi tuyqus cho'chib ketuvi mumkin edi. Lekin u begonamas, keyingi yillarda o'zi suyib orttirgan birodarlaridan edi. Qoraning qorasi, ko'mirga aylanib ketgan bir inson bo'lsa-da, yaltiragan qo'l-oyoqlari, yuz-boshlari, tars-tars yorilib ketgan tovonlariga qarab turib, qaysi balchiqdan chiqqan deysiz. (Shunaqa xabash!) Ammo iymoni shunchalar butun, shunchalar pokizaki, buni o'ylaganda bag'ibriga singib ketging keladi! Unday birodarni qaytib top-chi!

- Xudo har bir mo'minni sochqi sochadigan kunlarga yetkazsin! Suyunchi sizdan aylansun! - dedi Bahriddinxo'ja xizmatkorlariga mehmon yelkasiga to'n yopmoq ishorasini berib.

Bungacha Qora darvesh unga yetib kelib ulgurgan, qalampirunchiq hididan sal bo'lakcharoq, gurkiraganroq bir ifor bo'ylar taratib bag'ibriga olgan, u bo'ylar yuzini yuzga bosganda quloqlari takkinasidan kelarmi, qora eti yaltiragan yag'ibrinlaridan kelarmi, bilib bo'lmas, ammo juma namoziga otlangan mo'mindan taralgan bo'ylardan kam emasdi.

- Oh, hojam, bilsangiz edi, men sizga qanday quvonchlu xabarlar keltirganimni. Yetti uxlab tushimizga kirmagan iltifotlarga erishib turibmiz. Bu hammasi siz tufayli, ehsoningiz tufaylidir. Ungacha Allohga xush keladigan bir nima yaratmakka bizga yo'l bo'lsin edi.

Bahriddinxo'ja xizmatkorlar oldida xijolatlandi:

- Nima topgan bo'lsangiz Allohdan. U fiysabililloh edi...

- Yo'q, siz qanday xabar deb so'rang. Qanday suyunchilik deb so'rang, - u ni bag'ibriga bosib to'ymas edi. - So'rang,

ogʻibingizga siqqanini so'rang. Men siz uchun jonimni berishga-da tayyorman. Biz o'shal jannatmakon diyoringizga ketyapmiz. Eshityapsizmi, sizning ota yurtigingizga! O'shal siz qo'llab yuborgan kino Allohga xush kelib, bizga ko'p izzatlar keltirdi. Sizning yurtga yo'l ochdi. Xalqaro festivalga ketyapman. Tilang tilagingizni - endi uzmasak, qachon uzamiz yaxshiligingizni?! Bahriddinxo'ja o'z diyoringning nomini eshitib, yuraklari to'kilib tushayozdi. U ma'voni ko'rish, bo'ylarini qayta bo'ylab, suvlaridan hovuchlab-hovuchlab ichish mumkin ekanmi? Qo'yarkanlarmi shunga? Nimalar deydi? Kimni aytyapti? Nahot bir umrlik armon shu qora qulning iltifoti bilan abas topsa? Shu mumkin ekanmi? Ularga shu kinochining bir ogʻibiz so'zi bilan diyorga qaytishga ruxsat beradilar ekanmi? Sho'rolar-a, o'sha yo'qsillar hukumati-ya? Yo biron narsani chalkash eshitdimi? Balki yo'l oldidan tila tilagingni deb iltifot ko'rsatib kelgandir? Shunisi to'gʻbriroq, haqiqatga yaqinroq. Shunga ham shukr, aytmasa, indamay jo'nab yuborsa, nima deya olardi?!

- Qanday anjuman dedingiz? Sho'rolar ham o'z eshiklarini ochadilar ekanmi? Temir qo'rgʻbton qilib tashlagan, deb eshitardik-ku? - deya oldi Bahriddinxo'ja, birodari u yetib bo'lmas diyorga ketayotganidan ko'ngli allatovur buzilib kelib. Shunaqa: kimga u diyorning yo'llari taqa-taq berk, (Xudo yorlaqasagina tushlarida ko'rmoq mumkin!), kimga esa, "sho'rolarning sharofatini" ko'z-ko'z etib, anjumanlar tashkil etishadi, festivallar o'tkazishadi. Birodarimiz ham o'sha ro'yxatga tushibdimi?

Mayli, biz uchunam ko'rishsin, jannat bogʻblarida kezishsin, kavsar suvlaridan ichishsin! Faqat zar qogʻbtozga o'ralgan yolgbtonlariga uchishmasa, bas! Iymonlaridan ajrab qaytishmasa, bas! Mazlum hukmida qolgan butun bir elni qandayin ham bular baxtiyor ekan deb yurishmasa, bas!

- Hojam, tilang tilagingizni. Bizga sizning diyorgalarga borish nasib etib turibdi. Omonat salomlaringiz, topshiriqlaringiz bo'lsa ayting! O'zim elchingiz bo'lay! U yaxshiliklaringizni qaytaray men ham. Nima istaysiz? Mana, men xizmatizdaman! Tortinmang, hojam.

Oh, bu ko'ngil nimalarni istamas?! Xohlamas?! Voh-voh-voh, bir ogʻibiz so'z shunchalar shirin bo'larmi? Jonu jahoningni o'rtab yuborarmi? Uning so'nggi so'zi yuragingingiz allaqaysi ingichka joylariga yetib borib, tegib ketgan edi: vujudiga yoqimli bir titroq yugurgan, o'zi erib-bitib borar edi! Qarilikmi, nima yo bir umrlik sogʻbinch eltdimi? Bahriddinxo'ja tuyqus bo'shashib, peshonasini mehmonning yelkalariga tirab qoldi! Voh, Alloh shu kunlarni ravo ko'rib turibdi ekanmi, yetkazib turibdi ekanmi?!

- Hov, umrim shomida topgan aziz birodarim, o'zingma qolsa, men nimalarni istamasdim?!

Ichikkan ko'ngli bu pallada o'zi tugʻbilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan u diyorning suvratlarini bir bor bo'lsa-da, ko'rmoqqa zor-zor yigʻbilar, shunda ham kuygan dili "mayli, men chidayman, nima karomating bo'lsa, nima iltifoting bo'lsa, mening darbadar bir birodarim bor, o'shanga qil bu olamning yaxshiligini", der edi. O'zi qolib, unga ilinardi.

Taqisirlar jindek urzlidurlarmi?

Bugun saboq kuni edi.

Olim ertalabdan qaymoq bozoriga tushdiyu ikkita issiq non bilan bir shisha bonkachada qaymoq olib, To'ramning ziyoratlariga shoshdi.

U bu tabarruk xonadondan tunganmas gbʻazna topib olgandek edi. G'azna nimasi, To'ramning o'zlari yuradigan bir tirik xazina ekanlar. Har so'zlari oltinga teng, turgan-bitgani hikmat. Saboqlari-chi, chan-qoq qalbga chippa yopishyapti. Shu vaqtgacha qayoqlarda yurgan ekan? Ilgariroq kelsa, bo'lmasmi ekan?! Intiqishi shundan: har kuni xizmatlarida tursam, nazarlariga tushib, duolarini ola qolsam, deydi-yu, duo olish o'zimi? Jilla qursa, u tarixlardan biron nima ilinsalar ham jon qulogʻbini tutib, chanqogʻbini qondirgay-ku.

Hammassidan ham burun u harf taniyotganidan, "bismillahir rohmanir rohiym1"ni o'zi tatalib o'qiy boshlaganidan boshi osmonda edi. To'ram sakkiz darsdan so'ng Kalomullohning mayda suralarini o'zi o'qiydigan etib, Qur'onga tushirar emishlar. U shunga ichi tushib yotibdi. Harf tanib olsayoq Sutchi Qayragʻbtochli yolgbiz mozordan topgan kitoblarni so'rab olib kelardi.

Padaribuzrukvor o'qigan tabarruk kitoblarni o'zi o'qiy olsa qani edi, yigʻbilib-yigʻbilib xatm etsa qani edi! Nechuk o'qimasin?!

Otaning nomai a'moliga savob yetkazuvchi narsa shu bo'ladiyu o'qimaydimi?! Xatm qilmaydimi?!

To'ram shu kalitni topib beradilaru u zotning huzurlariga chopmasinmi, xizmatlarini qilib, nazarlariga tushmasinmi? Bo'lak niyati yo'q. Bo'lak niyatlarini yarim yo'lga tashlab kelgan. Alloh shohid, sof niyat bilan kelgan.

Ammo xosxonaga nonushta hozirlab, To'ramning qo'llariga suv quyib ulgurib edi hamki, u kishini allaqanday ulugʻb mehmon yo'qlab kelganini ma'lum qilishdi.

Ustozga ixtimat bilan xizmat etib, birga nonushta etmoq umidida yelib-yugurgan Olimning choyiga quvalashgan pashsha tushgandek bo'lgan edi. Nachora, Allohning xohlashi!

Hovliga banoras to'nda, oq salalli ulugʻb mehmonb' muftiy janoblari ziyoratga kirib kelmoqda edilar.

Olim ularning oldida o'zini ortiqcha sezib, tashb-qariga chiqa boshlagan edi, To'ram chaqirib qoldilar:

- Eshon bola, bu kishimni tanimadiz, chogʻbi?

Olim bir daqiqa taraddudlandi. Mehmonning yuzida kamdan-kam odamlarda uchraydigan ichdan balquvchi bir nur ko'rib to'xtadi. Ulugʻb mehmon ham yarim hayrat ichra o'girilgan edi. Salomiga alik oldi:

- Vaalaykum assalom, keling, o'gʻblim.

- Shunday, togʻb-togʻb bilan ko'rishmasa-da, odam odam bilan topishgay ekan, - dedilar To'ram mehmonni to'rga o'tishga undab.

- Albatta, Allohning izni-marhamati ila. Bu yigit ota qadrningiz rahmatli Abdurahim eshon pochchamning kenjalari bo'ladirlar.

- Yo rabbiy! - dedi mehmon to'lqinlanib, - O'shal... muftiylikka birinchi haqdor zotni-ya? Alloh o'z rahmatiga olgan bo'lsin ul rahmatullohi alayhni!

- Ha, muftiylikdan Tumanli yurtni afzal ko'rgan zot - Eshon pochchamning kenjalari.

Olim ko'p odamlar ogʻibizidan eshitgan gaplarni eslab, (muftiylikka chaqirishganda u kishi uzr aytib, "Qur'onning zer-zabari ko'p, biz ulardan chiqolmaymizmi, deb qo'rqadirmiz", degan ekanlar) ko'zi namlandi. Bular qolgan tarixlarni ham bilishsa edi! Shu asno tomogʻbiga achchiq bir narsa tiqilib keldi.

Shu topda ulugʻb mehmon u tomon ikki odim tashlab, quchogʻbini ochib ulgurgan edi.

- Keling, ota qadrton, bir xo'shlashib, u zotlarning ruhi-poklarini shod etib qo'yayluk.

U qo'li ko'ksida, yelka tutib borib, iymanibgina taqisrining bagʻbriiga singidi. Singidiyu judayam begona emas ekanmiz-ku, deb o'yladi.

Hazrat uning kuraklarini silab, yuzini yuziga bosdi va ikki kiftidan mahkam tutib, silkib qo'ydi:

- Mana, tanishib ham oldik taqisrim tufayli. Endi qiyomatga qadar birodarmiz. Unutmaysiz-a? Kerak bo'lganda tortinmay

boraverasiz, - dedi.

So'nggi so'zi unchalik yoqinqiramagan bo'lsa-da, ko'ngli uchun ham Olim bosh silkidi.

To'ram iltifot qildilar:

- Qani, marhamat, dasturxon muntazir bo'lmasin. Alloh bugun birga-birga nonushta qilmoqni nasib etgan ekan. Shukrini bajo qilayluk.

O'tirdilar.

Qo'llarini duoga ochib, bir-birlariga qarashdilar. Ulugʻ B mehmon:

- O'zlaridan bo'lsin, - deb qistadi.

Hali judayam sogʻ B hayib ketmaganlari rang-ro'ylaridan sezilib turgan, ammo yangi kuzalgan soqollariyu bir burda yuzlaridan nur yogʻ Bilib turgan jikkak qariya B To'ram duo qildilar:

- Albatta, har narsa niyatga bogʻ Bliq. Shu kun, shu soatda yaxshi niyat-la kulbamiz ostonasin bosib kelibsiz, ya qodir Alloh o'zing chevarsan, birodarlarimizni niyatlariga yetkazgaysan. Shular qatori biz ojiz bandangni ham marhamatlaringdan darigʻ B tutmagaysan, omin, Allohu akbar.

Bu shirin duoga ilm talabidagi Olim ham, ziyorat niyatida qadam ranjida etgan manavi ulugʻ B mehmon ham qo'shilib, sidqidil yuzlariga fotiha tortdilar.

Shundan so'nggina mehmon hol so'rashga tushgan edi:

- Qalaysiz, taqsir? Bir oz muolajalar olgan emishsiz. Jarrohlar tigʻ B ham tekkizgan emishlar. Safarda edik, xabar ololmadik.

Xatar o'tib, hammasi orqada qolgan bo'lsin, ilohim. Ko'rinishlaringiz yaxshi, Allohim shifosini bersin.

To'ram rahmat ma'nosida bosh silkidilar, kamiga qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, ta'zim qildilar:

- O'ziga shukr, dardni chekintirib, bandachiligimizni bardavom ettirishga imkon berganiga shukr.

- Ko'rgan-kechirganingiz shu bo'lsin. Qaytib qiynamasin, sizday suygan bandasini, - dedi hazrat.

- Kim suyuqli - yolgʻ B biz O'ziga ayon. Biz umid tutamiz, xolos. O'zining jamoliga mushtoqligimiz qay darajada ba'zan bilib, ba'zan bilmay...

- Yo'gʻ B-e, taqsirim, sizki shunday desangiz...

Ularning nainki so'rashlari, hatto manzirlari ham bir bo'lakcha, havas qilsa arzigulik edi. Olim some o'tirib ham erib borardi: ana mo'minligu, ana halimlik! Muomalayu manziratni ulardan o'rganmoq kerak ekan!

Bu orada choy kiritilib, Olim chor-nochor taqsirlarga xizmat eta boshladi.

Avval choy uzatib, so'ng non ushatdi. Dovdiraganidan hammasini aralashtirib yubordi. Qarasa, qaymoq hamon idishda turibdi.

Piyolalarga quymoqchi edi, xaytovur, To'ram yo'lga soldilar:

- Yaxshisi, chinniga agʻ Bdaring, non to'gʻ B raymiz. Ivib magʻ B biz-magʻ B biziga singsa, ana uning savobiga nima yetsin.

Ulugʻ B mehmon ham u kishini quvvatladi:

- Ha, ana shunday: qari bilganini pari bilmas. So'ng bu qaymoqxo'rlikni allazamongacha eslab yuramiz.

- Shunday-shunday, mubolagʻ Basi yo'q buning, - deb kulishdilar.

U qaymoqqa non to'gʻ B rab bo'lgunicha, Ro'zi oxun (qachon kelib, jiz-bizga unnabdi ekan!) chinnida yakkaovoradan shirchoy kiritdi. Taqsirlar alqab-alqab icha boshladilar. Ammo-lekin qanday tayyorlanibdi, Toshkanni shirchoyidan o'tib tushgan, bu dunyoning taomi bo'lmagan edi.

So'ng taqsirlar dasturxondan totinib, choy xo'plagancha o'tgan-ketganlarni eslashga berildilar-u, Olim chiqib, ularni holi qoldirarini ham, o'tirib choy quyarinini ham bilmay qoldi. Turay desa, hali choyni bo'ldi qilishganicha yo'q, turmay desa, ulamoyu ustozlar oldida o'tirish o'ngʻ Baysiz.

Bir marta choyni yangilab ham kirdi, ammo qaymoqqa to'gʻ B ralgan non bo'ka qolmas, mehmon ham mud-daoga ko'cholmayotir edi.

- Darvoqe, Xijoz safaridan qaytgan emishsiz. Ziyoratlari dargohida qabul bo'lsin. Nabiyi Akram sollallohu alayhi vasallam yurtlarida ne yangiliklar? Saodat asridagidek ibodatga qaytishga urinishlar tinchigudekmi, yo hali ham o'sha-o'sha? - dedilar

To'ram muftiyning yuzlariga sinchkov termulib.

Muftiy issiq ham mayin jilmaydi:

- U asrni qaytib topmak maholligin o'zlari ham biladilar. Biladilaru... urinadilar-da.

To'ram ham jilmaydilar:

- Niyat u ibodat halovatini topmoq bo'lsa, topardilar-a...

- Unday emas, deb o'ylagaysizmi, taqsirim?

- Shundaymi, deb qo'rqaman. Agar niyat xolis bo'lsa, u diyorni eng dorilomon bir diyorga aylantirmasmi edilar?! Qolaversa, Xijoz yo'llarini har muslim uchun ochdirib qo'ymasmi edilar? Biz esimizni tanibmizki, yo'llar berk. Tagʻ B inam chor zamonida hayo bor ekan.

Muftiy domla so'chib tushgan kabi bir sergak tortdilaru yana o'zlarini o'nglab:

- O'tkazardi... deysizmi? - dedilar beozor.

- Bo'lmasa-chi. U o'risda insof bor edi. Haj desa, yo'lni to'smasdi. - Keyin mehmonning betiga ma'noli qarab, qo'shib qo'yidilar. -

Mana, bizam dunyoning To'qmoq degan bir "ovloq" manzilidan borganmiz akamiz rahmatli ila.

- Ularning nazarida ovloq sanalgan-da, bilsalar-ku... - dedi muftiy jilmayib.

- Harqalay ulamoni ulamo sanar edi, ilmi hurmatidan. Insofi shu-da, - deb qo'yidilar To'ram.

Muftiy janoblari yalt etib qaradilaru dillariga kelganini aytmakka andeshami, nimadir yo'l bermadi. Olimning nazdida uning dilida uygʻ B onib bo'lgan ilon shakkok shayton qiyofasiga kirib, tilining uchiga zahardan-zahar ne bir fikrlar quyib ulgurgan edi-yu,

To'ramning salobatlarimi, nimadir tilidagisini aytishga yo'l bermas edi. Balki ular ko'rgan islomiy tarbiya bunga yo'l qo'ymayotgandir. Aksincha, yuziga halimlik nuri taralib kelmoqda edi.

- Unda anuv so'zlar-chi, taqsirim? - deya oldi hayrat aralash.

- Qaysi, ming chigʻ B iriqdan o'tkazib... so'ng ruxsat etishlarimi?

- O'lmang, bizlar bot-bot eshitganimiz bilan, sizlar ko'rgansiz, - dedi muftiy, ammo javobiga qiziqqanicha bor edi.

- Davlatchilik hamma yerda, hamma zamonlarda bo'lgan, - dedilar To'ram orqalaridagi duxoba yostiqqa bir oz suyanibgina.

Toliqdilarimi, choydan lablarini xo'llab, piyolani qaytarib joyiga qo'yidilar. Lekin shashtlari boyagi-boyagidek edi, o'shanday davom etdilar. - Ammo chor davrining to'ralari boshqacharoq edi, umumiy siyosatdan kelib chiqib, dushmaniga ham hamiyat qila

bilardi.

- Hamiyat? - deb hayrat-la boqdi muftiy domla. Ular bu masalada chuqur ketishayotganini anglab qo'rqib ketgandek ko'rinardi u. To'ram uning holidan... miyig' b'larida kulimsib, dedilar:

- Vallomatroq desa, balki to'g' b'ri bo'lar.

Bu gap tomdan tarasha tushgandek bo'lib, muftiy o'zi sezmagani holda o'tirgan yerida bir xavfni tuygandek qotib qolgan edi. To'ram vaziyatni yumshatish uchun, qo'l ishorasi ila iltifot qilgan bo'ldilar:

- Qani, choyga qarasinlar.

- Rahmat, - deya u kishi ham iltifotni qabul qildi-yu, lekin hali o'ziga kelmagani va To'ramning og' b'zilarini poylayotgani ayon edi.

- Bilsangiz, tarixda misollar ko'p bunga.

- Siz Xudoyorxon tarixinimi, nimani nazarda tutmoqdasiz? - deb yubordi muftiy bir oz shoshilib.

- Yo'q, uning safari o'zida shijoat topib, Allohga tavakkul qilgan bir mo'minning hijrati bilan barobar. Men imom Shomil hazratlarini aytmoqchi edim. Ular o'shanday ashaddiy bir dushmanlari - g' b'azovotchi mujohidga ham yon berib, vallomatlik qilganlar. Uning so'nggi iltimosini qondirganlarini eslang. Biz o'sha safarimizda imom tarixlaridan hali bexabar bir yosh o'smir edik. Keyin qancha armon qilganmiz Badr qahramonlari qatori ul zot rahmatullohi alayhning Baq'idagi qabrlarini ziyorat etmaganimizga.

- Alloh rahmat qilsin barchalarini. Lekin qanday?.. - deb yubordi muftiy kutilmaganda.

U chindan ham imom tarixini bilmasligini shu savoli ila ayon etib qo'ygan, endi jindek xijolatga tushib, qo'lidagi bo'sh piyolani o'ynar edi. Axiyri uni Olimga uzatib, To'ramga qaradi:

- Uzi, siz imom Xamzatning shogirdlari imom Shomilni aytasizmi, yo...

- O'sha ikkinchi imomni aytaman, tutunlikka qayt b'moqdan, loshi Payg' b'ambar alayhissalom yurtlarida qolmog' b'ini avlo ko'rgan buyuk mujohidni. Ul zot Nabiy sollallohu alayhi vasallam masjidlarida qolib, Allohdan yolg' b'iz bir narsani - loشلari o'shal yurtda qolmog' b'ini surunkasiga uch kun namozda so'rgan ekanlar.

To'ram taqdir bu voqealarni so'zlar ekanlar, o'zlari shu tarixlardan ruh olib, bir necha o'n yillar avvalgi chin To'ramga aylanib bormoqda edilar. Ovozlar ham, so'zlarining zalvori ham bo'lakcha edi. Muftiy hazratlari esa, u kishiga tan bermoqdan o'zga ilojlari yo'q bir alpozda ham havaslanib, ham kemtik bir hislar qorishig' b'ida o'tirar edilar. Niyatlari esa, tashriflarining boisini aytmoq bo'lsa-da, buning mavridini bilolmay, - qariyaning armoniga hamohang tebranar edilar.

Nihoyat ular bu mavzularni bir chetga surib, iltifotu manziratlar bilan qaymoqxo'rlikka tutindilar. Boya to'g' b'ralgan non satta moyga aylanib, endi og' b'izda erib borar, arzimas vaqtda jannat taomiga aylanib ulgurgan edi. Qariyalar o'zlari qolib, Olimni qistashar:

- Oling, bu dunyoning ne'mati bo'lmabdi, keyin bunaqasini topolmay yurasiz. Topganingizda ham o'xshatolmaysiz, - deyishar edi. Olim esa, ularga atalgan ne'matga o'zi ham sherik bo'layotganidan tobora qisib borardi. Hozir bu dunyo ko'rgan qariyalar bilan o'tirish bir gashtli bo'lsa-da, o'rtadagi taomdan ko'ra suhbatlari shirinroq tuyulmoqda edi. Xizmatlarida o'tirganidan, bu kunlarga yetib kelganidan boshi osmonda edi.

Qaymoqdan keyin ezilishib choy icha boshladilar. Va shu asno ulug' b' mehmon o'rnida bir tebranib, joylashib olib, tomoq qirindi. Bu uning To'ramdan izn so'rashiga o'xshab ketardi.

U kishi ham niyatni sezib (balki kirib kelganlaridayoq bilib ulgurgandirlar!) tortinmang, har kuni kelib yuribsizmi, degandek qaradilar. Tavba, inson qarisa, taqvo yo'liga o'tsa, kishini bir nigohdayoq anglaydigan darajalarga yetar ekanmi?! Bular bu tarafdin bir-birlaridan qolishmas edilar. Harqalay, Olim buni sezib-anlab turgandek edi.

- Shu hijoz safari chog' b' bir ulug' b' zot ziyoratiga chorlab qolishdi, - dedi mehmon uzoqdan kelib. Uning bu ziyoratdan ko'p mutaassir bo'lgani so'z ohangidan sezilib turar edi.

- Chorlashdi? - "borarga jur'at etdingizmi, axir?" degandek ko'z tashladilar To'ram.

Ulug' b' mehmon ham u kishini tushunib, rostiga ko'chishni afzal ko'rdilar. (Yashirishdan ne iloj, qaytaga nazardan qolmoq mumkin!)

- Iltimoslariga binoan, oraga nozik kishilar tushib, miyqotdagi Oisha onamiz masjidlarida ko'rishdik. Umra niyati-la ehrom bog' b'lab, ikki rakat namoz o'tash asnosida.

- Kim, vatandan ayro tushgan vatanjudolar ulug' b'larilami?

- Shunday. Balki ismi-shariflarini eshitgan chiqarsiz. Oltinxon to'ram atalmish ko'p tabarruk zot ekanlar...

To'ram mayin jilmaydilar, u kishi har qachongidan xotirjam edilar. Buni qandoq tushunmoqni hatto Olim ham bilmay o'tirar edi. Shunchalar sirli va dunyo ko'rgan edi bu qariyalar!

Javob undan hayratlanardi chiqdi:

- U zot bizga tomir bo'ladirlar. Faqat ona tarafdin.

- Uni qarang! - hayratlanish gali ulug' b' mehmonga kelgan edi. - Xudo mushkulimizni o'zi oson etayotganini ko'ring.

- Qanday yumush, qanday mushkulot, hech tortinmang? - dedilar To'ram avvaldan sezganlari rost chiqayotganidan jilmayib. Ulug' b' mehmon ham qisinishga hojat qolmaganidan hiyla yengil tortib, qo'z g' b'olib qo'ydi:

- Sizga tomir chiqishlarining o'zi... bu mushkulotni yo'qqa chiqargay, taqsir. Alloh ko'nglimga sol-ganiga mingdan ming shukrlarki, kelib yaxshi xabarlar topib turibman, - muftiy domla chindan o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan edilar. - Bordi-keldilar uzilishib ketmagandir, axir?

- Hov, qayda? Bu Sho'rosi tushmagur bizni xo'b to'zitdi-ku, - dedilar To'ram chinidan qolmay. Olim bu To'ram haqlarida eshitganlari rost chiqayotganidan bir chekkasi hayratga tushib bormoqda edi. U kishi devorning ham qulog' b' bor demay, Sho'roni so'kishda davom etar edilar. - Bunday kekchini onasi tug' b'maydi. Ro'yxatiga tushdingmi, o'lib qutulasan. Chiniga ko'chsam, Sayyid Mahmudxon yelkaga to'nni tashlab, to'g' b'ri qilganlar o'sha vaqtdayoq.

Ichlari tushib o'tirgan muftiy janoblari bu orada ikki qo'z g' b'olib oldilar:

- Siz o'sha Jambullu domlamiz haqda aytasiz-da? Ahli ayollari qolib, o'zlari sarhad oshib chiqib ketishga majbur bo'lgan zot?

- Shunday-shunday. Bu gaplar bo'lib o'tganiga ham o'ttiz yillar kechdimikan, vallohi a'lam. Ishqilib, bu hijrat xabarini rahmatli volidimizdan eshitib edik. Keyin bu qo'tir dunyo necha evrilib, necha o'zgardi. Ammo ro'shnolikdan darak yo'q, - deb turib, To'ram mehmonning betiga qaradilar. - Siz yashirmay-netmay aytavering: nima balo, Sayyid Mahmudxon to'ram shoshilishda lozim narsani aytolmay ketgan ekanlarmi?

Ulugʻ B mehmon yana bir karra bu karomatdan hayratga tushib, bosh silkidilar:

- Topdiz, To'ram taqdir, topdiz. Hali taqdir bu boshga nimalarni bitgan deb... javobini berib keta qolmagan ekanlar. Qiyomatda shuning gunohi tutmasaydi deb... qaygʻ B uradir ekanlar. U kishining ahli ayollarini xabarlashimiz ham shundan.

To'ram yuz-ko'zlariyu bir chiroyli kuzalgan soqollariga ichdan nur yogʻ B ilib, kulimsidilar. Shu topda rahmat yogʻ B ilib turgan bu yuz qarangki, Olimga juda-juda ham tanish, ham suyuqli ko'rinib ketayotganidan o'zi hayratlarga tushib borardi. Nimadan bo'lsa ekan bu?...

- Bugun chindan o'ng yoningiz bilan turgan ekansiz. Suyunchini begona qilmaydirgan bo'ldingiz. Ularni so'rattirib berish bizning zimmada, inshaalloh, daraklari ham yaqin kunlarda chiqib qolsa.

- Suyunchi sizdan aylansun, - dedi muftiy janoblari, - o'ttiz yillik rishta ulanadiyu, judo ko'ngillar yana topishib, taskin ne'matiga erishadiyu bizni suyunchidan qochirasizmi? Oladiringan savobimizni ayting! Uni qaysi tarozuda tortib ado qilib bo'ladirkan?!

- Hammasidan burun shundan keling. Uning savobiga nima yetsun!

Olim dogʻ B da edi: bir narsaning siriga - bir-birlarini uncha ham xushlamaydilar deb eshitgani ikki ulamoning bir birodarlari tashvishida fikrlari bir yerdan chiqib, apoq-chapoq o'tirishlariga hech tushunib yetolmas edi. Shu anavi kungi To'rammi, zamzami undanmas, noibidan so'rang degan, derdi. Endi qilcha sir bermay o'tirishlari-chi, bu nimadan dalolat?

Yo bularga o'xshab bircha taqsiqlar ham bu masalada jindek uzrlidurlarmi?

Gung tasvirchi qaroqlaridagi yosh

Jujur1 edim, peshindan keyin bemalol ishga kelsam, mudirimiz ostonadan o'tmasimdan tabriklay ketdi.

- Xudo bir asradi sizni, Maqsudxon. Shu jujurligiz bo'lmasa, bilmadim hozir Toshkanni qaysi dahasida yurgan bo'lardiz, kinochilarni yetaklab. O'rnizga Jo'ravoy ketdi, boyaqish lo'killab... - deb kuldi u kishi.

Men ichim yorishib kuldim. Chindan har balodan asraguvchi ham, har jafoga tashlaguvchi ham O'zi. O'ziga shukr, deb mudirimga tegishdim:

- Omad chopsa shu-da, aka, O'zi panohida asrayveradi.

- Bu gapni Jo'ra akangiz eshitmasin, yaniy-yaniy ketdi.

- Jazosi bitta osh-da, bir tovoq osh aylansin akamizdan, - dedimu qalashib turgan sahifalarni o'qishga tutindim.

Oradan ikki soatlar o'tib, sahifaga ko'milib o'tirsam, ogʻ B zi-qulogʻ B da Jo'ra akam kirib keldi. Birinchi marta sezishim: eshikning takkinasida stolda o'tirgan kishiga eshikdan kirgan naynovdek odam mirzaterakdek ko'rinadi ekan. Buning ustiga u almisoqdan qolgan uzun plashini kiyib olgan, boshida "Lenindan qolgan kepka"si bor edi. U kishi qaerda qittak-qittak otvola qolibdi, ikki yuzi qip-qizil, lablarini yigʻ B ishtirib ololmas edilar.

"Hayriyat, mehmondorchiligi bor ekan, bo'lmasa, eshitardim eshitadiganimni" deb yengil tortgan joyim-da u kishi plashining yengini egilmaydigan qo'llaridan zo'rgʻ B ha chiqarib, engilni joyiga ildilaru tik turgancha sochni taragan bo'ldilar.

Lekin shu turishda ham mendan ko'z uzmay, lab-lunjarini yigʻ B ishtirolmay turibdilar. Sezdim: menga aytadigan gaplari bor-u, hadeganda damlarini chiqarmayotirlar. U kishi shunaqa ogʻ B irkarvon, tillarining uchida turgan so'z ham hadeganda uchib chiqa qolmaydi.

Nihoyat oromijon divanga cho'kib, faqat ziyofatlarda o'rta qilib o'ynagandagina egilmasligi bilinib qoladigan qo'llarini divan suyanchigʻ B i ustiga tashlab yastandilar. Bildimki, safar to'kis o'tgan, mudirim aytganidek, men eshitadiganimni eshitmayman. Xaytovur, oxiri bahayr chiqdi deb tursam, shu tob Jo'ra akam sogʻ B qo'llari bilan tizzalariga shappalab qoldilar. Va shu barobar qaddilarini ko'tarib, o'tirib oldilar-da:

- Voh, Maqsu-ud, kelib-kelib shu kungayam jujur bo'ladimi odam?! Xo'-o', ko'p narsadan quruq qoldiz! Biz qayoqlarga borganimizni bilganizda edi! Ax!- deb tillarini toqilatdilar.

- Nechuk? - dedim men hayronsirab va kulimsirab. - Qaytaga yaxshi bo'пти. Bilasiz-ku najirxo'rliklarga tob-toqatim yo'q. Osh bo'lsin, - dedim kamiga.

- E, yo'q, - dedi u kishi qo'l siltab, - biz qayoqlarga borganimizni, qay go'shalarga bosh suqqanimizni bilsangiz edi! Qayoqdan mening chekimga tushdi?! Asli o'ziz boradigan ekansiz. Borganizda bir narsalarni tushungan, men pandavaqi aqlim yetmagan narsalarni o'ziz anglab yetgan bo'larmidingiz! Endi men sizga qanday tushuntiray, qay bir boshidan aytib beray?! O'lay agar, ular bu taraflarga bekorga kelishmagan! Bekorga olishmadi ham u kinoni! Lekin men buni kimga ham aytay, ayta olay?

Men sekin o'rnimdan turdim. Qaysi bir aqlim bilan xona eshigini ichidan qulflab, hamxonamning yoniga cho'kdim.

- O'zi nima bo'ldi, ochiqroq aytavering. Ular kim ediyu qaerlarga borishdi? Iltimos, bir boshdan qaytaring, - dedim azza-bazza titrab-qaqshab. Men o'zim sezmaganda allaqanday xavotirlarga tushib bormoqda edim.

Chindan ham xoriydan kinofestivalga kelgan kinochilar nega biz taraflarga qiziqib qolishibdiyu hammayoq surib-netib tashlanib, ko'p qavatli toshqo'r-gʻ B onlar tagida qolib ketganda nimasini suvratga tushirmoqchi, kino qilmoqchi bo'lishibdi? Bunga qanday ruxsat etishibdi? Aql bovar qilmasdi. Yana allaqanday zanji rejissyoru kinochilar emish. O'lay agar, biron narsaga tushunib yetayotgan bo'lsam! Yana Jo'ra akamning gapi bunday.

- Tushunarli yerda ishlaydigan odam ekansiz, iltimos, so'rashgan yerlariga opchiqib, aylantirib kela qoling. Qaytgach, natijasini aytarsiz, odamlarimiz kamligidan sizga aytaypmiz. Tushundiz-a, Cho'pon otayu Qangliga olib borasiz. Nimani olishsa, olaverishsin. Xalqlar do'stligining qudratini bir ko'rib qo'yishsin, deyishdi.

Cho'pon ota bilan Qangli nomini eshitgandayoq yuragim jiz etib, orziqib tushdim!

- Kim u taraflarni tavsiya etibdi?

Jo'ra akam nogahon engashib, ovozini pastlatdi:

- Shuni ayting. Qo'llarida birov bir varaq qogʻ B hozga ko'k qalam bilan chizib bergan xaritami, nimayam bor.

- Chizmadir balki? - dedim tasmollab

- Shunga yaqinroq. Cho'pon otadan Qangliga boradigan anuv katta yo'l. Keyin Tuvakko'cha, Bo'zsuveni ko'rdim. O'rtada Izza ham bor shekilli.

- Ularni bilgan odam chizmasa, boshqa kim ham chizib beradi? So'ramadizmi? - dedim yuragim hapriqib kela boshlab.

- Qanday so'rayman, kimdan so'rayman? Hammasi qop-qora, bir-biridan davangir xabash kinochilar. Papauslardek kiyinib, peshonasiga pat taqib olgan tasvirchisi-ku qulogʻ B i tom bitgan, naqd gung ekan. Yelkasidan kameradini qo'ymay chaldevorlarni, surilib bitmagan tepayu soylarni suvratga obyotibdi.

- Yangi tushgan uylar, osmonga bo'y cho'zgan toshqo'r-gʻ B onlar-chi? Oldimi ularni ham? - dedim Jo'ra akamning gapidan bir

narsalarni anglagandek bo'lib. Xayolimda esa, nuqul bir gap aylanadi: nima balo, ular omon qolgan eski joyu mavzela'ni suvratga olib borishni buyurtma olib kelishganmi yo? Olishgan bo'lsa, kimdan?

Shunday deb o'ylayman-u, o'ylarim tubsiz ko'rinaveradi. Axir bu mavzedan ketgan kim ham ularga buyurtma berishi mumkin? Sulton akam yubordimikan? O'zimiz yetolmaganimizga yarasha, suvratiga yetishaylik deb? Undan bo'lak kim ham intiqishi, sog'binishi mumkin?

- Shoshmang, qaelarga borib, qaelarga kirdilaringiz? - deya uning yengidan tortqiladim.

- Ha, darvoqe, bu yog'binini aytmadim-a? Avval Cho'pon otaga borishdi. Yolgbiz omon qolgan Mirto'xta amakining choyxonasiniyu orqasidagi sutbozorni olishdi. Keyin katta ko'cha bilan Qoraxo'janing Izzasiga dovur tushdik. Omon qolgan soyligni, chimzorlarni olishdi. Keyin Yakkabog'bdan yo'l chetida turgan bo'yicha qurib qolgan sadani, Murjimonda ildiz-pildizi bilan sug'birib tashlangan azim yong'boqlarni (jonivorlar shuncha yildan beri qilt etmay turibdi ekan!) u yog'bidan o'tib, bu yog'bidan o'tib olishdi. Undan narida, shunday yo'l chekkasida Minavarxo'ja akani boloxonali uyi bo'lardi. Shu buzilmay qolgan ekan, uni ichu tashiga qadar olishdi. O'sha yerda yarim soatcha qolib ketdik. Gung tasvirchini undan ajratib bo'lmasdi. Shu yerga kelganda qo'l-oyog'bin bo'shshib, xushim boshimdan uchib borayotgandek bir holga tushgan edim. Oh! U baxti qaro xonadon! Na Adol xolamga, na Marg'bu kennoyimga, na boshqaga buyurgan bu uy, bu joylar, hali omon turgan ekanmi? Hammayoq ostin-ustin bo'lib ketganida Xudo uni shu kunga qadar nega asradi ekan? Shular kelib, suvratga tushirib ketishlari uchunmi? Nima bu, taqdir yozmishimi, yo tasodif? Qandayin ham aqlga sig'bdirasani?

Jo'ra akam mening holimdan bexabar davom etar edi:

- Keyin Tuvakka o'tib, Bo'zsuv bo'ylariga tushdik. Omon qolgan jaru jurlarni, tepasida oq kaphtarlar porillab uchgan Bo'zsvuni, uning qiyozzorlarini xo'b tomosha qilib, suvratga olishdi. Kattabog'bdan bir chekkasida eski shiypon buzilmay qolgan ekan, o'sha yerda choy ichdik, undan sizlarning eski hovlingizga o'tishdi.

- Yopiray, qanday topib borishdi? - O'ylab gapiryapsizmi, degandek tikildim. - Yo rejalarida bor ekanmi?

Jo'ra akam yelka qisdi:

- Unisini bilmadim. Lekin do'mlar oralab o'tib borayotsak, (taniyman-ku, axir!) tomi ochilganicha valongor yotgan ekan, oyog'bin tortib olib kirdim. Ular ham ko'rib, ko'p achinishdi.

- Gung tasvirchingiz-chi?..

- Yo'q, - dedi Jo'ra akam bosh chayqab, - U anhor bo'yida qolib edi. Chiqsam, tagidan arralab tashlangan yong'boq to'nkasi ustida tizzasiga kamerasini qo'yganicha izzatini bilgan papaus qabilasi yo'lbo'shchisidek tek qotib o'tiribdi. Ko'zi vayronadayu yuzi qilt etmaydi. Ammo vajohatidan odam qo'rqqulik! Chindan nima bo'пти ekan deb, boshi mushtdek o'zi davangirdek xabash kinochiga qaragam, (bitta shunisi chalakam-chatti o'rischa bilarkan!) yelkamga qoqib:

- Ustal, ustal, - deydi.

- Ana o'tiribdi-ku, ustaldan ham a'losida... poshshoi olamga o'xshab, - debman. O'l deydigan odam yo'q. Buyam temirmas-ku, charchasa-charchagandir, ozmuncha xarobalarni oldimi, to'rt qavatli koshonalar yonida? Balki bundanam xarob o'z qishloqlarini, quvg'bin elatdoshlarini eslab ketgandir? Sivilizatsia degan balo xarob etgan jannatmakon diyorlari ko'z oldidan ketmay qolgandir balki? Bir ko'nglim yelkasiga qoqib taskin bergim, biz ham sendan kam emasmiz - tirik turib nimalardan judo bo'lmadik degim keldiyu, aytolmadim. Til bilmagach, qanday tushuntirasani?!

Men esam, afsus-nadomatdan o'zimni qo'yarga joy topolmasdim: kelib-kelib shu bugun jujur bo'lib qolamanmi?! O'zim borishim kerak ekan! O'z ko'zlarim bilan ko'rsam... nima gapligini anglab yetardimmi, aniq-taniq tasavvur etardimmi! Ungacha bu qorong'buligicha qolaveradi shekilli.

- Shoshmang, keyin-chi? Keyin qayoqqa olib o'tdingiz? Borishdimi yana biron yerga? - dedim ijkilab.

- Hamma gap shunda-da, shu Kattabog'bdan ko'chib borib, vatan tutgan yerlarini ko'rsak bo'ladimi, deyishdi. Men qayoqqa ham olib o'tardim, sizlarnikiga boshlab bordim.

- Ana xalos! Nega, axir! - Esingiz joyidami deb yuborishimga bir bahya qolgan edi: odam ham shunchalar sodda-to'pori bo'ladimi?! Ketidan keladigani-chi, gap chiqsa, tinch qo'yishadi ekanmi keyin?

Men o'zimdan ham burun kennoyimni, Yodgorni o'ylamoqda edim. Mahalladagilar tushungani bilan hukumat tushunarmidi! Bir kami qochqinning ayoli deb surishtirishlari, so'roq berib yurishi qoluvdi!

- Yaxshi bo'lmabdi shu ishiz, - dedim xafa bo'lib.

Men o'rnimdan turib azza-bazza joyimga qayta boshlagan edim, Jo'ra akam yelka qisdi:

- Nimasi yomon, mehmon otangdan ulug'bdan degan gap bor. Sizlar chaqiribsizlarmi?..

Mening kayfiyatim buzilib, shashtim tushib ketib bo'lgan edi.

- Ular kelib-ketadigan odam. So'ralgandan biz so'ralamiz. Bilasiz-ku, xonadonimizda nozik odam bor,- dedim to'ng'billab.

- Ular ham kinoga tushishdi, ona-bola. Osmon uzilib yerga tushgani yo'q.

- Tushishdi? - dedim qaltirab.

- Nima bo'пти, hamma qatori, - dedi hamxonam.

"Dard bo'пти!" devorgim keldi-yu, tilimni tishlab qoldim.

Xayolimdan esa, biroq buyurgan, buyurmasa, ular borib yurmasdi, suvratga tushirib yurmasdi! Lekin o'sha birov kim, derdim-u, javobiga ojiz edim.

- Ulariz qayda? Ko'rsa, biron og'bdan gaplashsa bo'ladimi, o'zi? - dedim nihoyat hovrimdan tushib-tusholmay.

- Yuring opchiqaman, mehmonxonaga tashlab kelganimga nari borsa, biron soat bo'ldi-da, - dedi hamxonam menga achinib.

- Jildik-jildik, jujurlik qochib ketmaydi. Loqaq birontasi bilan tanishtirib qo'ying, - dedim iltijoga tushib.

Hamxonam turib, o'sha urininqiragan plashini daroz yelkasiga ilar ekan, negadir oyog'bin tortinqiramay imilladi:

- Olinadigan narsalar olib bo'lingan bo'lsa, nimadan cho'chiysiz? - dedi yu yuzimdan o'tolmay ostona xatlab yo'lakka chiqqan joyida qarshimizda kotib ko'rindi. U kishi jilmayib turib, odamni "uzib" olardi:

- Ha, Maqsud To'raxo'jaevich, sahifalar qalashib yotib, o'zlariga yo'l bo'lsin?

- Xorijdan mehmon kepqopti. Tushamanu chiqaman, - dedim og'bdan kelganini qaytarmay.

U kishi mehmonni ulug'bdan ko'rardi, meni qaytara olmadi:

- Yaxshi, tushingu chiqing, mehmonni Jo'ra akangiz ovutib tura qoladi.

Biz mehmonxonaga chiqishga chiqdigu, Afrikaning qaysi bir go'shasidan kelgan qora tanli o'sha kinochilarni topolmay, necha qavatiga bosh suqib chiqdik. Ular ko'p edilar, lekin birontasi hamxonamni tanimas edi. Qolaversa, papauslar yo'lbo'shchisi kabi

bejanib olgan gung tasvirchi hech yerda ko'rinmasdi.

Gidlar xonasiga kirib surishtirsa bo'lardi-yu, ishni buzib qo'yishdan qo'rqdik.

- Meni tergov berib yursin desangiz, kirasiz, - deb turib oldilar Jo'ra akam.

Men u kishini ayadim, harqalay necha yillardan beri birga ishlaymiz, qora tortib, birga borib, birga kelamiz. U qora zanjilar biz yo'qotgan diyorning qolgan-qutgan urvoqlarini suvratga olib ketgan bo'lsalar, bunda ham bir hikmat bordir, sabr qilaylik-chi, derdim.

Shunday bo'lsa-da, ertasiga festival yopilib, ular jo'naydigan kuni Jo'ra akam ikkalamiz aeroportga chiqdik. Men nimagadir birrov bo'lsa-da, o'sha papauslar yo'lboshchisiga o'xshash gung tasvirchini bir ko'rgim kelar edi. Ammo dunyoning turli chekkalaridan kelgan oq, qora, sariq tanli kino yulduzlari ichida birgina o'sha papauslardek kiyingan odamgina ko'rinmasdi. Yo biz chalga Bib o'tkazib yubordik, yo u o'zini tanitmay o'tib ketdi.

Men eski hovlimizu yangi hovlimizgacha kirib borgan, shuncha yerdan kelib, biz uchun aziz bir diyorning qolgan-qutgan yodgor joylarini suvratga olib ketgan bir insonni ko'rmas qolganimdan dog' bda edim. Bu qandayin safar ediki, yonida turib biz ham bexabar qolgan edik. Balki Xudoyimning xohlashi shunday bo'lgandir. U behikmat emasdir, axir?!

Yig' b lasim keladir, ey yoronlar!

"Akam o'rnida akajonim, Chaman aka!

Eng og' b ir, eng mushkul damlarda har kimning bir ishonimli, suyansa suyangulik kishisi bo'lsin ekan! Bunday qaragam, dardimni to'kib, ichimni yorgudek yaqinlarim ko'p. Oyim borlar, maslahat solsa solgudek, ayolim bor, ichimni yorsam yorgudek. Akamning ukasi - Olim akam bor, borsam borgudek. Yodgorning ayasi - kennoyim bor, meni yeri ko'kka ishonmagudek. Lekin bu gapni, keyingi kunlarda dardi-dunyomni ostin-ustin qilib tashlagan bu voqealarni men ularga qanday ham aytay?! Ularni ham o'zimdanda battar kuydirmoqqa, tashvishga qoldirmoqqa haqqim bormi?! Ochig' b i, bu dardni ularga to'kmoq tugul, uchini chiqarmoqqa haddim sig' b may keladir. O'ylab ko'rsam, hali ham bo'lsa bu gapni sizdan bo'lakka yorilolmas ekanman, maslahat sololmas ekanman. Shu umidda (ichimga sig' b dirolmay) qidirib borsam, yo'q ekansiz. Sabrim chidamay, bir vaqtlar Yodgorlar turgan boloxonaga chiqib, shu xatni yozib, qoldira qoldim.

Ayting, nima qilay? Boshlig' b imga ariza ko'tarib kiraveraymi, yo chaqirgunlaricha, kuta turaymi?

Shunday bo'ldiki, men umrimda birinchi marta bosh muharrirning topshirig' b ini rad etdim. "Men bu xildagi yumushlarni ado eta olmayman. Kim o'ziga ep ko'rsa qilaversin", debman kotiblariga. Yo'q, men ishsiz qolishdan qo'rqmayman. Bir amallab kunimni ko'rib ketarman. Lekin Yodgorlarga nima bo'ladi? Tekshir-tekshir bo'lib qolmasmikan?

Tushuntiribroq aytsam, Toshkentdagi o'sha Osiyo, Afrika mamlakatlari kinochilari fetivalidan so'ng shunday voqealar sodir bo'lib ketdiki, ularni bir og' b iz so'z bilan aytishga til, tasvirlashga qalam ojiz. Bizda qo'li-qo'lga tegmay, hatto harf-klavishlariga qaramay shatillatib yozib tashlaydigan mashinkachi opoy - Gulsuma opa borlar. Shu kishiga biron ta'sirli voqeani yozdirib qolsak, "Iy, yig' b lasim kela!.." deb kaftlari bilan mijjalarini artaveradilar. Biz buni qarichilikka yo'yib, miyig' b imizda kulib qo'ya qolardik.

Rostini aytsam, Chaman aka, o'sha ahvol o'zimning boshimga kelib turibdi! Es lasam, opoy aytmoqchi, ichim to'lib, yig' b lasim keladir.

Hammasi o'sha dardisar jujurlik kuni kech kelganimdan boshlandi. Oddiy kunda bo'lsa, zilziladan jaf o'rgan o'zbeklarning eskiyu yangi vatanlari haqida hujjatli film olishni niyat qilgan festival mehmonlarini so'ragan joylariga men oborishim kerak ekan. Nasib qilmasa, shu-da, men qolib boshqa kishini qo'shib jo'natibdilar. Keyin tafsilotini eshitib, hayronlar qoldim. O'lay agar, xabash kinochilarining niyatlariga tushungan bo'lsam! Yangi joylarimizni olmoqchi bo'lishsa, nega buzilmay qolgan chaldevorlar oralab yurishibdi? Oxiriga qadar surib, ko'mib tashlanmagan Izza soylarimizni, Bo'zsuv tepalariyu hov bir vaqtlar akamgilar qarorgoh tutib, jon saqlagan Kattabog' b tagidagi joylarni suvratga tushirib yurishibdi? Bunda qanday siru sinoat bor? Nega bizning eski hovlimizu yangi joylarimizgacha qidirib borishadi?

Men Jo'ra akamdan haligacha xafaman. O'sha xabash kinochilarni qaerdan qayoqqa boshlab borganlarini aytib o'tirguncha: "Hey, Maqsud - pakana pari, yur, senga bir narsa ko'rsatay. Uzoq xorijdan kelib, sizlarning eski hovliyu yangi joylaringizgacha borgan, uy ichlaringizni kinoga tushirib ketgan zanjilarni tanishtirib qo'yay. Keyin o'pkalab yurma!" demaydimi?! Keyinchi, keyin aeroportgacha chiqib borib o'sha papauslar yo'lboshchisiga o'xshab peshonasini kumush belbog' b bilan tang' b i b, boshiga pat qadagan tasvirchining soyasini ham topolmay qaytganimizda ayt-gan gaplari-chi, hammasidan ham o'tib tushdi.

- Maqsud, rostini aytsam, kecha senga bir narsani aytishni unutibman. O'sha pat taqib, almoiy-aljoyi kiyinib olib, o'zini kim deb fahmlagan gung tasvirchi, bilasanmi kim ekan?! - deydi.

Ichim uzilib tushgandek to'xtab qopman:

- Kim ekan? - dedim jon bitib.

- Musulmon ekan. Qora xabash bo'lsayam, bizdan tuzukroq musulmon ekan! - deydi.

Men bu gapdan qotib qolgan edim:

- Qanday? - deya oldim zo'rg' b a.

- Qanglidan o'tib borayotib edik. Men oldingi o'rindiqda edim, bir mahal qaragam, orqada o'tirgan o'sha gung tasvirchi kishibilmas yuziga fотиha tort-yapti... Ichimdan muzdek ter chiqib, baqa bo'lib qopman. Negaki o'zini chin musulmon sanagan biz qolib, u Terakli ota qabristonida yotganlarga rahm tilamoqda edi...

Shu gapni eshitganimdan beri ichim yonadi! Nega o'zim bo'lmadim, o'z ko'zim bilan ko'rmadim! Ko'rganimda bunday shubhalar girdobida qolmasmidim, o'zimda bir qat'iyat topib bu ishlaridan ham voz kechib keta qolarmidim? Hozir nega qo'l siltab ketolmayapman, nima, qanday ilinj tutib turibdi, o'zim tushunolmayman. Balki u men o'ylagan kishim emasdir?! Darrovda sir boy bermaslik kerakdir?! (Nima demoqchiligimni tushunayotgandirsiz, Chaman akajon?!)

Navbatchilikdan yarim kechalarda qaytsam, eshik tagida Yodgor o'tiribdi.

- Amaqu, bilasizmu, biznikuga kimlar kelishdu?- deydi suyunchilab.

- Kimlar? - dedim ichim bir zil ketib.

- Najoshiy yurtudan bir talay kinochilar kelishdu.

- Nima deydular? - deya oldim.

- O'zuning tiluda "moro-moro"laydur, xolos.

- Salomidir-da.



- Balki, lekin bittasu soqov ekan, amaqu. Hech yoqqa qaramay kamerusining ko'ziga tikilib yotuptu, aylantiradu biznu oladu, aylantiradu biznu oladu.

Sizga yolgb'non, Xudoga chin, shu gapidan etlarim jimirlab ketdi...

- Sizlar kim - ayang, senmu? - deya oldim zo'rgb'na.

- Ha-da, unga saru ayam xijolat tortadular, o'ranub chirmanadular. Axiyru uyumuzga kirib ketub qutuldilar. Nega unday qildiz desam, suratga tushish - gunoh, deydular. To'gb'rimu shu, amaqu?

- Ayang aytgan bo'lsalar, o'zlariga to'gb'ri, - deyapmanu o'zimni xayol opqochib ketyapti. Yodgorning boyaB-gi gapi: "Aylanadu biznu oladu, aylanadu biznu oladu"si ketmayapti. Chindanam nega?

Hovliga kirib bordigam, Yodgor ichidagini to'kib solib tugatolmaydi:

- Bilasizmu, amaqu, o'sha yelkasuda zilday narusa ko'targan, boshudagi patlari bir chiroyluv tovlanup-selkungan gung tasvirchiga ayam bir piyola choy berub edilar, oborsam ichvolub qo'li ko'ksuda mulozamat etsa deng...

- Shoshma-shoshma, qo'li ko'ksuda deysanmi? - deya to'xtab qopman.

Yodgor ham yelkamga osilib, qulogb'himga shipshir edi:

- Ko'ksuda-ko'ksuda: rahmati biznukiga o'xshaydukan.

- Adashmayapsanmi?

- Unda... unda peshonasudagi terlarnu... sidirub artushi-chu?

- Yo'gb'ne,- dedim hayratim ortib,- Tasodifdir.

- O'shanda... chakkasuda nima ko'rdim, deng, amaqu?!

- Nima ko'rding? - dedim yuragim taka-puka urib.

- Toji taguda oq chandug bor edu...

- Voh, nimalar deyapsan, qayoqdagi narsalarni esga tushirib? Adoyi-tamom etding-ku odamni!.. - deb ostonaga o'tirib qopman.

Ana shunaqa gaplar, Chaman aka! Rostdanam u bo'lsa, o'zi bo'lsa, nega bizga birrov ko'rinmay ketdi?! Yo sizga bildirgan, jindek belgi bergan joyi bormidi?

Chaman aka, bu hali hammasi emas. Men ne armon, ne gumonlar ichida yurgan bir kezimda, o'sha festival mehmonlari jo'nab ketganlariga bir hafta ham bo'lmay bir kuni ishxonada tarjimon qidirib, chop-chop qilib qolishdi. Asil tarjimon bir kun avval tongotar ishlagan, mashina yuborib oldirib kelay deyishsa, telefonni hech kim ko'tarmayotgan ekan. Yuqoridan tushgan material esa, shu sonda ketishi kerak. Bunaqa paytda mas'ul kotibga yo'liqqan odamning sho'ri qurirdi. Taqdirning yozmishini ko'ringki, shu paytda men ro'baro' kelibman. Qarasam, feleton! Yana unaqa-bunaqasi emas, siyosiy feleton! "Hoy, yaxshilar, insof qiling. Men birda-ikkida bunaqa narsani o'girmaganman. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin", dedim. Qani, birov eshitsa! Hamma qochadi. "O'qib ko'ring avval, halitdan dod-voy qilasiz!" deyishdi kotibiyatda.

O'qisam... Voh, Chaman aka, kim, nima haqda, deng?! Aytsam, esiz ogb'hib qoladi!

Sulton akamga o'xshagan sarhad ortida qolib ketgan bir odam!

Albatta, akamning vatanga hiyonat qilgan joyi yo'q, tuzluqqa tupurgan joyi yo'q. Yozmishi shunday ekan, begona ellarda darbadar kezib yuribdi.

Ammo bu... esimizni tanibmizki, vatan xoini atalib keladi. Bizni tuzumni qoralab, jild-jild kitoblar yozgan. Shunday "to'nini teskar kiygan odam" nima qilibdi deng? Yurt sogb'binchi, ko'z ochib ko'rgan diyor o'rtashlariga chidamay sirot ko'prigiga qadam qo'yibdi. Va qarangi, ona yurtiga sayyox qiyofasida kirib kelib, ko'rib ketibdi! Buni hech kim sezmay ham qolibdi!..

Meni qanday jin urgan edi, qo'linga qalam ololmasdim, oldim deguncha ko'z oldimga akam singari vatanjudolar kelaverar, feletonning bir satriga ham tishim o'tmas edi.

Qolaversa, Chaman aka, boshqa bir narsa, kechagi zanji kinochilarning biznikiga tashrifi, eski-yangi hovli-joylarimizni, Bo'zsvu bo'ylarini, akam qadami yetgan joylarga borib tasvirga tushirib ketishgani yodimga tushib, ichim muzlab-muzlab ketmoqda edi. Bularning hammasida allaqanday bogb'fliqlik bordek, bejiz emasdek edi. Rostini aytsam, agar shu feletonni tarjima etsam, men ular aytayotgan allaqanday bir vatangadoni emas, tirik turib bu diyordan judo bo'lgan o'z akamniyu o'sha yoqlarda qolib ketgan boshqa vatanjudolarni qo'shib yozayotgandek edim. Agar shu ishni qilsam, taqdir taqozosi-la butun dunyoga to'zib ketgan, vatanning bir siqim tuprogb'hiyu bir qarich yeriga zor kishilar qarogb'bishiga qoladigandek edim.

Nima desalar-desinlar, qanday tushunsalar-tushunsinlar, men feletonni qaytarib berdim. Bosh muharrir eshitib, u qanday noshukr mirzo, ketgisi kelyaptimi bizdan, deganmish. Men akam uchun agar kerak bo'lsa, o'sha ishdan ketishga-da tayyorman. Albatta, ular akam bilan bogb'fliq u tarixlarni bilmaydilar. Bilsalar, bir kun ham turgizmasliklari aniq.

Shunaqa gaplar, Chaman akajon. Yo yillar ichimdagi mitti cholni yanada qaritdi, yo boshimizdan kechmish savdolar ko'ksimda bir tur o'zgarishlar yasadiki, turib-turib men o'zimni tanimay qolayotirman. Boshimda esa, gb'bu jvgb'non savollar: nimaga kelganmiz dunyoga? Avvalda ne niyatda edigu, nimaga erishdik? Ertaga gb'balvir suvdan ko'tariladigan paytlar ham kelar, lekin biz u gb'balvirdan nima topgusimiz? Ko'z oldimizda jigarimizning jigarlari qalbi dogb'bliq, o'zi mungliq yashab o'tmoqdalar. Lekin biz jonni nisor qilib bo'lsa-da, o'sha dogb'b, o'sha mungni ketkizmoqqa qodirmizmi?

Judoliklariga malham bo'larli bir harakatlar etmoqqa-chi? Akam sarhaddan o'tolmagan taqdir-da, uni tushunish mumkin, unga mumkin emas, nega biz daraklab bormadik, borolmadik? Shunchalar qo'li kalta, o'zi ojiz kishilarmizmi? Nega Allohga tavakkal qila bilmaymiz? Yo undaylarning zamoni o'tgan, ularning so'nggisi akam edimi?

Rosti, Chaman aka, bu notavon ahvoli-holimdan, Gulsum opoy aytmoqchi, yigb'blasim keladir.

Nahot akamga, o'sha o'zingiz qiyomatli do'st tutingan bir kishiga, shuncha yillar kechib, bir yordam qo'lini cho'za olmasak? Bizni kim birimizni jigar, birimizni qiyomatli do'st ataydi?! Jilla qursa, tomiri Yodgor bilan ko'rishtirmoq mumkindir?! Bu dunyo shunchalar temirqo'rgb'bhonga aylantirib tashlanmagandir? Otayu o'gb'bilu ahli ayol uchun diydor qiyomatga qolsa, biz unda Tangri oldida ne deb javob bergaymiz?

Ana shundan yigb'blasim keladir, Chaman aka!

Maqsudingiz".

Sim-sim kalidi yoxud hamma rozi bo'ladirgan ko'shish

Begim kunlari ham baharnav ekan. Ish bilan - sahifa tushirish-chiqarish, hali muharririyat, hali kotibiyatga yugurish bilan kun qanday o'tganini ham bilmas ekansan. Bu shanba uyda qolib, hech yerga sigb'emas edim.

Feleton bilan bogb'fliq voqealarni kimga ham ayta olar edim! Oyimlarga yorila olmadim. Kennoyimga uchini chiqarib qo'ysalar

nima bo'ladi? O'zining kuygani kammi? Nima bo'lsa, Xudodan ko'rdim: damimni chiqarmaganim ma'qul.

Lekin boshimda osilib turgan bir xavf hech tinchlik bermasdi. Nahot bitta topshiriqni deb... shunchalikka borishsa?! Shu bahonada ishdan haydab, mirzolikka yo'latmay qo'yishsa-ya? Ko'nglim shunaqa yomon oqibatlarini sezib turgandek edi. Ayniqsa, anuv raportl yomon bo'lgan edi. Muharrirga "Mahmudovning injiqligi bilan kechikib ketdi" deb yozib berishibdi. Albatta, o'sha raportga topshiriqdan bosh tortdi, siyosiy feleton bu kishimning didlariga o'tirmasmish, deb qo'shishgan edi. Ular nimaga shama qilishganini avvaliga tushunmagan ekanman. Muhokamada:

- Xorijda qolib ketgan kimiz bor? Feletonning nimasi sizga yoqmasi? - deb savol berishganida peshonamdan muzdek ter chiqib ketdi. Chindan men tarjimani qaytarib berib, qovun tushirganimni sezib qolgan edim.

Lekin javob bermaslik ham mumkin emasdi:

- Akam, - dedim o'z tovushim o'zimga g'halati eshilib. Men nima bo'lsa-bo'ldi deb, chiniga ko'cha qolgan, hech qanaqa yolg'bon yordam bermasligini anglab yetgan edim.

- Ana, xalos!..

- Akangiz?..

- Yo'g'bon-e...

- Chindan tug'g'ishganizmi? - deya har tomondan hayrat aralash savollar yog'g'ila ketgan, tahririyat a'zolari bir-birlariga qarab qolishgan edi. Bu qarashlarda: "mana, qanday odam bilan ishlayotgan ekanmiz! Maxsus bo'limning ko'zi qaerda?" degan ma'no ham yotar edi.

Nima bo'lsa, bo'ldi deb, men yana chiniga ko'chdim. Xudo asrasa, shu chin-rosti bilan ham asraydigandek edi:

- Asli xolavachchamiz, lekin o'zi bizga akadek bo'lib ketgan.

Hayxotdek xonaga og'g'ir sukunat cho'ksa, yomon bo'lar ekan. Odamlar bir og'g'ir so'z, bir harakat bilan boshlaridagi "baxt qushi"ni uchirib yuboradigandek qilt etmay qolishgan, nigohlari yer chizar-u quloqlari ding holda bosh muharrirning hukmini kutar edilar.

Nihoyat uzun stol boshidagi kichik jussali, qora-to'ri odam oldida qog'g'oz shitirladi. U kishi ensasi qotgan paytlari odamning aftiga emas, kattakon xona-ning bir burchagiga qarab aytadiganini aytib olaru jahldan ham tez tusha qolar edi.

Men shu daqiqada "yaxshiyam shu odam bor, bo'lmasa, manavi "dev"lar meni xomtalash qilib, yutib yubora qolarmi edilar. Xudo unga to'zim bersin" degancha tik turar edim.

- Avvalo, bizda qoida qanday, Fayzullaxon? Chumchuq so'ysa ham qassob so'ymog'g'ibi kerak emasmi? Siyosiy feletonni hamma qolib, shularga berasizmi? Ayb o'z'laringda. Mashina yuborib bo'lsa ham tarjimonni topdirib kelish kerak edi! Sizlar esa, shunday narsani kimga ishonibsizlar! Hol qo'yib ag'g'idarib bersa, kim javob berardi?! Sizga esa, o'rtoq Mahmudov, uch kun juvob. O'ylab keling, bundan keyin bizning dargohda ishlay olasizmi-yo'qmi? O'shanga qarab taqdiringizni hal qilamiz. Boring.

Men chiqib, o'zlari qolishdi.

Qaysi "dev" zo'r berib, qurbonlik talab qilaru qaysinisi afv etib, gunohimdan o'tilishini istar edi, u yog'g'ibini bilmasdim. Men ularning changalidan qutulganimni ham, qutulmaganimni ham bilmasdim...

O'shandan beri ichkari uyga qamalvolib, yosti quchoqlab yotibman. Uydagilarning nazarida bir topshiriq olganmanu o'shani yozib bitirmaguncha chiqmaydigandekman. Non-choylaringacha opkirib berishyapti. Meva-cheva, shirinliklar, tansiq taomlar ilinishadi, qani ishim bita qolsa.

O'zim esa, kalam g'g'um, na uxlab-uxlay olaman, na "yozib-yoza olaman". Odamlarga-ku umuman, ko'ringim yo'q. "Uch kun juvob"ga shunchalik, ishdan bo'shatib yuborishsa, nima qilar ekanman?! Kallamga esa, bir epaqali fikr kela qolmaydi. Nima gap topib borishim kerak ekan, bosh muharrir nimani istaydi, yalinib-yolvorishimnimi, tavba-tazarrumnimi, uniyam bilmayman.

Qolaversa, nega tavba qilishim kerak? O'sha ko'nglimga yoqmagan narsadan bosh tortganim uchunmi? Asli o'zi bizning bo'limga tegishli bo'lsa ham mayli ekan, tegishlimas-ku. Demak, qaytarishga haqqim bor.

Ular-chi, shunga siyosiy tus berishga haqlari bormi?

Shu yerga kelganda tilim aylanmay qola boshlar edi: bironta ermak gazetada ishlasam boshqa gap edi. O'zimni tinchimni ko'zlasam bo'laverardi, bilinmasdi. Bu respublikaning markaziy gazetasi, har narsaga siyosiy baho beriladigan joy bo'lsa, shunisi nozik edi. Men esa, kayfiyatimni sezdirib, chuv tushib o'tiribman. Boshqa ro'kach topishim kerak shekilli, toki ojiz joyimdan ushlay olmasinlar...

Shunda ham ikkita narsa menga qorong'g'ibi edi: ular bu mavzuni yoqtirmasimni qaydan bila qoldilaru uni xorijdagi akamga qanday bog'g'blamoqdalar? To'g'g'birirog'g'ibi, bu narsani qaerdan bilibdilar? Kim aytgan bo'lishi mumkin?..

Qorong'g'ibi uyda qamalib yotganimdan foyda yo'qdek edi, ichim ham ezilib bitmoqda edi.

Axiyri biron najot umidida o'tlanib chiqib, shaharga survordim. Chaman akamni uydan topsamoq hamma mushkulotdan bir yo'la qutuladigandek edim.

Idorada bekorga "maxsus bo'limning ko'zi qayoqda" degan gap bo'lgani yo'q. Bu bo'limga esa, Chaman akamning so'zi o'tishi mumkin. O'sha bo'lim "u odamning bularga dahli yo'q desayoq..." Qanday shayton yozg'g'irdi, shu fikr kallamga urilganidanoq fe'lim aynidi. O'z-o'zimni yomon ko'rib keta boshladim. Nazarimda, mendan palid odam yo'q edi! Yo'q, Chaman akamdan bunday yordam so'ramayman, zinhor va zinhor! Undan ko'ra, bor gapni aytib, maslahat so'rash lozim. Balki akam uchun jondan aziz ishxonamdan ham kechsam arzir?!

Ammo omad yuz o'g'irgan ekanmi, Chaman aka har galgidek uyida emasdi. Noiloj, xat yozib, tashlab keldim.

Umidsiz, nesiz, suvga tushgan bo'lkadek bo'shshib uyga qaytsam, ko'cha eshik tagida almisoqdan qolgan bir "drundalet"l turibdi. Quvonib uyga yugurib kirsam, Olim akam kutib o'tiribdi.

Yombi topgandek quchoq ochib borib, bag'g'briga o'zimni tashladim. Negadir o'zim sir bergim kelmasa-da, sal narsaga o'pkam to'lib, ovozim o'zgarib bormoqda edi. Ich-ichimdan Xudoga tavallo qilaman: "Tangrim, o'zing to'zim ber. Tilimu diydamni mahkam et. O'zingdan boshqa murabbiyim yo'q, har nomardga muhtoj etma!" Shunday ontlar ichayotgan bo'lsam-da, nazarimda, Xudoning o'zi uni yetkazib turgandek tuyilaverar edi.

- Shanbalarda ham uyda o'tirmagin. Ishxonangdan nima topgansan? - deb gina qila ketdi Olim akam.

- Yo'q, o'zim shunday, - deb sir bergim kelmadi yana. Qolaversa, oyimlarning oldilarida u gapdan og'g'ibiz ochib bo'larmidi!

- Shunaqa, uyga sig'g'bmay qolgani kamdek "ichimdagini top" bo'lib olgan, - deb koyindilar oyim.

Men ichimga sig'g'bmasa-da, siporishladim:

- Yodgor bilan bog'g'bizning tagiga, baliq oviga o'tamiz, deb necha kundan beri o'tlanamiz. Mayli, desangiz ertaga...

Olim akam orqasidagi duxoba yostiqlar sigʻibishmay, birini olib tashlab, boshqasiga suyandi va chapanichasiga qoʻl siltadi:

- O'tmaganing ham yaxshi bo'пти, men yo'q edim.

Tushunmay ogʻibizga tikildim:

- Nechuk?

U oyimlarga bir qarab olib, emrandi:

- Jambulda safarda edim. Ikki haftadan beri o'shaqlarda yuribman. Undan Yangiyo'lga o'tib kelyapman.

Oyim o'zlaricha jilmaydilar:

- Ilgari u yoqlarga murid ovlagani chiqishardi, hozir nima bor ekan?

Olim akam ham sirli kuldi:

- Men esam eshonzodalarning izini izlab yuribman.

Oyim sergak tortdilar:

- Qanaqa eshonzoda? Kimlarga tegishluv?

- Pir darajasiga yetgan bir odamning iltimosimish... O'ttizinchi yillardagi "qoch-qoch"da ahli ayoliyu farzandlari qolib, o'zi xorijga o'tib ketgan ekan. Endi tomirlarini. To'ramdan so'rab kelishibdi.

- U kishi o'zlari uy qamogʻibidalar-ku, qaydan bilsinlar, - dedim.

Olim akam Allohning dargohi keng degan ma'noda qo'l to'lgʻibadi:

- Qaraki, so'ratgan odam ham shulardan ekan, ona tomondan To'ramning tomirlari chiqib qoldi.

- Yo Alloh, kushoyish beraman desa shu-da, - deb yubordilar oyim, u kishining ko'zlari birpasda nam-lanib kela qolib, kaftlarini mijjalarga bosdilar.

- Topdinglarmi? - dedim hayratlanib: Axir orada qancha yil o'tib ketibdi, pushti panohlaridan ayrilgan u yolgo'bizlarning boshiga ne kunlar tushmadi ekan, manavi mushtiparlarga o'xshab?! Oyimlarni, bizni qora tortib o'tirganida shunchalik, ularning holini ne kechdi ekan?!

- To'ram aytuvli odamlarga xat bitib bergan edilar. Surishtira-surishtira Jambulgacha borib kelibmiz. Axiyri bir yaxshi odam bir kishini boshlab kelib mushkulimizni oson etdi-ko'ydidi. Dunyoda savobtalab, Alloh roziligi uchun jonini berib yuboradigan odamlar ko'p ekan. Bo'lmasa, o'ttiz yil ilgarigi izni topib bo'larmidi?! Yangiyo'ldan topdik axiyri.- Olim akam o'sha xorijda, yana Makkai mukarramada pir darajasiga yetgan odam uchun faysabililloh harakat qilgani uchunmi, yo To'ram taqsirning bir ogʻibiz iltimoslarini o'rinlatib kelgani uchunmi, togʻib agʻibdargan odamdek xursand edi. O'zini yengil, emin-erkin his etar edi. Balki orqasida bo'lak gaplar ham bordir. Aytmay turgandir?

Lekin shu topda unga sidqidil havasim kelib tursa-da, o'zimni tushuniksiz hislar qamrab bormoqda edi. Chindan ham dunyoning ishlari qiziq. Ot aylanib-aylanib qozigʻibini topishi shumikan? Kechagina o'lgan-tirilganiga qaramasdan hukumatga xizmatdan bo'lak narsani bilmagan odamning bugun savob umidida shaharma-shahar kimning zurriyotlarini izlab yurishi - chindan hayratlanarli edi. Hamma ham shunday qila olsin-chi, qunt qilgan fursat topmas, fursat topgan o'z tashvishlaridan ortmas. U esa, uy-joyini, o'zini unutib, shuning ketida yuribdi. Mo'min mo'minga bundan ortiq qayisha olmas.

U shunday yaxshi tashvishlar bilan kuymanib yurganida men ishim orqaga ketib, taqdirim nima bo'lishini bilmay (bu haqda hatto birovga yorilolmay!) uyda ko'milib o'tirishim chindan go'balati edi. Oyning o'n beshi yorugʻib, o'n beshi qorongʻib deganlari shumikan? Olim akamdek odam yo'lini topib olganida men qorongʻib ko'chaga kirib qolsam, juda-juda go'balati-da. Nimalar bo'lyapti o'zi? Nimada adashdim, xato qildim? Yo kim bilib o'tiribdi deb, o'sha narsani o'girib beraverishim, ichimdagi narsaga tupurishim kerakmidi?! Hech qachon! Men unday qilolmasdim, boshimda qilich turib, dor oldiga olib borsalar-da, rozi bo'lmasdim! Shu mening "men"ligim edi! Hamma-hamma bilan men Sulton akamga o'xshab, e'tiqodi-iymonini deb vatanidan ayrilganlarni so'kolmasdim, xoin deb atolmasdim! Hamma tomdan tashlasa-da, men tashlay olmasdim! O'sha dor tagidagilar tarafga o'tsam-o'tib ketardimki, ularni sota olmasdim. Shuni deb balki uch kun o'tib, ishdan ham ketarman. Hozir-chi, qadrimga yigʻiblab o'tirishim qiziq. Tanamga o'ylasam-chi! Kim komil bo'lib tugʻibila qolibdi! Inson qadriga yigʻiblay-yigʻiblay o'zini taniydi, o'zligini topadi-ku. Bizga ham shu yo'lni bosish nasib etibdi, O'ziga shukr qilmaymanmi?!

- Alloh rozi bo'ladirgan ko'shish ekan, savobning tagida qopsan, bolam, savobning tagida, - dedilar oyim mutaassirlanib.

- Suyunchisi-chi, suyunchisi? Katta bo'lgandir? - dedim men unga tegishib.

Olim akam xijolatlanib iljaydi:

- Xolam aytganlari yetadi menga. Alloh roziligidan ortigʻib kimga kerak! - dedi u. - Qolaversa, bu yoqda bu To'ram xursand, u yoqda u To'ram xursand. U kishining mushfiq zavjalari, o'gʻibil-qizlari xursand. Ikki o'rtada turgan muftiy taqsir sidqidil duo qildilar. Bundan ortiq nima kerak menga?!

- Yuz yilga tatiydigan ish bo'пти! - deb yubordim men.

- Ikki dunyoingga yetarli, bo'пти, bolam. Bunaqa savobni hamma ham topsin-chi, - dedilar oyim. U kishi ta'sirlanganlaridan o'tirgan yerlarida shasha-doka ro'mollarining uchini dam u, dam bu mijjalarga bosar edilar.

- Bu hali hammasimas, xola. To'ram taqsir o'sha muftiy domlaga bir xat bitib bergandilar, oborsam: "Bizga shunchalik qayishib, Oltinxon to'ram oldilarida yuzimizni yorugʻib etgan To'ramga jonlar nisor bo'lsin. U kishining iltimoslarini ado etmak bizga farz ham qarz. Hajga o'rin izlab ko'ramiz", - dedilar u kishi.

- Hajga o'rin, kim uchun? - dedim hech narsaga tushuna olmay.

Olim akam o'ziga yarashadigan bir tarzda issiq jilmaydi va ovozini pastlatib men tomon engashdi:

- Yodgor bilan mushfiqa kelinoyimiz uchun. Bilasanmi, nima dedilar To'ram? "O'gʻibli er yetib qoldi, onasini Ka'batullohga olib borib, zamzamlarga qondirib kelsin. Haj asnosida dardlari arib ketgay, inshaalloh", dedilar.

Men ich-ichimdan bir yengillik tuyib:

- Ana, bor ekan-ku davosi! Shifosi o'sha zamzamu sim-sim kalidi haj talbiyasi "Labbayka, Allohmma labbayk, labbayka la sharika laka labbayk1"... ekanmi?... - deb yubordim dardi-dunyomni unutib.

13. Dogʻib vatan yoxud go'barib diyor suvratlari nimalardan so'zlar?

Jahonda nima ulugʻib - lafzning ustidan chiqmoq ulugʻib! Bu ham Paygʻibambarimiz sollallohu alayhi vassallamdan qolgan bir sunnat. Najoshiy diyoridan ort-tirgan o'sha birodari o'zi zanj bo'lsa ham iymoni butun ekan. "Sen tufayli kinom dunyoga tanildi, ogʻibizga tushdi. Avvalo, Alloh, qolaversa, sen qo'llamasang, "Hijrat yurti"ni ikki dunyoda bunday chiqarolmasdim. Tila tilagingni!" deb kelgan o'sha Qora darvesh uning bir ogʻibiz iltimosini qanday o'rinlatibdi! Birodari Sultonmurodni qora yukchi-suvratchilari qatori ola ketib, uni ota mavze-mavozelariga qadar olib o'tib, u aziz diyorning Yakkabogʻib Kattabogʻibdek ko'zga

to'tiyo etsa arzigulik joylarini tasvirga tushirib kepti! Oh, bundan ortiq iltifot bo'luvi mumkinmi?! Vatandan bundan ortiq esdalik-mujdalar keltiruv mumkinmi?! O'zi qora bo'lsa ham ko'ngli "Xajarul as'ad"dek oq ekan, pok ekan! Alloh rozi bo'lsin, sa'y-harakatlarining ajrini to'liq qilib bersin, ilohim.

U xayrlashib ketdiyu Bahridin o'zini allaqanday gv̄harib sezib qoldi. Hozirgina mehmon supasi, hovli-joylari ular vatandan keltirgan mujdalar bilan to'lib turgandek edi, to'yxonaga o'xshab ketgan edi. Ular jo'nab ketishdiyu hammayoq huvillab qoldi. Sultonni Jiddada qoldirib kelishmasa, bunchalik yolB~gv̄Bizlanib qolmasmidi. U Makkaga o'tib ketganmish, o'shanaqasi Oltinxon to'ram bilan uchrashib, qaytishda kiradigan bo'lganmish. Ungacha ichikib qolmasin deb, ona diyor suvrati tushirilgan videotasmalardan bir donaginasini tashlab ketganmish. Bu xamir uchidan patir, keyin bamaylixotir ko'ramiz, deganmish. Bunda ham bir hikmat bordirki, Alloh shuni xohlabdi.

Bahridin ona yurt xabarlaridan o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan, hozir esa, hovlilariga qadar tutashib kelgan xurmozorlari tagidagi mehmonsupalarni oyogv̄Bi olti, qo'li yetti bo'lib. yigv̄Bishtirib yurgan zavjasini imlab chaqirdi:

- Qo'y, onasi, xizmatkorlarga ham ish qolsin. Beri kel, qara, ular bizga vatandan nima keltirlar. Bunaqasi yetti uxlab tushingga kirmagan. Ostki qavatdagi salqin uyga joy qilsang, birga-birga o'shani ko'rgaymiz. O'zimizdan bo'lak hech kimni qo'yma.

Xohlasak, ko'zyoshlarga erk beramiz, xohlasak, qayta boshdan ko'rib bo'zlashamiz. Bo'laqol, - dedi.

Margv̄Hubabonu erining oxirgi so'zlaridan cho'chibgina yarim yo'lda to'xtadi:

- U nima, adasi? O'ziz buyurganmisiz? Yo o'z bilgilaricha, biron narsa topib keltiribdilarmi?

- Kirsang, ko'rasan, - dedi Bahridin halitdan bo'gv̄Biziga bir narsalar qadalib kela boshlab, ovozi o'zgartirib o'ziga ham bilinmoqda edi. - Biz tugv̄Bilib o'sgan ma'voni, sen kelin bo'lib tushgan joylarni suvratga tushirib qaytganmishlar.

Margv̄Hubabonu bu xabardan ikki yuzini ushlab qolgan edi, yuzlari uyatdanmi, nimadan, balki chimildiqda yolgv̄Biz qolganlarini eslab, lov-lov yonmoqda edi:

- Voy, Murjimondagi o'sha hovli-joylarizni-ya?

- Topdik-topdik, ko'cha yoqasidagi o'sha uzun boloxonali uy omon qolgan ekan, deydilar. Qari tollar qirqilib ketganmish-u, tom omonmish.

- Subhanalloh, shuncha yil kechib-a? - Ikki oyogv̄Bidan bor madori yerga o'tib keta qolganmi, ayoli turgan yeriga o'tirib qolgan edi.

Bahridin uning bu holi-ahvolidan qo'rqib ketib, oyogv̄Bini qo'lga olib yugurdi. Borib zavjasining qo'ltigv̄Biga kirarkan:

- Holing kelmasa, mayli, onasi. Men senga ilingan joyim edi, - deb tasalli bera ketdi. - Balki jindek suv ichib yuborsan o'tib ketar?

..

U suv chaqirguncha bo'lmay, Margv̄Hubabonu yengi bilan yelpinib, sal o'ziga keldi:

- Hechqisi yo'q, adasi. O'tib ketdi shekilli, - deb turishga unaldi. - Aytishga aytib qo'yding, endi chidab bo'ladimi, yurak uzilib tushadi-ku.

Ular pastki qavatdagi salqin uy tomon yura boshladilar.

- Mayli, mayli, o'zingga qara, o'zing bilasan, yuraging ko'tarmasa, keyin ham ko'raveramiz, - dedi Bahridinxo'ja uning ko'ngliga qarab.

Ammo ayoli bosh to'lgv̄Bab, yaxshiman, degan kabi jilmaydi, so'ng qo'ltigv̄Bidan chiqib, o'sha salqin xona eshiklarini ochgali oshiqdi: vatan sogv̄Binchi, vatan suvratlari oldida bo'lak narsalar o'taversin edi!

Ular o'sha salqinlatib qo'yilgan xos xonaga kirdilar-da, har ehtimolga qarshi eshik ilgagini ham ildilar. Vatandagidek qilib ustalarga yasattirilgan xontaxta yoniga, qo'shqavat ko'rpachalarga cho'kkancha, tashB~qaridagi jazirama issiqni unutilib, boshqaruv tugmachasini bosdilar. Na tasma shigv̄Billadi, na televizor mahtal etdi. Ana buni texnika desa bo'lardi! Tugmachani bosgan onda oynai jahon tasvirxonasi ochilib, yurakni orziqtirib yurt jamoli yuz ochgan va o'ziga ohanrabodek tortgan edi.

Avvaliga ko'z oldilarida tanib bo'lmas darajada yangarib ketgan ulugv̄B shahar paydo bo'lib, hech narsaga tushuna olmay turdilar. So'ng u ham orqada qolib, tasvirga olayotgan kinochilar tushgan mashina kunbotarga qarab oqqan allaqanday kanal yoqalab bora boshladi. Qarangki, uning ikki cheti keta-ketguncha tekis bo'y talashib o'sgan mirzateraklar edi, ularning barglari shabadada uchirmaqanot qushchalardek parillagandan-parillar edilar. Mana buni ona diyor desa bo'lardi! Shamolda ko'k uklardek shildiragan mirzateraklarni ko'rib, har ikkalalarining-da yuraklari to'kilishga tushgan edi. Bu qaysi suv ekanki, qirgv̄Bogv̄Bida behisob teraklar bo'y talashib ulguribdi? Ustiga ustak, suv yoqalab ketgan kaftdek tekis yo'lning bu yonidagi oq uy-olabargohlarni hech tanib bo'lmas edi. Uni qarang, hatto suv ustiga hatto beton ko'priklar solib ham ulgurishibdi. Ammo u qaer edi, hech taniy olmasdilar.

Yo'q, ana, o'sha ko'prik yonida osma taxta ko'prik ham ko'rinib, endi tasvirchilar undan kimnidir o'tkazib suvratga ola boshladilaru... u rosmana lopillashga tushib, Bahridinxo'ja o'zini tuta olmay qoldi:

- Ie-ie, axir bu Oqtepaning osma ko'prigi-ku! O'zimizning Bo'zsuv-ku, onasi! Tanidingmi?

- Voy, o'shami? Novzadan boraverishdagi ko'prikmi? O'shani aytasizmi? - dedi ayoli.

- Ana, ana, chapga burilishdi! Yo'l ilgarigi o'rnida qolgan ekan! Novzani ko'chasi bilan Cho'pon otaga qarab kelishyapti! Meni aytdi deysan! - hovliqdi Bahridin xo'ja. - Sen qarab tur, yo'l yoqasida ho-zir azim sadaqayragv̄Boch chiqadi: agar surib tashlashmagan bo'lsa.

- Voy, nega surishadi, adasi, necha yuz yillik narsani-ya? Unaqada nima qoladi?! - deb achindi ayoli halitdan.

- Sen niyatlarini bilmaysan, onasi. Bu xalq gv̄Bururlanadigan narsa borki, hammasini yiqadilar, qirqadilar, yo'qotadilar. Sen nimani bilarding, - dedi xojasi.

- Shu zilzila bahona o'zlarini ko'chirib, jannatdek bogv̄Bilarimizni tortib olishganmishmi, adasi? Qarang, hammayoqqa toshqo'rgv̄Bonlarni "ekib" tashlashibdi. Bogv̄Blardan asar ko'rinmaydi-ku.

- Ular bo'ladiyu qoldiradimi! Tagv̄Binam hammasini kun-payakun qilib ulgurmaslaridan suvratga olib qolishibdi. Bo'lmasa, tanib bo'psan edi!

Shu orada kinochilar mashinasi tagidan bir an-hor suv oqib chiqayotgan ko'prikdan oshib o'tib, rastalariyu do'konlarining tomlari ochib tashlangan bir guzarga kirib bora boshladiyu Bahridinxo'ja uni tanib qolib, "voh-voh"lab yubordi:

- Vo-oh, onasi! Bu axir Cho'pon ota-ku! Harob bo'pti-ku guzarimiz! Men senga nima devdim?! Jannat diyorimizning urvogv̄Bini ham qoldirmaydilar, gv̄Bururlanadigan hech vaqomiz qolmaydi, demabmidim?! Guzarsiz, hovli-bogv̄Blarsiz - biz kimmiz?! Hech kimmiz-da. - Alamdanmi, nimadan ko'kragi simillab ketdi, allaqaeri tuz sepilgandek achishardi.

Shu tob katta yo'l yoqasida o'sha aytgani - azim sadaqayragv̄Boch ko'rinib, ikkalalari-da shoshib qolishdi: Hayxot, unga nima

bo'lgan ediki, butun boshli ulkan sada tag-tugi bilan qurib bitgan, ayni bahorda bironta ham barg yozmay, chumchuqvoylarga in-vatan bo'lib qolgan edi!

- Ana, xolos! Men senga nima devdim? - dedi Bahridinxo'ja ichi sidirilib, - Ularning qaysi kasofatidan qurib ham bitibdi-ku.

- Hechqursa, qirilmay qopti-ku, adasi, - dedi ayoli.

- Qurigan daraxt qachon bir yaxshilik keltirgan? O'zbek borki, kasri-kasofati urmasin deb, o'sha zahoti arralab tashlaydi. Bular esa, tegishmabdi ham! Shundan bilaver, niyatlarini!..

Atrofda osmonni ham to'sgudek bitib-bitmagan mahobatli toshqo'rgb'lonlar ko'rinar, ular o'rtasida ilgari bogb'ldardan na biron daraxt, na biron ishkom-bogb' ko'zga tashlanar edi. Hatto soylargacha ko'mib, chimzorlarga dovur surib tashlashibdi.

- Ana senga diyoring!.. - dedi Bahridinxo'ja "nimasini sogb'binasan, nimasini qo'msab bir yerlarga yetasan", degan kabi.

- Qay gunohimizga Alloh diyorimizni bu ko'yga solibdi, adasi? Gunohimiz borki... - dedi ayoli ovozi qaltirab.

- Bor, bor. Bo'lmasa, balo yubormasdi, - dedi xojasi ovozi o'zgarib. Unga piqillab ayoli qo'shildi:

- Hikmati nima ekan, adajonisi?

- Avvalo, biz o'zbeklar o'zimiz noahilmiz, ittifoq emasmiz. Agarki, - U turib, qaytib o'tirgan, o'zini biroz tutib olgan edi. - Oltinxon to'ramga, Sultonga o'xshagan kishilarmizning etagidan mahkam tutganimizda edi, mana bunday jahonga to'zib yurmasmi edik, muqaddas yerimizni kelgindilarga berib qo'ymasmi edik?! Eng avvalo, Allohga suyanib, O'ziga tavakkul qila bilganimizda, shu kunlarga qolmasmi edik!.

- Uni qarang, adasi, qarang, bizni boloxona, bizni tom-ku, esladizmi? - deb yubordi ayoli kutilmaganda o'rnidan turib ketayozgudek bo'lib.

- Eslaganda qandoq, taniganda qandoq, - dedi xojasi yigb'imi, nima bosib kelganidan ovozi bitib, so'ng hiyla vaqt o'zi esini tanib, er yetgan o'sha vatan suratiga termulib qolib, ichini to'ldirgan hislardan mingdan birini tiliga ko'chiroidi. - Sen kelin bo'lib tushgan, men baxti qaroga kuyovlik nasib etmagan uy b' go'sha-ku, - deb tomogb'iga tiqilib kelgan yigb'ini qult yutib, qo'shdi. -

Taqdirning yozmishi bunday ekan, mana, qay diyorlarda o'zi topishtirdi. Qo'sha qaruvimiz, bir etak bola-baqra ko'rib yuruvimizni... ko'rmagandan padarimiz ko'rmadilar, ko'rmagandan onaizorim ko'rmadilar. Kuygandan ular kuyib o'tishdi.

Bu so'zlar shunchaki so'z emasdi, yigb'lamaganni ham yigb'latadiringan, bo'zlamaganni ham bo'zlatadiringan so'zlar edi. Dunyo ko'rgan, bu kunlarga yetguncha xo'b ogb'irchiliklarni yelkaga olib ne mashaqqatlarga miq etmagan er kishining ich-ichidan qaynab chiqayotgan bir so'zlar ediki, uni piq-piq yigb'lab tinglamoq mumkin edi, o'rtaga biron so'z qo'shib bo'lmas edi.

- Oh, onaizorim, gb'hamguzorim! Xudo farzand bermagani kamdek asrandilari to'yini ko'rishga ham qo'ymagandilar-a!.. Biz boyaqishlarga kuyovlik kiyimlarida go'shangaga kirish nasib etmasa-ya... Bilmadim, bu voqealardan eslari ogb'ib qolmadimikan keyin?..

Uni tinglayturgan yolgb'biz zavjasi - nima qilsa ham ayol kishi - o'zini tutolmadi, tutolmayin xo'ngrab yubordi:

- Nimasini aytasiz, adasi, siz nimani ham ko'ribsiz! Shom tushdi degandan u kishi kelinlik uyimning ostonasiga o'tirib olib, "Bahriddinuv, Bahriddinginamuv"lab chaqirishga, chaqirib bo'zlashga tushar edilar. U bo'zlashlariga bir men chidar edim, butun olam chidolmasdi. Hamma uy-uyiga kirib ketar, bir men qora oshxonada yolgb'biz qolib, xun-xun yigb'iga botar edim. Osmon yiroq, yer qattiq edi, adasi. Siz esa, kela qolmasdingiz.

- Taqdirning yozmishi bu, onasi, Xudoning xohlashi, - deya olardi xojasi.

- Keyin men ketdim, adasi, u kishi menga javob berdilar. Ne umidlar bilan kelgan uyimdan ketdim, adasi, - deb yigb'lagan kuyi tushuntirardi zavjasi.

- Senda ayb yo'q, onasi, Allohning sinovlari bu,- derdi xojasi, yana ketidan taskin berardi, - Shukr qil, shuncha yil o'tib topishtirganiga, birovdan kam joying yo'q, yana qaer, Paygb'hambar alayhissalom yurtlarda ko'rishtirdi, topishtirdi, rizq-ro'z, vatan o'rniga vatan berdi, shukronasini qil.

- Alhamdulillah, alhamdulillah, bu kunlarga kimlar yetdi, kimlar yetmadi. Men shukr etmayin, kim etsun.

Ular diyor tasvirilarini-da unutib, Allohga hamdu sanolar aytishar, bu kunlarga yetkazgani, hamma narsani chevarlik bilan chok-chokiga to'gb'irilab, ularni qo'sha qaritib qo'yganiga shukronalar aytib, ado qilisha olmas edi.

Axiyri er ahli ayolining yuziga iltijo-la boqdi:

- Shoshma, onasi, biz o'zimiz bilan bo'lib, bizga shuncha yaxshiliklar qilgan, yurak yutib ajdahoning komiga borib kelgan bir kishini, uning mushfiq zavjasi, yolgb'biz yodgorini unutibmiz. Sen taqvosi zo'r bir musofirisan. Sening duoning qabul. Shu mard birodarimu uning mushfiqasi haqqiga bir duo qilki, tokim qodir Alloh ularning ham uzulgan rishtalarini ulab, o'zlarini topishtirsin. Judoliklariga chek qo'yib, keng dunyoning biron yerini vatan tutib, yashamoqlariga imkon bersin. Och, qo'lingni, tokim shular ham hamma qatori farzandlarining kamolini, rohatini ko'rib, O'ziga ibodatda qo'sha qarisinlar.

- Yo'q, yo'q, adasi. Men Tangrining bir ojiza, shu diyorga kelib ibodatga tushgan bir gunohkor bandasiman, xolos. Ular haqqiga o'ziz duo qiling. Siz necha yillarki, tahajjudizni uzmay kelayotgan kishisiz. Sizning duoningiz qabul. Ularga siz ro'shnolik so'rasangiz, shoyad Allohim ijobat etsa...

Ular bu mushfiqalarga ro'shnolik tilashayotgan bir pallada qarangki, gung tasvirchi olgan tasmadan ajab tanish o'rangan bir ayol suvrati o'tib borar, uning ortidagi bo'y yetgan yolgb'biz Yodgorini demasa, u bu go'shada yigb'lab duo qilmoqda bo'lgan Margb'hubaga bir tomchi suvdek o'xshab ham ketar, o'xshamay ham qolar edi. Bu nima, ro'yomi, haqiqat, har ikkalalari ham angalay olmay, alanglashib qolishgan edi.

Bu qanday karomat - ular bilisha olmas, bilishdan ham o'jiz edilar. Bu pallada esa, boyagi o'gb'bil onasi quyib uzatgan choyni gung tasvirchiga ilinib olib bormoqda edi.

- Yo qodir Alloh, choy quygan u mushfiqa kimu uni notanish mehmonga ilinib olib borgan o'gb'bil kim?- deb yubordi azbaroyi to'lqinlanganidan xojasi. - Nahot birodarimiz gung tasvirchi qiyofasida o'sha yergacha yetib boribdi?! Yetgan ersa, bu ham bo'lsa, Allohning so'ngsiz marhamatidir, undan bo'lak narsa emasdir. O'ziga hamdu sanolar bo'lsin, subhanallohi va bihamdihi, subhanallohil aziym1, - deya oldi.

Shu daqiqada Vatan dogb'ida kuygan dillardangina Alloh sha'niga shunday hamdlar yogb'ilmogb'bi mumkin edi, xolos. O'zi dargohida qabul etib, har sanosini bir nurga aylantirsin oxiratda, ilohim!

Rozi bo'l, Chaman...

"Uzr, Chaman, sendan beruxsat bir ishlar qilib qo'ydim. Jo'mardligim tutib, sarhad oshib qo'ydim: diyorga yo'l chiqib turgan ekan, tavakkali Xudo qildim. Vatan sogb'binchi, qavm-qarindoshlar ruxsorini bir ko'rmoq, u diyorga intizorlik, ahli ayolim, yolgb'biz

yodgorim oldidagi qarz - qo'ymadi. Barcha-barchasi ustun keldi senga bergan va'dalardan, dim ketmoqdan, ne balolarni ko'rgan bu aziz boshdan. Tavakkal qilmoq vaqti kelgan edi, o'zimni Allohga topshirib tavakkal qildim. Mardni qilich ham olmas, shayton ham yo'ldan urolmas, botirni Xudo ham asragay, degan gaplarga ishondim. O'sha qora-quralarga yollanib bo'lsa-da, jondan aziz yurtga kirib bordim.

Uzr, bu niyat, bu jihodimni sizlarga xabar berishi mumkin bo'lgan pashshadan ham sir tutib, Alloh o'zi kechirsin, Oltinxon to'ram qavatlarida e'tikof o'tirgani ketayotgan joyimda safarni ixtiyor ettim. Shunday - vatanga yo'l chiqqanda - e'tikofdan ham kechmoq, ortga surmoq mumkin ekan.

Vatanni sevmoq iymon jumlasidandir dedilar To'ram ham. So'ngra yo xubbil vatan, deya yo'lga chiqdik. Vatan havolaridan bir bora nafas olmoq uchun, sarhad ortida qolgan u azizlarim birini ruxsor ko'rmoq uchun men har narsaga tayyor edim. Axiyri o'sha qora-quralarga yukchi bo'lib yollanishga, gung-soqov bo'lib borib-kelishga rozi bo'ldim. Rozilik ham gapmi, bora-borguncha, kela-kelguncha ularning poy-patagi bo'lishga-da tayyor edim.

Bilmadim, Bahridin ular bilan qanday tillashgan, qanday ko'ndirgan, lekin men bu safar uchun gunglik ekan-ku, har narsaga rozi edim. Faqat ikki diyda b'ikki qarogv b'imi ochiq bo'lsa bas edi! Sarhad ortida qolgan u mushfiqam, u jabrdiydalarimni o'z qarogv b'imi-la bir ko'rsam, bu jahonda sogv b'omon ekanliklarini bilsam kifoya edi.

Chaman, bil, men ishontirib kelgan mushfiqam haqqi qaytib bormasligim mumkin emas edi. Ko'rmagunimcha ko'nglim joyiga tushmasdi. Tinchimasdim. Xabar berolmaganim-berolmagan, bormasam, holidan xabar olmasam keyin tongla Mahsharda Alloh oldida kim deb atalardim?!

Tushun, men qoidani buzib, seni abgor qilish uchun emas, osmon nikohi uzilmagan o'z zavjam - oilamni deb, pushti kamarimdan bo'lgan tirnogv b'imi - Yodgorimni deb bordim. Sen vatan sogv b'inch nima bilmassan! Vatan sogv b'inch nima, vatandan quvilganlardan so'ra! U sogv b'inch o'rtab kelganda hamma narsa bir tomon, vatan ham bir tomon bo'lib qoluvini, uning havolaridan bir bora nafas olmoq, suvlaridan bir qultumgina ichmoq jahondagi jamiki narsalardan azizroq bo'lib qoluvini do'stim, sen qaydan ham bilarding?! Buning uchun mening kuyimga tushmogv b'ing, sarhadlarda kulbasiga yo'lay olmagan it kabi darbadar daydimogv b'ing, zor-zor yigv b'lamogv b'ing kerak, Chaman.

Uzr, men seni gv b'aflatda qoldirdim. G'aflatda qoldirib sarhad oshib bordim.

Meni siznikilar nima deb atasinlar-atamasinlar, xalqim kim deb o'ylasin-o'ylamasin, yurtim o'zim uchun o'sha-o'sha azizdir, millatim o'sha-o'sha qadrlidir, men o'lsam-da, undan kecha bilmassan, Allohning omonatini qaerda topshirmayin, o'sha vatanimni, shu dinimni, o'sha azizlarimni so'nggi nafasimga qadar unutmaman. Mayli, elim meni quvgv b'indi deb atasin, xalqim sigv b'indi deb bilsin, men o'zimni ular bilan etu tirnoqdek deb bilarman. Bu hijrat hammaga ham nasib qilavermas! Allohim bizni shu hijrat bilan sinabdi, taqdirlabdi, shunisiga ham shukur. O'zi aziz qilgan yurtlarga yetkazmay, tili, dini boshqa bir yurtlarga itqitganda, o'shanday Xudo qarogv b'agan bir taraflarda do'zax azobini totmoqni ravo ko'rganida nima qilardim?! Yo bo'lmasa, Tangritogv b'ning o'zida kelgindilar changalida qoldirganida dodimni kimga aytardim?! Jindek omadim borakanki, qaysibir ishlarim Allohga xush kelgan ekanki, bu yoqlarni ravo ko'rди, emin-erkin o'ziga toat-ibodatda bo'la oladigan diyorlarga yetkazdi. Paygv b'ambar yurt-lariga qadamimiz tegdi, shukur.

Bilaman, sizlar anoyimassiz. Tuzumingizga xavf sola olguvchi har bitta mujohid-quvgv b'indi qay mamlakatda nima bilan nafas olyapti, nimani diliga tukkan, dardi nima - hamma-hammasidan xabardor turguvchilaringiz bor, ko'z-quloqlaringiz son ming. Shunchalar ustomonsiz. Lekin makringiz Allohning makri oldida hechligini bilmaysiz. Alloh istasa, o'sha dushman tugul qush ham uchib o'tolmassaltanatingizni bir kechada o'tmishga itqita olishidan bexabarsiz. Shunchalar o'zingizga magv b'rursiz, maftunsiz. Qolaversa, Chaman, men ham shu temirqo'rgv b'onning qanchalar mahkamligini bir sinab ko'rgim keldi. Yo'q, niyatim sizlarni dogv b'ida qoldirishgina emasdi. U dargohlarning ko'ziga cho'p solib bo'lsa-da, azizlarimni ko'rib kelish edi, qiyomat qarzdan qutulish edi. Hatto meni ola ketgan o'sha zanji kinochilarning o'zi-da mening kimligimni bilmasdilar. Plastik operatsiyadan keyin o'zimni o'zim tanimay qolganimni bilsang edi! Chaman, bilaman, sen bu ishimi oqlamasliging tayin. Shakkoklik deb atashing, ko'ra-bila turib, dor tagiga borish, qilich damida yurib, sirot ko'prigidan o'tmoq deb baholashing mumkin. Lekin bu o'lgisi kelgan mushukning arslon bilan o'ynashuvi emasdi, yo'q. Men o'sha arslonning ko'zini shamv b'alat qilgim keldi va Allohga tavakkal qilib edim, qodir Alloh mendek yolgv b'iz jangchisiga nusrat berdi va men Allohning bir "qora quli" niyatimga yetdim.

Chaman, sen bu safarimni, yovuz arslon changalidan omon o'tib, azizlarim panoh topgan bir yergacha borib, ularni o'z ko'zim bilan ko'rib keluvimni, judo bo'lgan diyorimizning tanish suvratlarini esdalikka tasmaga tushirib qaytuvimni sen shakkoklik deb sanama. Bu Xudoning marhamatidir. Bil, agar butun olam seni dushman sanab tursa ham yolgv b'iz Alloh sen taraf bo'lsa, butun olamning dushmanligi hechdir. Yolgv b'iz Alloh o'zi asragaydir. Men bilan ham shunday bo'ldi, bir tukimni ham to'kdirmay manzilimga qaytardi u.

Shu boisdan ham sen mendan xafa bo'lishing o'rinsizdir, Chaman. Qolaversa, ona shahrimizga borib, bir ogv b'iz o'zimni bildirmaganimni, ko'rgilarim kelsa-da, ko'rishga harakat etmaganimni o'zing tushunib yetarsan deb o'ylayman. Bo'lmasa, Kalkovuz bo'yidagi u aziz go'shaga bosh suqmoq, seni, Oyto'ra xolamlarni ko'rib, ziyorat etmoq, duolarini olmoq farz edi menga - seni, o'zimni ayab (ayamasam bo'lmasdi, hamma-hamma bilan senga dogv b'tushirolmadim!) borolmadim. Ichlarim gv b'urmishlab, ko'rgim kelib yotsa-da, nafsimni bosdim, sindirdim uning istaklarini!

Sen gina qilishga har qancha haqqing bor, so'kishga haqqing bor. Ammo tushun, bu mumkin emasdi. Men yolgv b'iz bir niyat bilan - u mushfiqam, u musofirginam, u qiyomatga qadar kutmoqqa rozi jabrdiydam ruxsorini sogv b'inib, bo'yi bo'yimga yetib qolgan u yolb-gv b'iz tirnogv b'imizning chiroyi, kamoli-bastini bir qurgina ko'rmoq uchun ham, har ikkalalarining holidan xabar olmoq uchungina ham kelgan edim. Kelmoq - qiyomat qarz edi, keldim. Men ularga biron nima qilib berolmasam-da, ko'rmogv b'imi, hollaridan xabar olmogv b'imi o'zim uchun farz edi. Sen muhojirlik nimaligini, ahli ayoli, oilasini tashlab, dunyo kezmoq nimaligini bilmaysan, darbadarlik alamlarini totmagansan. Yo'lingga ko'z tutgan mushfiqang, farzand-laring ko'z oldingdan o'tib ko'rmagan.

Sen tushun. Zamonning zayli bilan men sarhaddan o'tolmay qolganim bilan, musofir yurtlarda muhojir bo'lib kezib yurganim bilan ahli ayolim, oilam oldidagi shariat zimmaga yuklamish vazifalar soqit bo'la qolgan emas. O'rtada osmon nikohi turibdi, guldek navjuvon farzandim bor, taloq ham tushmagan o'rta. Ularning holidan bir qur bo'lsa-da, xabar olmaslikka qanday haqqim bor?! U sizning dahriylik asosiga qurilgan davlatingiz oila muqaddas deb dunyoga jar solgani bilan meni o'z oilamga qo'ysin-chi! Yoxud olib chiqib ketarimga ruxsat etsin-chi! Qo'ymaydiyam, ruxsat ham etmaydi! Unga shariatimiz biz erkaklar zimmasiga yuklamish vazifalar bir pul. Men esam Alloh subhanahu va taolo amrini ilgari bo'lmasa ham hozir ustun qo'yaman, unga bo'yin egaman.

Chunki qiyomatda bu xususlarda qattiq so'ralmogv b'imiz bor. Shu vajdan ham o'sha tong-la Mahsharda janobi Bosh qozi huzurida xijolatda qolmaslik uchun ham bu safarni ixtiyor ettim, Chaman. Ana endi tushungandirsan, men u quvilgan diyorimga ne

This is not registered version of TotalDocConverter

maqsada qo'yilgan qiyofasini, yana o'na qiyofada vatanni tark etganimni?! Bo'lak ilojim yo'q edi, mendan keyin birov jabr ko'rib qolmasligi kerak edi. U diyordagilarga men jafo qilolmasdim.

Agar Chaman, ixtiyor menda bo'lsami, o'zim bilardim nima qilishni. Afsus, ixtiyor bizdama. Qo'limiz ham kalta. Faqat senga bir iltijom bor. Yo'lini topib u mushfiqam Mahfuzaga bir yordam qil. Sen chindan kirishsang yo'lini topgaysan. Ming yillik birodarligimiz haqqi, qolaversa, Alloh roziligi uchun qil bu ishni. O'ziga yarasha ajrini ham olgaysan, inshaalloh.

Gap shundaki, Chaman, balki men adashayotgandirman (ilohim, adashgan bo'lay!), balki ko'zimga shunday ko'ringandir (ilohim, adash ko'ringan bo'lsin!).

O'sha safar payti, Maqsudlarning yangi joydagi hovlisida biz xabash kinochilar u xonadonni yutaqib tasмага tushirayotgan kezimizda Allohning marhamatini qaraki, mening mushfiqam - izlagan kishilarim (Bahridin xabar berganidek) o'sha yerdan chiqib turibdilar. Ko'rib, boshlarim ikki aylanib ketayozdi. Nazarimda dunyo ostin-ustun bo'lib ikki aylanib keldiyov. Ular esa, dunyoning narigi bir chekkasidan kelgan biz mehmonlarni ko'rib, ona-bola pastki uy ayvonidan tushib kelishmoqda edi.

Mahfuzam - to'lishib durkun tortgan bir ayol, bo'yi bo'yiga tenglashib qolgan (qara-ya, o'g'v'limiz o'smir yoshidan o'tib, er yetib qopti, yelkalari barvasta tortib, onasining chin himoyachisiga aylanibdi!) o'zidek ko'rkam o'g'v'lining ortida yelkasiga qo'l qo'yib turar, boshiga men hech ko'rmagan simobiyrang bir ro'mol tashlagan va bo'ynilariga dovur o'ranib olgan edi, Chaman. Men uning bunday farishtalardek o'rangan holda hech ko'rmagan edim, orziqqanimdan, otini atab chaqirib yuborsam mumkin edi! Ammo so'nggi damda tilimni tishlab qoldim. Men ovoz bermog'v'him mumkin emasdi, bu diyorga gung tasvirchi qiyofasida yollanib kelgandim. Sirmi ularga-da ocholmasdim.

Alloh shunaqa paytda O'zi to'zim berarkan, Chaman. Esimni yig'v'hib, sotib qo'yishi mumkin bo'lgan ko'zlarimni tasvir apparatining ko'zlariga bosganimcha qoldim... Ammo uni achchiq yosh allaqachon qoplab bo'lgan edi, shuncha tikilmay hech nima ko'rolmasdim! Shuncha urinmay u yoshlardan qutulolmasdim (ular tomchiga aylanib, oqib keta qolmasdilar!). Bo'g'v'zimga ham bir nima tiqilgan, go'yo jon kushi yuragim birla potirlab chiqib ketmoqqa urinardi-yu, chiqib ketolmasdi. Peshonamdan esa marjon-marjon terlar yog'v'bilardiki, qo'yaverasan.

Ana shunda o'zimga kelib ko'rsamki, haligi yigitcha - mening Yodgorim bir piyolagina choymi, suvni olib kelayotir. Uni kim berib, kim yo'lladi deb qaragan chog'v'himda, Chaman, nimani ko'rdim! Boyaqish mushfiqam, qo'lidagi choynakni ayvon chetiga qo'yayotgan ekan. Shu tob qayoqdandir bahorning erka bir epkini kelib, uning simobiy ro'molini yelkasidan ko'tarib tashladiyu... bo'yniginasining bir chekkasini ochdi-qo'ydi.

Senga yog'v'bon, Allohga chin, Chaman, men uning quloq yumshog'v'bi tegrasida tanish va notanish ikki bir narsani ko'rib, taxta bo'lib qolayozdim. Biri tangadek nori bo'lsa, uning yonida... hech ko'rilmagan oq dog'v'bo'zga tashlanar edi...

Men uni shu holida tasмага tushirishga tushirdimu hali yurak betlab ko'rganimcha yo'q, Chaman. Ilohim, men adashgan bo'lay. U dard mushfiqamga yopishmagan chiqsin.

Ammo men eshitganim bor muhojirlardan. Ayriliq dog'v'biga uchramish ko'p ayollar ana shunday dardga yo'liqar emishlar va uning davosini izlab, bir amallab hajga kelar emishlar. Ibrohim alayhissalom va Hojar onamiz zamonlaridan qolgan zamzam va duo o'sha oq dog'v'blarning yog'v'biz davosi, yuvib yuborguvchisi emish.

Mening mushfiq zavjamga ham bu diyorda nimaiki ilashmish - barchasi men tufaylidir. Oraga tushgan ul badbaxt hijron tufaylidir. Endi sendan yog'v'biz iltimosim, Chaman (shuncha qilgan yaxshiliklaringni bittasi!), uni bir evini qilib, hajga jo'nat, darddan poklanib - haloslanib ketsin! Mahrami yo'q, dema, o'g'v'limiz bo'y yetib qopti, yoniga qo'sh. Mendan qaytmasa, Allohdan qaytsin - shu iltimosimni uddalasang ulug'v'bo' savobga qolgaysan. Va biz qiyomatda Parvardigorimiz huzuriga albatta yorug'v'bo' yuz ila borgaymiz.

Rozi bo'l, Chaman, umr bo'yi senga yuk bo'ldim.

Men yana Makkaga, Oltinxon to'ram qavatlariga ketyapman. Niyat qilgan e'tikofim bor. Xayr, oshna, sog'v'bo'l. O'zi seni xifzu himoyasida asrasin.

Sultonmuroding.

Jidda".

AvvalgiII- qismB Keyingi